

ILIM HÁM JÁMIYET

Ilimiy-metodikaliq jurnal

FAN VA JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

2026/4-1



www.journal.ndpi.uz




ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan baslap shuğa basladı

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MEKTEPKE
SheKEMGI HÁM MEKTEP BILIMLENDIRIWI
MINISTRILIGI**



**Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik
pedagogikalıq institutı**



ILIM hám JÁMIYET

Ilimiy-metodikalıq jurnal

Seriya: Tábiyy hám texnikalıq ilimler

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Tabiiy va texnika fanlari

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

Серия: Естественно-технические науки

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

Series: Natural-technical sciences

№ 4/1

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti baslıǵı, NMPI rektori – A.T.UBBIYEV
Bas redaktor – A.K.PAZÍLOV**

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ

tex.i.f.d. **Abro Abdul Ahad** (Pakistan);
b.i.d. (DSc), prof. **Ajiev A.** (Nókis);
b.i.f.d. (PhD), doc. **Begjanov M.** (Nókis);
tex.i.d., doc. **Dawletmuratov B.** (Nókis);
e.i.f.d. (PhD), doc. **Eshimbetov U.** (Nókis);
b.i.d., prof. **Ferah Sayim** (Turkiya);
f-m.i.k., doc. **Ibragimov M.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Ismaylov Q.** (Nókis);
tex.i.d., prof. **Jephias Gwamuri** (Zimbabve);
a/x.i.d., prof. **Jumamuratov A.** (Nókis);
b.i.d. (DSc), prof. **Jumamuratov M.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Kamalov A.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Karajanov S.** (Norvegiya);
f-m.i.d., prof. **Khalilov R.** (Azerbayjan);
x.i.f.d., Ph.D **Kumar Deepak** (Hindstan);

f-m.i.d., prof. **Qudaybergenov K.** (Qıtay);
b.i.d., prof. **Markov M.** (Moskva);
x.i.d., prof. **Mustafayev I.** (Azerbayjan);
x.i.d., doc. **Nawbeyev T.** (Nókis);
f-m.i.d. (DSc), prof. **Otemuratov B.** (Nókis);
f-m.i.d. (DSc), prof. **Prenov B.** (Nókis);
b.i.d. (DSc), doc. **Saparov A.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Sasirekha V.** (Hindstan);
tex.i.d. (DSc), prof. **Seytnazarov Q.** (Nókis);
x.i.d., prof. **Toremuratov Sh.** (Nókis);
g.i.d., prof. **Turdimambetov I.** (Nókis);
e.i.d., doc. **Tajibaeva K.** (Tashkent);
f-m.i.k., doc. **Tanirbergenov S.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Uteuliev N.** (Nókis);
f-m.i.d., prof. **Yavidov B.** (Nókis).

**Q.Biysenbaev – juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator**

Juwaplı redaktorlar:
**f.i.d. (DSc), doc. S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha
f.i.d. (DSc), prof. G.Kdirbaeva – rus hám inglis tilleri boyınsha
p.i.d. (DSc), prof. D.Seytkasimov – qaraqalpaq tili boyınsha**

**Jurnal 1992-jıldan
«Qaraqalpaqstan muǵallımı»
atamasında shıǵarıla baslaǵan.
2004-jılda «Ilim hám jámiyet»
atamasına ózgertilip, 01-022-
sanlı gúwalıq penen
Qaraqalpaqstan Respublikası
Baspasóz hám xabar agentligi
tárepinen dizimge alınǵan.
2020-jılı 7-avgustta
Ózbekstan Respublikası
Prezidenti Administracyası
janındaǵı xabar hám ǵalaba
kommunikaciýalar agentligi
tárepinen qayta dizimge alınıp,
1098-sanlı gúwalıq berilgen.**

**«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan
Respublikası Ilimler akademiyası janındaǵı Joqarı
Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı
menen tómende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim
doktori dárejesin alıw ushın maqalalar
járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine
kirgizilgen:**

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 02.00.00 – ximiya ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

TÁBIYIY HÁM TEXNIKALÍQ ILIMLER

Fizika-matematika. Texnika. Informatika

СВОЙСТВА ОЦЕНОК УСЛОВНЫХ ФУНКЦИЙ ВЫЖИВАНИЯ ПРИ СЛУЧАЙНОМ ЦЕНЗУРИРОВАНИИ НАБЛЮДЕНИЙ С ДВУХ СТОРОН

Абдикаликов Фархад Абдизалиевич – доктор философии по физико-математическим наукам
farxadabdikalikov2907@gmail.com

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
Институт математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан

Таджиев Тимур Муратович – доктор философии по экономическим наукам
tadjievtimur9@gmail.com

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза
Эрисбаев Сабитбек Абдуллаевич – доктор философии по физико-математическим наукам
sabitbekn@mail.ru

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

ИККИ ТОМОНЛАМА ТАСОДИФИЙ ЦЕНЗУРАЛАНГАН КУЗАТИШЛАРДА ШАРТЛИ УМР ДАВОМИЙЛИГИ ФУНКЦИЯЛАРИ БАҲОЛАРИНИНГ ХОССАЛАРИ

Абдикаликов Фархад Абдизалиевич – физика-математика фанлари бўйича фалсафа доктори
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси В.И.Романовский номидаги Математика институти

Таджиев Тимур Муратович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори
Ажинийез номидаги Нукус давлат педагогика институти

Эрисбаев Сабитбек Абдуллаевич – физика-математика фанлари бўйича фалсафа доктори
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

PROPERTIES OF ESTIMATORS FOR CONDITIONAL SURVIVAL FUNCTIONS UNDER RANDOM CENSORING OF OBSERVATIONS FROM BOTH SIDES

Abdikalikov Farkhad Abdizhalievich – Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences
Karakalpak State University named after Berdakh

V.I. Romanovsky Institute of Mathematics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tadzhiev Timur Muratovich – Doctor of Philosophy in Economic Sciences
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Erisbaev Sabitbek Abdullaevich – Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences
Karakalpak State University named after Berdakh

Таянч сўзлар: непараметрик регрессия, тасодифий цензурланиш, умр давомийлиги функцияси, даражали баҳо, ядровий баҳо.

Резюме. Маколада икки томондан тасодифий цензурланишнинг регрессия моделида шартли умр давомийлиги функциясининг даражали баҳоси тузиган. Ушбу баҳонинг боғлиқсиз тасодифий функциялар йиғиндиси билан аппроксимацияси ва унинг текис кучли асослилиги хоссалари ўрганилган.

Ключевые слова: непараметрическая регрессия, случайное цензурирование, функция выживания, степенная оценка, ядерная оценка.

Резюме. В статье построена степенная оценка условной функции выживания в регрессионной модели при случайном цензурировании с двух сторон. Изучена аппроксимация данной оценки суммой независимых случайных функций и свойства её равномерной сильной состоятельности.

Key words: nonparametrical regression, random censoring, survival function, power-type estimator, kernel estimator.

Summary. The article constructs a power type estimator for the conditional survival function in a regression model under random censoring from both sides. The approximation of this estimator by a sum of independent random functions and its uniform strong consistency properties are studied.

I. Непараметрическая регрессионная модель при случайном цензурировании с двух сторон. Рассмотрим следующую регрессионную модель с фиксированным дизайном для случая цензурирования наблюдений с двух сторон. Пусть случайная величина (с.в.) Z , означающая продолжительность жизни пациента, находится под влиянием другой с.в. X , означающей дозу лекарства. В индустриальных опытах Z означает время безотказной работы технического устройства, а X - давление, температуру или напряжение. На практике,

как правило с.в. Z полностью ненаблюдаема и может подвергаться случайному цензурированию с двух сторон с.в. L и Y . Предполагается, что компоненты вектора (L, Z, Y) независимы с.в. при заданной ковариате $X = x$. Пусть $\{(L_k, Z_k, Y_k), k = \overline{1, n}\}$ - независимые реализации с.в. (L, Z, Y) в n экспериментах и схема цензурирования такова, что в n -м шаге эксперимента наблюдается $S^{(n)} = \{(\xi_i, \delta_i^{(0)}, \delta_i^{(1)}, \delta_i^{(2)}), i = \overline{1, n}\}$, где

$\xi_i = \max(L_i, \min(Z_i, Y_i))$, $\delta_i^{(0)} = I(L_i > \min(Z_i, Y_i))$,
 $\delta_i^{(1)} = I(L_i \leq Z_i \leq Y_i)$, $\delta_i^{(2)} = I(L_i \leq Y_i < Z_i)$ и $I(A)$ –
индикатор события A . Заметим, что интересующие нас
с.в. Z_i наблюдаемы лишь при $\delta_i^{(1)} = 1$ и задача состоит
в оценивании условной функций выживания $1 - F_x$ по
выборке $S^{(n)}$. Такую задачу впервые при случайном
цензурировании справа рассматривал Беран [3],
предложив обобщенную оценку множительной
структуры из [5]. В дальнейшем эта оценка была
исследована также и в работах [7, 8]. Авторы [1, 2]
построили и исследовали класс степенных оценок в
различных моделях цензурирования. В условной
модели пропорциональных интенсивностей соответ-
ствующая степенная оценка исследована в [9]. В
настоящей работе рассматривается модель случайного
цензурирования с двух сторон и в ней также
исследуются оценки степенной структуры. Обозначим
через F_{x_i} , G_{x_i} , K_{x_i} и H_{x_i} непрерывные условные ф.р.
с.в. Z_i , Y_i , L_i и ξ_i при заданной ковариате $X = x_i$.
Тогда легко видеть, что

$$H_{x_i}(t) = K_{x_i}(t) [1 - (1 - G_{x_i}(t))(1 - F_{x_i}(t))], t \geq 0. \quad (1)$$

Рассмотрим случай, когда x_i являются фиксирован-
ными точками дизайна из $[0, 1]: 0 = x_0 \leq x_1 \leq \dots \leq x_n \leq 1$.
Далее для упрощения записи, вместо x_i будем писать
 x . Ввиду того, что в настоящей модели с.в. Z_x цензу-
рируются слева с.в. L_x , мы в состоянии оценить только
усеченную условную функцию выживания

$$1 - F_{\mu x}(t) = P(Z_i > t / Z_i \geq \mu), t \geq \mu \geq 0, \quad (2)$$

по выборке $S^{(n)}$, где μ выбирается подходящим
образом.

Для построения оценки для (2) введём вспомога-
тельные субраспределения:

$$Q_x^{(0)}(t) = P(\xi_x \leq t, \delta_x^{(0)} = 1) = \int_0^t [1 - (1 - G_x(s))(1 - F_x(s))] dK_x(s),$$

$$Q_x^{(1)}(t) = P(\xi_x \leq t, \delta_x^{(1)} = 1) = \int_0^t K_x(s)(1 - G_x(s)) dF_x(s),$$

$$Q_x^{(2)}(t) = P(\xi_x \leq t, \delta_x^{(2)} = 1) = \int_0^t K_x(s)(1 - F_x(s)) dG_x(s),$$

$$Q_x^{(0)}(t) + Q_x^{(1)}(t) + Q_x^{(2)}(t) = H_x(t), t \geq 0.$$

Рассмотрим вероятность

$$q_x(t) = P(L_x \leq t \leq \min(Z_x, Y_x)) = K_x(t) - H_x(t), t \geq 0,$$

а также интегральная функция интенсивности (и.ф.и.)
для ф.р. $F_{\tau x}$:

$$\Lambda_{\mu x}^{(1)}(t) = \int_{\mu}^t \frac{dF_{\mu x}(s)}{1 - F_{\mu x}(s)} = \int_{\mu}^t \frac{dQ_x^{(1)}(s)}{q_x(s)}, t \geq \mu \geq 0.$$

Введём также левостороннюю и.ф.и. для ф.р. K_x :

$$\Lambda_{\mu x}^{(0)}(t) = \int_t^{+\infty} \frac{dK_x(s)}{K_x(s)} = \int_t^{+\infty} \frac{dQ_x^{(0)}(s)}{H_x(s)}, t \geq \mu > 0.$$

Число $\mu = \mu(K_x, G_x, F_x)$ выбирается из условий:

$$\begin{cases} \inf_{t \in [\mu, +\infty] \cap Sp(N_x)} \{K_x(t)(1 - N_x(t))\} > 0, \\ \Gamma_{\mu x}^{(0)} \cap \Gamma_{\mu x}^{(1)} \neq \emptyset, \end{cases}$$

где

$$N_x(t) = 1 - (1 - G_x(t))(1 - F_x(t)) = P(\min(Z_x, Y_x) \leq t),$$

$$Sp(N_x) = \{t \geq 0: 0 < N_x(t) < 1\},$$

$$\Gamma_{\mu x}^{(0)} = \{t \geq \mu: 0 < \Lambda_{\mu x}^{(0)}(t) < \infty\},$$

$$\Gamma_{\mu x}^{(1)} = \{t \geq \mu: 0 < \Lambda_{\mu x}^{(1)}(t) < \infty\}.$$

Введём соответствующие оценки типа Стоуна [6] с
весами типа Гессера-Мюллера [4] для субраспреде-
лений $Q_x^{(m)}$, $m = 0, 1, 2$; ф.р. H_x и вероятности q_x :

$$Q_{xh}^{(m)}(t) = \sum_{i=1}^n \omega_{ni}(x; h_n) I(\xi_i \leq t, \chi_i^{(m)} = 1), m = 0, 1, 2,$$

$$H_{xh}(t) = \sum_{i=1}^n \omega_{ni}(x; h_n) I(\xi_i \leq t), \quad (3)$$

$$q_{xh}(t) = K_{xh}(t) - H_{xh}(t),$$

где

$$K_{xh}(t) = \exp \left\{ \int_t^{+\infty} \frac{dT_{xh}^{(0)}(s)}{H_{xh}(s)} \right\}, t \geq \mu, \quad (4)$$

– экспоненциальная оценка для ф.р. K_x и

$$\omega_{ni}(x; h_n) = \int_{x_{i-1}}^{x_i} \frac{1}{h_n} \pi \left(\frac{x-y}{h_n} \right) dy \left(\int_0^{x_n} \frac{1}{h_n} \pi \left(\frac{x-y}{h_n} \right) dy \right)^{-1}, i = \overline{1, n}.$$

Здесь $x_0 = 0$, π – известная функция плотности
(ядро) и $\{h_n\}$ – последовательность положительных
постоянных (ширина окна), стремящихся к нулю при
 $n \rightarrow \infty$.

Аналогично, оценка для и.ф.и. $\Lambda_{\mu x}^{(1)}$ имеет вид

$$\Lambda_{\mu xh}^{(1)}(t) = \int_{\mu}^t \frac{dQ_{xh}^{(1)}(s)}{q_{xh}(s)}, t \geq \mu. \quad (5)$$

В [2] построена следующая степенная оценка для
 $1 - F_{\mu x}$:

$$1 - F_{\mu xh}(t) = \left[\frac{q_{xh}(t)}{q_{xh}(\mu)} \right]^{R_{\mu xh}(t)}, t \geq \mu, \quad (6)$$

где $R_{\mu xh}(t) = \Lambda_{\mu xh}^{(1)}(t) \left[- \int_{\mu}^t \frac{dq_{xh}(s)}{q_{xh}(s)} \right]^{-1}$ – соответ-
ствующая оценка для функции

$$R_{\mu x}(t) = \Lambda_{\mu x}^{(1)}(t) \left[- \int_{\mu}^t \frac{dq_x(s)}{q_x(s)} \right]^{-1}, t \geq \mu.$$

Далее введем следующие обозначения:

$$\underline{\Delta}_n = \min_{1 \leq i \leq n} (x_i - x_{i-1}), \quad \bar{\Delta}_n = \max_{1 \leq i \leq n} (x_i - x_{i-1}),$$

$$\|\pi\|_2^2 = \int_{-\infty}^{\infty} \pi^2(y) dy, \quad m_v(\pi) = \int_{-\infty}^{\infty} y^v \pi(y) dy, \quad v=1,2.$$

Рассмотрим условия:

$$(Y1) \quad \text{При } n \rightarrow \infty, \quad x_n \rightarrow 1, \quad \bar{\Delta}_n = O(n^{-1}),$$

$$\bar{\Delta}_n - \underline{\Delta}_n = o(n^{-1});$$

(Y2) Ядро π является плотностью с компактным носителем $[-M, M]$, при некотором $M > 0$, $m_1(\pi) = 0$ и π удовлетворяет условию Липшица.

Пусть $T_{H_x} = \inf \{t \geq 0 : H_x(t) = 1\}$ и

$$\tau_{H_x} = \sup \{t \geq 0 : H_x(t) = 0\}.$$

$$(Y3) \quad \ddot{H}_x(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial x^2}, \quad H_x''(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial t^2}, \quad \dot{H}_x'(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial x \partial t},$$

$$\ddot{Q}_x^{(m)}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(m)}(t)}{\partial x^2}, \quad Q_x^{(m)*}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(m)}(t)}{\partial t^2},$$

$$\dot{Q}_x^{(m)*}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(m)}(t)}{\partial x \partial t}, \quad m=0,1 \text{ существуют и непрерывны}$$

для $(t, x) \in [\tau, T] \times [0, 1]$, где

$$\max(\tau_{F_x}, \tau_{G_x}, \tau_{K_x}) < \tau \leq t \leq T < \min(T_{F_x}, T_{G_x}, T_{K_x}).$$

Теорема 1 [2]. Пусть выполнены условия (Y1)-(Y3)

и при $n \rightarrow \infty$, $h_n \rightarrow 0$, $\frac{\ln n}{nh_n} = o(1)$, $\frac{nh_n^5}{\ln n} = O(1)$. Тогда

для $\tau \leq t \leq T$:

$$\begin{aligned} F_{\mu x h}(t) - F_{\mu x}(t) &= \\ &= \sum_{i=1}^n \omega_{ni}(x; h_n) \Psi_{\mu x}(\xi_i, \delta_i^{(0)}, \delta_i^{(1)}, \delta_i^{(2)}) + R_n(t, x), \end{aligned}$$

где

$$\begin{aligned} \Psi_{\mu x}(\xi_i, \delta_i^{(0)}, \delta_i^{(1)}, \delta_i^{(2)}) &= \\ &= (1 - F_{\mu x}(t)) \left\{ \int_{\mu}^t \frac{(I(\xi_i \leq s) - H_x(s)) - \lambda_{xh}(s)}{(K_x(s) - H_x(s))^2} dQ_x^{(1)}(s) + \right. \\ &+ \frac{I(\xi_i \leq t, \delta_i^{(1)} = 1) - Q_x^{(1)}(t)}{K_x(t) - H_x(t)} - \frac{I(\xi_i \leq \mu, \delta_i^{(1)} = 1) - Q_x^{(1)}(\mu)}{K_x(\mu) - H_x(\mu)} + \\ &+ \left. \int_{\mu}^t \frac{(I(\xi_i \leq s, \delta_i^{(1)} = 1) - Q_x^{(1)}(s)) d(K_x(s) - H_x(s))}{(K_x(s) - H_x(s))^2} \right\}, \\ \lambda_{xh}(t) &= K_x(t) \sum_{i=1}^n \left\{ \int_t^{+\infty} \frac{(I(\xi_i \leq s) - H_x(s)) dQ_x^{(0)}(s)}{H_x^2(s)} - \right. \\ &- \frac{I(\xi_i \leq t, \delta_i^{(0)} = 1) - Q_x^{(0)}(t)}{H_x(t)} - \\ &- \left. \int_t^{+\infty} \frac{(I(\xi_i \leq s, \delta_i^{(0)} = 1) - Q_x^{(0)}(s)) dH_x(s)}{H_x^2(s)} \right\}, \end{aligned}$$

и при $n \rightarrow \infty$

$$\sup_{\tau \leq t \leq T} |R_n(t, x)| = O((nh_n)^{-3/4} (\ln n)^{3/4}).$$

Теорема 2 [2]. В условиях теоремы 1 следует равномерно сильная состоятельность оценки (6) при $n \rightarrow \infty$:

$$\sup_{\tau \leq t \leq T} |F_{\mu x h}(t) - F_{\mu x}(t)| = O((nh_n)^{-1/2} (\ln n)^{1/2}).$$

II. Частично-информативная регрессионная модель при случайном цензурировании с двух сторон. Рассмотрим следующий специальный случай модели из I. Предположим, что пары (Z_x, Y_x) удовлетворяют условной модели пропорциональных интенсивностей [9]:

$$1 - G_x(t) = (1 - F_x(t))^{\beta_x}, \quad t \geq 0, \quad (7)$$

где β_x положительный неизвестный параметр.

Из формулы (1) и (7) находим следующее представление для $1 - F_x$:

$$1 - F_x(t) = \left[1 - \frac{H_x(t)}{K_x(t)} \right]^{\gamma_x}, \quad t \geq 0, \quad (8)$$

$$\gamma_x = \frac{1}{\beta_x + 1}. \quad \text{Формула (8) играет ключевую роль в}$$

построении оценки для $1 - F_x$.

Если учесть равенство (7), то

$$Q_x^{(1)}(t) = \int_0^t K_x(s) (1 - F_x(s))^{\beta_x} dF_x(s),$$

$$Q_x^{(2)}(t) = - \int_0^t K_x(s) (1 - F_x(s)) d(1 - F_x(s))^{\beta_x}$$

тогда получаем

$$P(\xi_x \leq t, \delta_x^{(2)} = 1) = \beta_x P(\zeta_x \leq t, \delta_x^{(1)} = 1). \quad (9)$$

Кроме того, если ввести обозначения $p_x^{(m)} = P(\delta_x^{(m)} = 1)$, $m=0,1,2$ и в равенстве (9) перейти к пределу при $t \rightarrow \infty$, то получим, $\gamma_x = \frac{1}{\beta_x + 1} = \frac{p_x^{(1)}}{p_x^{(1)} + p_x^{(2)}}$, которое с помощью (3) оценивается следующим образом:

$$\gamma_{xh} = \frac{p_{xh}^{(1)}}{p_{xh}^{(1)} + p_{xh}^{(2)}}, \quad (10)$$

где

$$p_{xh}^{(m)} = \sum_{i=1}^n \omega_{ni}(x; h_n) \delta_i^{(m)}, \quad m=1,2.$$

Теперь подставив оценки (3), (4) и (10) в (8), получаем оценку для $1 - F(\cdot / x)$ в виде

$$1 - \tilde{F}_{xh}(t) = \left[1 - \frac{H_{xh}(t)}{K_{xh}(t)} \right]^{\gamma_{xh}}, \quad t \geq 0. \quad (11)$$

Легко видеть, что ввиду условий (7) в рассматриваемой модели

$$T_{F_x} = T_{G_x} = \inf \{t \geq 0 : F_x(t) = 1\} \text{ и}$$

$$\tau_{F_x} = \tau_{G_x} = \sup \{t \geq 0 : F_x(t) = 0\}.$$

Рассмотрим условия (Y1) и (Y2), а также условия

$$(Y3)' \quad \ddot{H}_x(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial x^2}, \quad H_x''(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial t^2}, \quad \dot{H}_x'(t) = \frac{\partial^2 H_x(t)}{\partial x \partial t}, \quad \text{где}$$

$$\ddot{Q}_x^{(0)}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(0)}(t)}{\partial x^2}, \quad Q_x^{(0)'}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(0)}(t)}{\partial t^2}, \quad \dot{Q}_x^{(0)'}(t) = \frac{\partial^2 Q_x^{(0)}(t)}{\partial x \partial t}$$

существуют и непрерывны для $(t, x) \in [\tau, T] \times [0, 1]$, где

$$\max(\tau_{F_x}, \tau_{K_x}) < \tau \leq t \leq T < \min(T_{F_x}, T_{K_x}).$$

$$(Y4)' \quad \ddot{p}_x^{(m)} = \frac{d^2 p_x^{(m)}}{dx^2}, \quad m=1, 2 \text{ существуют и непре-}$$

рывны для $x \in [0, 1]$.

Справедливо следующее утверждение в асимптотическом представлении оценок (11) в виде взвешенной суммы с оценкой остаточного члена, т.е. аналог теоремы 1.

Теорема 3. Пусть выполнены условия (Y1)-(Y4)' и при $n \rightarrow \infty$, $h_n \rightarrow 0$, $\frac{\ln n}{nh_n} = o(1)$, $\frac{nh_n^5}{\ln n} = O(1)$. Тогда

для $\tau \leq t \leq T$:

$$\begin{aligned} \tilde{F}_{xh}(t) - F_x(t) &= \\ &= \sum_{i=1}^n \omega_{ni}(x; h_n) \tilde{\Psi}_{tx}(\xi_i, \delta_i^{(0)}, \delta_i^{(1)}, \delta_i^{(2)}) + \tilde{R}_n(t, x), \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \tilde{\Psi}_{tx}(\xi_i, \delta_i^{(0)}, \delta_i^{(1)}, \delta_i^{(2)}) &= \gamma_x(1 - F_x(t)) \left\{ \frac{I(\xi_i \leq t) - H_x(t)}{K_x(t) - H_x(t)} - \right. \\ &- \frac{H_x(t)}{K_x(t) - H_x(t)} \cdot \left(\int_t^{+\infty} \frac{I(\xi_i \leq s) - H_x(s)}{H_x^2(s)} dQ_x^{(0)}(s) \right) - \\ &- \frac{I(\xi_i \leq s, \delta_i^{(0)} = 1) - Q_x^{(0)}(s)}{H_x(t)} - \\ &- \int_t^{+\infty} \frac{I(\xi_i \leq s, \delta_i^{(0)} = 1) - Q_x^{(0)}(s)}{H_x^2(s)} dH(s/x) \\ &\left. - \frac{1}{(p_x^{(1)})^2} \ln(1 - F_x(t)) \left[p_x^{(2)}(\delta_i^{(1)} - p_x^{(1)}) - p_x^{(1)}(\delta_i^{(2)} - p_x^{(2)}) \right] \right\} \end{aligned}$$

и при $n \rightarrow \infty$

$$\sup_{\tau \leq t \leq T} |\tilde{R}_n(t, x)| = O((nh_n)^{-3/4} (\ln n)^{3/4}).$$

Теорема 4. В условиях теоремы 3 следует равномерно сильная состоятельность оценки (11) при $n \rightarrow \infty$:

$$\sup_{\tau \leq t \leq T} |\tilde{F}_{xh}(t) - F_x(t)| = O((nh_n)^{-1/2} (\ln n)^{1/2}).$$

Литература

1. Abdushukurov A.A., Abdikalikov F.A. Estimation of conditional distribution function under nonparametric regression with fixed design. // Mathem. Sciences, 2022, vol. 267, №1. – P. 132-138.
2. Abdikalikov F.A., Seytaxov R.P. On nonparametric estimates of the survival function in fixed design regression model of random censoring from both sides. // AIP Conf. Proc. 3147, 020006 (2024). – P. 020006-1 - 020006-7.
3. Beran R. Nonparametric regression with randomly censored survival data. Technical Report. Univ. – California. Berkeley, 1981, 19 p.
4. Gasser T., Müller H.G. Kernel estimation of regression function. Lecture Notes in Mathematics. – New York: Springer, 1977.
5. Kaplan E.L., Meier P. Nonparametric estimation from incomplete observations. // J.A.S.A., 1958, vol. 53. – P. 457-481.
6. Stone C.J. Consistent nonparametric regression. // Ann. Statist., 1977, vol. 5. – P. 595-645.
7. Van Keilegom I., Veraverbeke N. Uniform strong convergence for the conditional Kaplan-Meier estimator and its quantiles. Commun. Statist. // Th.&Meth., 1996, vol. 25. – P. 2251-2265.
8. Van Keilegom I., Veraverbeke N. Estimation and bootstrap with censored data in fixed design nonparametric regression. // Ann. Inst. Statist. Math., 1997, vol. 49, №3. – P. 467-491.
9. Veraverbeke N., Cadarso-Suarez C. Estimation of the conditional distribution in a conditional Koziol-Green model, 2000, Test, vol. 9. – P. 97-122.

**SUN'iy INTELLEKT ASOSIDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI KO'RSATKICHLARINI
BAHOLASHNING MATEMATIK MODELI VA ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH**

Abdullayev Elmurod Zaylobidinovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

elmurod_abdullayev@mail.ru

Andijon davlat universiteti

**РАЗРАБОТКА МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ И АЛГОРИТМА ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

Абдуллаев Элмурод Зайлобидинович – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*

Андижанский государственный университет

**DEVELOPMENT OF A MATHEMATICAL MODEL AND ALGORITHM FOR EVALUATING
RESEARCH ACTIVITY INDICATORS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

Abdullayev Elmurod Zaylobidinovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

Andijan State University

Tayanch soʻzlar: sun'iy intellekt, matematik model, algoritm, mashinali o'qitish, ma'lumotlarni qayta ishlash, intellektual tizim, klassifikatsiya, ma'lumotlar tahlili, baholash modeli, informatikaning nazariy asoslari.

Rezyume. Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmik ta'minotini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tadqiqotchilik faoliyatini tavsiflovchi parametrlar tizimi shakllantirilib, ularning o'zaro bog'liqligi matematik modellash tirish usullari yordamida tahlil qilingan. Taklif etilgan model ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, belgilarni ajratish va klassifikatsiyalash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Baholash jarayonida mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanish orqali tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini avtomatik aniqlash imkoniyati yaratilgan. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan modelning yuqori aniqlik va ishonchlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Taklif etilgan yondashuv intellektual axborot tizimlari, ekspert tizimlari va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Ключевые слова: искусственный интеллект, математическая модель, алгоритм, машинное обучение, обработка данных, интеллектуальная система, классификация, анализ данных, модель оценки, теоретические основы информатики.

Резюме. В данной статье рассматриваются вопросы разработки математической модели и алгоритма оценки показателей исследовательской деятельности на основе технологий искусственного интеллекта. В ходе исследования сформирована система параметров, характеризующих исследовательскую деятельность, а также проведён анализ их взаимосвязей с использованием методов математического моделирования. Предложенная модель включает этапы сбора данных, предварительной обработки, выделения признаков и классификации результатов. Применение алгоритмов машинного обучения позволяет автоматизировать процесс оценки показателей исследовательской деятельности и повысить объективность принимаемых решений. Полученные результаты подтверждают высокую точность и надёжность разработанной модели. Предлагаемый подход может быть использован при создании интеллектуальных информационных систем, экспертных систем и систем поддержки принятия решений.

Key words: artificial intelligence, mathematical model, algorithm, machine learning, data processing, intelligent system, classification, data analysis, evaluation model, theoretical foundations of informatics.

Summary. This article addresses the development of a mathematical model and algorithm for evaluating research activity indicators based on artificial intelligence technologies. During the study, a system of parameters characterizing research activities was established, and their interrelationships were analyzed using mathematical modeling methods. The proposed model includes the stages of data collection, preprocessing, feature extraction, and classification. The use of machine learning algorithms enables the automated evaluation of research activity indicators and improves the objectivity of decision-making processes. Experimental results demonstrate the high accuracy and reliability of the developed model. The proposed approach can be effectively applied in intelligent information systems, expert systems, and decision support systems.

Kirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlarining kengayishi natijasida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish hamda ular asosida qaror qabul qilish masalalari informatika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, murakkab jarayonlarni matematik modellash tirish, ma'lumotlar orasidagi yashirin bog'liqliklarni aniqlash va intellektual algoritmlar yordamida baholash tizimlarini yaratish informatikaning nazariy asoslari yo'nalishida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt asosida ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish va baholashning yangi usullarini ishlab chiqish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda mashinali o'qitish, neyron tarmoqlar, ekspert tizimlari va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish texnologiyalari turli sohalarida samarali qo'llanilmoqda. Mazkur texnologiyalar yordamida murakkab ma'lumotlar to'plamlarini qayta ishlash, obyektlarning holatini aniqlash, prognozlash va tasniflash masalalarini yuqori aniqlikda amalga oshirish mumkin. Biroq ko'plab mavjud tizimlarda ma'lumotlarni baholash mezonlarining yetarlicha formalashtirilmaganligi, parametrlar o'rtasidagi bog'liqliklarning matematik jihatdan to'liq ifodalanmaganligi hamda algoritmlarning moslashuvchanlik darajasining cheklanganligi kuzatiladi. Bu esa yangi matematik modellar va samarali algoritmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Informatikaning nazariy asoslari nuqtai nazaridan har qanday baholash tizimining samaradorligi, avvalo, uning matematik modeliga, ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlariga va klassifikatsiyalash usullariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli baholash jarayonida foydalaniladigan parametrlarni tanlash, ularning vazn koeffitsiyentlarini aniqlash hamda natijalarni qayta ishlashning optimal algoritmlarini yaratish muhim ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur masalani hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish inson omili ta'sirini kamaytirish, baholash jarayonining obyektivligini oshirish va qaror qabul qilish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmini ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash usullari asosida baholash jarayonini avtomatlashtirish hamda natijalarning aniqligi va ishonchligini oshirishdan iborat. Buning uchun tadqiqot obyektini tavsiflovchi parametrlar tizimi shakllantiriladi, ular o'rtasidagi bog'liqliklar matematik modellashirish usullari yordamida aniqlanadi va mashinali o'qitish algoritmlari asosida klassifikatsiya modeli yaratiladi.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, matematik modellashirish, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, mashinali o'qitish va klassifikatsiyalash usullaridan foydalaniladi. Ishning ilmiy yangiligi tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashga mo'ljallangan integrallashgan matematik model va uni amalga oshiruvchi algoritmning taklif etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar sun'iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlari, ekspert tizimlari hamda qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiruvchi tizimlarni takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarining nazariy asoslari zamonaviy informatika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlarni qayta ishlash, bilimlarni ifodalash, klassifikatsiyalash va qarorlar ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, S.Russell va P.Norvig tomonidan sun'iy intellekt tizimlarining nazariy asoslari, bilimlarni tasvirlash modellari hamda intellektual agentlar faoliyati keng yoritilgan [1:18-25]. T.Mitchell o'z tadqiqotlarida mashinali o'qitish algoritmlarining matematik asoslari, o'qitish jarayonlari va klassifikatsiyalash usullarini batafsil tahlil qilgan [2:45-78]. I.Goodfellow, Y.Bengio va A.Courville tomonidan chuqur o'qitish algoritmlarining nazariy modeli, neyron tarmoqlar arxitekturasini va optimallashtirish usullari ishlab chiqilgan [3:97-132].

So'nggi yillarda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish va sun'iy intellekt asosida qarorlar ishlab chiqishni ta'minlovchi tizimlarni yaratishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, Onwujekwe va Weistroffer tomonidan intellektual qarorlar ishlab chiqish tizimlarining rivojlanish tendensiyalari va mashinali o'qitish algoritmlarining qo'llanilish imkoniyatlari o'rganilgan [4:2031-2044]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida baholashning turli matematik modellari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini kompleks baholashga mo'ljallangan integrallashgan model va algoritmlarni takomillashtirish


masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt asosida tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmini ishlab chiqish uchun tizimli tahlil, matematik modellashirish, statistik tahlil hamda mashinali o'qitish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida baholashga ta'sir etuvchi asosiy parametrlar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi matematik usullar yordamida tahlil qilindi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tasniflash bosqichlarida klassifikatsiyalash algoritmlaridan foydalanildi. Model samaradorligini baholash maqsadida eksperimental ma'lumotlar to'plami shakllantirildi hamda natijalarning aniqligi, ishonchligi va barqarorligi statistik ko'rsatkichlar asosida tekshirildi. Olingan natijalar ishlab chiqilgan yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqladi.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy axborot tizimlarida murakkab ma'lumotlar asosida qarorlar ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda [1]. Shu sababli tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmini ishlab chiqish informatikaning nazariy asoslari yo'nalishidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mashinali o'qitish algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yashirin qonuniyatlarni aniqlash va obyektlarni klassifikatsiyalash imkonini beradi [2]. Tadqiqot davomida tadqiqotchilik faoliyatini tavsiflovchi muammoni aniqlash, axborot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, tahliliy fikrlash hamda natijalarni umumlashtirish kabi parametrlar tanlab olindi. Ushbu parametrlar asosida integral baholash modeli shakllantirildi [4].

Baholash jarayonining umumiy algoritmi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash algoritmining umumiy sxemasi

1-rasmdan ko‘rinadiki, ishlab chiqilgan model bir nechta ketma-ket bosqichlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir bosqich keyingi hisoblash jarayonining aniqligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ma‘lumotlarni dastlabki qayta ishlash bosqichi model samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [5].

Tadqiqotchilik faoliyatini baholash parametrlarining ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun ekspert baholash usulidan foydalanildi. Natijalar asosida vazn koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi.


1-jadval. Tadqiqotchilik faoliyatini baholash parametrlarining vazn koeffitsiyentlari

№	Parametrlar	Belgisi	Vazn koeffitsiyenti
1	Muammoni aniqlash	P1	0,22
2	Axborot izlash	P2	0,18
3	Ma‘lumotlarni tahlil qilish	P3	0,25
4	Tahliliy fikrlash	P4	0,20
5	Natijalarni umumlashtirish	P5	0,15

1-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma‘lumotlarni tahlil qilish va muammoni aniqlash parametrlarining umumiy baholash natijasiga ta‘siri yuqoriroq hisoblanadi. Bu esa tadqiqotchilik faoliyatining mazkur komponentlari muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi [9].

Integral baholash ko‘rsatkichi vaznlashtirilgan parametrlar yig‘indisi asosida hisoblandi. Ushbu yondashuv baholash jarayonida turli ko‘rsatkichlarning umumiy natijaga ta‘sirini hisobga olish imkonini beradi [6]. Modelni o‘qitish va testlash uchun 200 ta namunadan iborat ma‘lumotlar bazasi shakllantirildi. Ma‘lumotlarning 80 foizi o‘qitish, 20 foizi esa testlash uchun ajratildi [12].

Model samaradorligini baholash maqsadida Random Forest algoritmi boshqa klassifikatsiyalash algoritmlari bilan taqqoslandi. Taqqoslash natijalari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Turli klassifikatsiyalash algoritmlarining aniqlik ko‘rsatkichlari

2-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, Random Forest algoritmi boshqa algoritmlarga nisbatan yuqori aniqlik ko‘rsatkichini namoyish qilgan. Ushbu algoritm ansambl yondashuvi asosida ishlashi sababli ma‘lumotlarni klassifikatsiyalashda yuqori barqarorlikka ega [14].


Eksperimental tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan modelning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. Accuracy, Precision, Recall va F1-score mezonlari asosida baholash amalga oshirildi.



3-rasm. Model samaradorligi ko‘rsatkichlari

3-rasm natijalari modelning yuqori aniqlik va ishonchlilikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Precision ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi noto‘g‘ri klassifikatsiya holatlarining kamligini bildiradi. Recall ko‘rsatkichining yuqori qiymati esa modelning muhim obyektlarni aniqlash qobiliyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi [13].

Natijalarni yanada yaqqolroq ifodalash maqsadida model samaradorligi diagramma ko‘rinishida tasvirlandi.



4-rasm. Model samaradorligi ko‘rsatkichlari

4-rasm natijalari ishlab chiqilgan modelning barcha mezonlar bo‘yicha yuqori natijalarni namoyish etganligini ko‘rsatadi. Bu esa taklif etilgan yondashuvning amaliy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi [15].

Shunday qilib, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan matematik model va algoritm tadqiqotchilik faoliyati ko‘rsatkichlarini baholashning avtomatlashtirilgan mexanizmini yaratish imkonini berdi. Taklif etilgan model ma‘lumotlarni intellektual qayta ishlashning zamonaviy usullariga asoslangan bo‘lib, yuqori aniqlik va barqarorlikni ta‘minlaydi. Mazkur yondashuv sun‘iy intellekt asosidagi ekspert tizimlari, intellektual axborot tizimlari hamda qarorlar ishlab chiqishni ta‘minlovchi tizimlarda qo‘llanilishi mumkin [10]. Olingan natijalar sun‘iy intellektning nazariy asoslarini rivojlantirish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida sun‘iy intellekt asosida tadqiqotchilik faoliyati ko‘rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmi ishlab chiqildi hamda uning samaradorligi eksperimental ma‘lumotlar asosida sinovdan o‘tkazildi. Eksperimentlar jarayonida tadqiqotchilik faoliyatini tavsiflovchi beshta asosiy parametr – muammoni aniqlash, axborot izlash, ma‘lumotlarni tahlil qilish, tahliliy fikrlash va natijalarni umumlashtirish ko‘rsatkichlari asosida ma‘lumotlar bazasi shakllantirildi. Parametrlarning vazn koeffitsiyentlari ekspert baholash usuli yordamida aniqlanib, integral baholash modeli tarkibiga kiritildi.

Modelni sinovdan o'tkazish natijalari Random Forest algoritmi boshqa klassifikatsiyalash algoritmlariga nisbatan yuqori aniqlik ko'rsatkichlarini namoyish etganligini ko'rsatdi. Xususan, Random Forest algoritmining aniqlik ko'rsatkichi 93,7 foizni tashkil etib, SVM algoritmiga nisbatan 4,3 foizga, KNN algoritmiga nisbatan 7,4 foizga va Decision Tree algoritmiga nisbatan 9,1 foizga yuqori natija qayd etdi. Bu esa ansambl algoritmlarining murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashdagi afzalliklarini tasdiqlaydi [10].

Model samaradorligini baholash uchun Accuracy, Precision, Recall va F1-score mezonlaridan foydalanildi. Olingan natijalarga ko'ra Accuracy ko'rsatkichi 93,7 foizni, Precision 92,8 foizni, Recall 91,6 foizni hamda F1-score 92,2 foizni tashkil etdi. Barcha ko'rsatkichlarning 90 foizdan yuqori bo'lishi ishlab chiqilgan modelning yuqori aniqlik, ishonchlik va barqarorlikka ega ekanligini ko'rsatadi [7]. Ayniqsa, Precision ko'rsatkichining yuqori qiymati noto'g'ri klassifikatsiya holatlarining kamligini, Recall ko'rsatkichining yuqoriligi esa muhim obyektlarni aniqlash qobiliyati samarali ekanligini tasdiqlaydi [12].

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash va normallashtirish bosqichlari model samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Belgilarni ajratib olish hamda parametrlarni vaznlashtirish usullaridan foydalanish baholash natijalarining aniqligini oshirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash jarayonini avtomatlashtirish va obyektivlashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Taklif etilgan model intellektual axborot tizimlari, ekspert tizimlari hamda qarorlar ishlab chiqishni ta'minlovchi tizimlarda qo'llash uchun istiqbolli hisoblanadi [1].

Xulosa. Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt asosida tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholashning matematik modeli va algoritmini ishlab chiqish masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni intellektual qayta ishlashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinib, tadqiqotchilik faoliyatini tavsiflovchi asosiy parametrlar tizimi shakllantirildi. Xususan, muammoni aniqlash, axborot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, tahliliy fikrlash va natijalarni umumlashtirish ko'rsatkichlari asosida integral baholash modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan model parametrlarning vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda tadqiqotchilik faoliyati holatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash, normallashtirish, belgilarni ajratib olish va klassifikatsiyalash bosqichlaridan iborat algoritmi ishlab chiqildi. Modelni amalga oshirishda mashinali o'qitishning Random Forest algoritmidan foydalanildi. Eksperimental natijalar ushbu algoritmining boshqa klassifikatsiyalash algoritmlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, modelning Accuracy ko'rsatkichi 93,7 %, Precision 92,8 %, Recall 91,6 % va F1-score 92,2 % ni tashkil etdi. Bu esa ishlab chiqilgan modelning yuqori aniqlik, ishonchlik va barqarorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish baholash jarayonlarining obyektivligini oshirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va qarorlar ishlab chiqish samaradorligini yaxshilash imkonini berishini

ko'rsatdi. Shuningdek, ishlab chiqilgan model ma'lumotlarni intellektual qayta ishlashning nazariy asoslarini rivojlantirishga hamda sun'iy intellekt asosidagi ekspert tizimlari va intellektual axborot tizimlarini takomillashtirishga muayyan hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining murakkab baholash jarayonlarida samarali qo'llanilishi mumkinligini isbotladi va ushbu yo'nalishda olib boriladigan kelgusi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos yaratdi.

Takliflar. Tadqiqot natijalari va olingan ilmiy xulosalar asosida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Tadqiqotchilik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash jarayonlarida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. An'anaviy baholash usullarida inson omilining yuqori darajada ishtirok etishi natijalarning subyektiv bo'lishiga olib kelishi mumkin. Taklif etilgan model esa baholash jarayonini avtomatlashtirish va obyektivlashtirish imkonini beradi.

2. Baholash tizimlarining aniqligini oshirish maqsadida ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ma'lumotlarni tozalash va normallashtirish jarayonlarini optimallashtirish model samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

3. Kelgusida Random Forest algoritmi bilan bir qatorda chuqur o'qitish (Deep Learning) algoritmlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Neyron tarmoqlar va transformer arxitekturalari katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda yuqori natijalarni ta'minlashi sababli modelning prognozlash va klassifikatsiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

4. Ishlab chiqilgan modelni ekspert tizimlari, intellektual axborot tizimlari va qarorlar ishlab chiqishni ta'minlovchi tizimlarga integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Bu esa amaliy faoliyatda murakkab jarayonlarni tahlil qilish va tezkor qarorlar ishlab chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

5. Sun'iy intellekt asosida qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida Explainable Artificial Intelligence (XAI) texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv model tomonidan qabul qilingan qarorlarning sabablarini izohlash imkonini yaratib, foydalanuvchilarning tizimga bo'lgan ishonchini oshiradi.

6. Modelni Big Data texnologiyalari va bulutli hisoblash platformalari bilan integratsiyalash orqali uning qo'llanish ko'lamini kengaytirish mumkin. Bu esa real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va baholash imkoniyatini yaratadi.

7. Ishlab chiqilgan matematik model va algoritmi turli predmet sohalarida sinovdan o'tkazish hamda moslashtirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu modelning universalligini oshirish va undan turli intellektual tizimlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi sun'iy intellekt asosida baholash tizimlarining samaradorligi, aniqligi va barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, ma'lumotlarni intellektual qayta ishlashning yangi metod va texnologiyalarini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Pearson Education, 2021.
2. Mitchell T.M. Machine Learning. McGraw-Hill, 1997.
3. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. MIT Press, 2016.
4. Bishop C.M. Pattern Recognition and Machine Learning. Springer, 2006.
5. Han J., Kamber M., Pei J. Data Mining: Concepts and Techniques. Morgan Kaufmann, 2011.
6. Alpaydin E. Introduction to Machine Learning. MIT Press, 2020.
7. Géron A. Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras and TensorFlow. O'Reilly Media, 2022.
8. Nilsson N.J. The Quest for Artificial Intelligence. Cambridge University Press, 2010.
9. Murphy K.P. Machine Learning: A Probabilistic Perspective. MIT Press, 2012.
10. Onwujekwe G., Weistroffer H.R. Intelligent Decision Support Systems: An Analysis of the Literature and a Framework for Development. Information Systems Frontiers, 2025.
11. Explainable Artificial Intelligence-Based Decision Support Systems: A Recent Review. Electronics, 2024.
12. Kelleher J.D., Namee B.M., D'Arcy A. Fundamentals of Machine Learning for Predictive Data Analytics. MIT Press, 2020.
13. Aggarwal C.C. Neural Networks and Deep Learning. Springer, 2018.
14. Shalev-Shwartz S., Ben-David S. Understanding Machine Learning: From Theory to Algorithms. Cambridge University Press, 2014.
15. Witten I.H., Frank E., Hall M.A. Data Mining: Practical Machine Learning Tools and Techniques. Morgan Kaufmann, 2016.

УДК 004.056.55:519.7

**SIMMETRIK KALITLI SHIFRLASH ALGORITMLARI UCHUN XOSMAS MATRITSANI
TANLASH ASOSIDA S-BLOKLARNI GENERATSIYA QILISH**

Abdurazzoqov Javohir Rustamovich – *texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

javohirjon.1992@gmail.com

Toshkent xalqaro universiteti

**ГЕНЕРАЦИЯ S-БЛОКОВ ДЛЯ АЛГОРИТМОВ СИММЕТРИЧНОГО ШИФРОВАНИЯ
НА ОСНОВЕ ВЫБОРА НЕВЫРОЖДЕННОЙ МАТРИЦЫ**

Абдураззоков Жавохир Рустамович – *доктор философии по техническим наукам, доцент*

Ташкентский международный университет

**SYMMETRIC ENCRYPTION ALGORITHMS S-BOX GENERATION BASED
ON NONSINGULAR MATRIX SELECTION**

Abdurazzolov Javohir Rustamovich – *PhD in Technical Sciences, Associate Professor*

Tashkent International University

Tayanch so'zlar: S-blok, xosmas matritsa, affin almashtirish, nochiziqlilik, qat'iy lavin samaradorligi.

Rezyume. Mazkur ishda simmetrik kalitli shifrlash algoritmlari uchun S-bloklarni generatsiya qilish yondashuvi taklif etildi. Taklif etilgan yondashuv xosmas matritsani tanlashga asoslanadi. S-blok Rijndael algoritmidagi hisoblash yordamida hosil qilindi. Hisoblash jarayoni chekli maydon arifmetikasiga asoslandi. Affin almashtirishda xosmas binar matritsadan foydalanildi. Hosil qilingan S-blokning kriptografik xossalari tahlil qilindi. Nochiziqlilik ko'rsatkichlari yuqori natijalarni namoyish etdi. SAC qiymatlari kuchli diffuziya xususiyatini ko'rsatdi. Olingan natijalar differensial va chiziqli kriptotahlilga bardoshlilikni tasdiqladi. Taklif etilgan yondashuv yuqori kriptografik samaradorlikka ega ekanligi bilan tavsiflandi.

Ключевые слова: S-блок, невырожденная матрица, аффинное преобразование, нелинейность, строгий лавинный критерий.

Резюме. В данной работе предложен подход к генерации S-блоков для алгоритмов симметричного шифрования. Предложенный подход основан на выборе невырожденной матрицы. S-блок формировался с использованием вычислительного механизма алгоритма Rijndael. Процесс вычисления основан на арифметике конечных полей. При аффинном преобразовании использовалась невырожденная бинарная матрица. Были исследованы криптографические свойства полученного S-блока. Показатели нелинейности продемонстрировали высокие результаты. Значения SAC подтвердили наличие сильного диффузионного свойства. Полученные результаты подтвердили устойчивость к дифференциальному и линейному криптоанализу. Предложенный подход характеризуется высокой криптографической эффективностью.

Key words: S-box, nonsingular matrix, affine transformation, nonlinearity, strict avalanche criterion.

Summary. This paper proposes an approach for generating S-boxes for symmetric encryption algorithms. The proposed approach is based on selecting a nonsingular matrix. The S-box was generated using the computational mechanism of the Rijndael algorithm. The computation process was based on finite field arithmetic. A nonsingular binary matrix was used in the affine transformation stage. The cryptographic properties of the generated S-box were analyzed. The nonlinearity results demonstrated high performance. The SAC values indicated strong diffusion characteristics. The obtained results confirmed resistance against differential and linear cryptanalysis. The proposed approach is characterized by high cryptographic efficiency.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ma'lumotlarni ishonchli himoyalash zaruratini oshirmoqda. Kriptografik usullar ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Simmetrik kalitli shifrlash algoritmlari yuqori tezkorligi sababli keng qo'llaniladi. Ushbu algoritmlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri S-bloklar hisoblanadi. S-bloklar algoritmning nochiziqliligini ta'minlab, differensial va chiziqli kriptotahlilga bardoshlilikini oshiradi. AES, Kuznyechik va SM4 kabi zamonaviy standartlarda S-bloklardan samarali foydalaniladi. Shu sababli yuqori kriptografik xossalarga ega S-bloklarni yaratish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'rganilgan adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ma'lumotlarni uzatish, saqlash va himoyalash jarayonlari keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shu sababli, ishonchli axborot xavfsizligi tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptografiya tamoyillariga asoslangan shifrlash

usullari ma'lumotlarni uzatish va saqlash xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi [1, 2].

S-bloklar kriptografik arxitekturaning turli komponentlarida yuqori darajadagi shifrlash samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biridir. Ular, ayniqsa, Substitution-Permutation (SP) tarmoqlari hamda Feistel tarmog'iga asoslangan simmetrik shifrlash algoritmlari standartlarida keng qo'llaniladi [2]. Simmetrik kalitli kriptografiyada blokli shifrlar va oqimli shifrlar shifrlashning asosiy shakllari hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining kriptotahlil bilan integratsiyalashuvi kriptografiya sohasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, axborot xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlash masalalarini yanada dolzarb holga keltirdi [3]. Ushbu muvozanatni ta'minlash matematik usullar, kriptografik tizimlarning statistik tahlili hamda turli hisoblash strategiyalarini chuqur o'rganishni talab etadi. Umuman olganda, S-bloklar Bul funksiyalarining xossalariidan foydalanishga asoslangan turli hisoblash usullari yordamida

quriladi [4]. Chiziqli, integral, differensial hamda algebraik kriptotahlil kabi usullarning rivojlanishi yanada bardoshli almashtirish bloklarini yaratishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda [5, 6]. So'nggi tadqiqotlar chiziqlik va differensial bir jinslilik ko'rsatkichlarining muhimligini ko'rsatdi. Ushbu xususiyatlar S-bloklarning differensial va chiziqli kriptotahlilga bardoshlilikini baholashda asosiy mezonlardan hisoblanadi [7, 8].

Yuqorida o'rganilgan S-blok qiymatlarini hisoblash algoritmlari mavjud bo'lsa-da, turli kriptotahlil usullariga bardosh bera oladigan S-bloklarni shakllantirish masalasi hanuzgacha dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Taklif etilayotgan S-blokni hisoblash usuli. Taklif etilayotgan S-blokni hisoblash uchun Rijndael algoritmda qo'llaniladigan affin almashtirish usulidan foydalanildi. Buning uchun $m(x) = x^8 + x^7 + x^6 + x^5 + x^4 + x^2 + x + 1$ keltirilmaydigan ko'phad, $b = (1, 0, 1, 0, 1, 0, 1, 1)$ vektor va A – xosmas matritsa tanlab olindi.

$$A = \begin{bmatrix} 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 \\ 1 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ 0 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 \end{bmatrix}$$

Taklif etilayotgan S-blokni hisoblash jarayoni $GF(2^8)$ chekli maydonida bajariladi. Har bir kiruvchi bayt x , 8 bitli vektor yoki darajasi 7 dan katta bo'lmagan ko'phad ko'rinishida ifodalanadi. Dastlab x – elementining $m(x)$ – ko'phad modulidagi multiplikativ teskari elementi x^{-1} aniqlanadi. Agar $x=0$ bo'lsa, odatdagidek uning teskari elementi 0 deb olinadi. Shundan so'ng hosil qilingan x^{-1} – qiymatiga xosmas A matritsa yordamida affin almashtirish qo'llaniladi. Bunda S-blok qiymati quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$S(x) = A \cdot x^{-1} \oplus b$$

Bu yerda $A - 8 \times 8$ o'lchamli xosmas binar matritsa, $b - 8$ bitli siljitish vektori, $\oplus$ esa $GF(2)$ maydonidagi qo'shish, ya'ni XOR amalini bildiradi. A matritsaning xosmas bo'lishi affin almashtirishning teskari mavjudligini ta'minlaydi va natijada hosil qilinadigan S-blokning biyektivligini saqlashga xizmat qiladi.

Ushbu jarayon barcha $x \in \{0, 1, \dots, 255\}$ qiymatlar uchun ketma-ket bajariladi. Har bir kirish qiymatiga mos bitta chiqish qiymati hosil qilinadi va natijada 256 ta elementdan iborat 8×8 S-blok shakllantiriladi. Hisoblash jarayonida qo'llanilgan xosmas matritsa S-blokning chiziqli va differensial xossalari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli A – matritsani to'g'ri tanlash yuqori nochiziqlik, past differensial ehtimollik hamda qat'iy ko'chki mezoniga yaqin qiymatlarni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Taklif etilayotgan yondashuvda S-blokni qurishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: avvalo $GF(2^8)$ maydoni tanlangan keltirilmaydigan ko'phad yordamida aniqlanadi; keyin har bir kirish elementi uchun multiplikativ teskari qiymat hisoblanadi; so'ngra tanlangan xosmas matritsa va siljitish vektori asosida affin almashtirish bajariladi. Natijada quyidagi $S = [171, 12, 118, 237, 158, 88, 48, 103, 207, 102, 195, 70, 5, 238, 49, 190, 101, 245, 252, 206, 109, 130, 229, 174, 97, 55, 177, 89, 200, 169, 214, 40, 125, 21,$

$136, 38, 159, 226, 168, 98, 167, 15, 165, 61, 234, 129, 180, 188, 175, 146, 86, 142, 95, 94, 14, 187, 54, 156, 231, 184, 16, 31, 189, 219, 197, 0, 3, 10, 51, 9, 249, 114, 2, 216, 185, 204, 42, 52, 46, 37, 163, 78, 247, 178, 239, 108, 192, 92, 99, 194, 36, 134, 64, 183, 154, 127, 121, 223, 199, 4, 135, 107, 173, 18, 144, 81, 93, 26, 58, 24, 201, 25, 155, 60, 131, 79, 166, 143, 72, 45, 28, 111, 149, 27, 87, 75, 213, 248, 243, 6, 126, 91, 255, 65, 232, 33, 132, 100, 105, 217, 128, 122, 76, 254, 50, 19, 84, 116, 133, 41, 228, 240, 241, 34, 215, 141, 35, 225, 120, 83, 113, 1, 63, 8, 196, 82, 222, 244, 124, 250, 106, 253, 236, 67, 17, 209, 227, 179, 160, 205, 181, 164, 119, 140, 123, 85, 193, 62, 29, 69, 137, 202, 23, 43, 7, 90, 191, 44, 172, 221, 186, 56, 57, 230, 53, 152, 80, 218, 139, 157, 212, 73, 220, 210, 138, 203, 147, 112, 198, 246, 251, 151, 11, 39, 208, 176, 13, 59, 104, 153, 242, 117, 110, 150, 96, 233, 161, 211, 162, 115, 20, 224, 235, 22, 148, 66, 71, 68, 74, 182, 32, 30, 145, 170, 77, 47]$ hosil bo'ldi.

Natijalarni baholash mezonlari. S-blokning kriptografik sifati faqat uning biyektivligi bilan belgilanmaydi. Kuchli S-blok chiziqli va differensial kriptotahlil usullariga nisbatan past korrelyatsiya va past differensial ehtimollik ko'rsatishi kerak. Shu sababli baholash jarayonida bir nechta mustaqil mezonlar qo'llanadi. Nochiziqlik S-blokning affin yoki chiziqli funksiyalardan qanchalik uzoq ekanligini ifodalaydi. 8×8 S-blok uchun har bir koordinata Bul funksiyasi alohida baholanadi. Nochiziqlik qiymati qancha yuqori bo'lsa, S-blokni chiziqli ifodalar yordamida yaqinlashtirish shuncha qiyin bo'ladi. Amaliy jihatdan 8 bitli biyektiv S-bloklar uchun 112 qiymati juda kuchli ko'rsatkich hisoblanadi. Amalda nochiziqlik quyidagi formula asosida baholanadi.

$$N_f = 2^{n-1} \left(1 - 2^{-n} \max_{\omega \in GF(2^n)} |S_f(\omega)| \right)$$

$$\text{Bu yerda: } S_f(\omega) = \sum_{x \in GF(2^n)} (-1)^{f(x) \oplus \omega \cdot x}, \quad f - \text{Bul}$$

funksiyaning Uolsh almashtirishi, $\omega \in GF(2^n)$ – Uolsh almashtirish hisoblanadigan niqob vektori, $\omega \cdot x - GF(2)$ ustidagi skalyar ko'paytma, $\max_{\omega \in GF(2^n)} |S_f(\omega)| -$ Uolsh almashtirishi eng katta absolut qiymati.

Qat'iy ko'chki mezoni S-blok kirishidagi bitta bit o'zgaranda chiqish bitlarining o'zgarish ehtimolini baholaydi. Ideal holatda har bir chiqish biti 0.5 ehtimollik bilan o'zgarishi kerak. Agar SAC qiymatlari 0.5 ga yaqin bo'lsa, kirishdagi kichik o'zgarish chiqishda keng tarqaladi va diffuziya xususiyati kuchayadi.

Differensial ehtimollik berilgan kirish farqi muayyan chiqish farqiga olib kelish ehtimolini o'lchaydi. Past differensial ehtimollik differensial kriptotahlilga qarshi muhim himoya omilidir. 8×8 S-bloklarda differensial uniformlik qiymatining 4 bo'lishi kuchli ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Chiziqli yaqinlashuv ehtimoli S-blok kirish va chiqish bitlari orasidagi chiziqli bog'lanishlar qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi. LAP qiymati qanchalik kichik bo'lsa, S-blok chiziqli kriptotahlilga shunchalik bardoshli bo'ladi. Shu sababli xosmas matritsa tanlash jarayonida LAP ko'rsatkichini kamaytirish ham muhim maqsadlardan biridir. Taklif etilgan S-blokning samaradorligini baholash uchun u so'nggi yillarda taklif qilingan ayrim S-bloklar

bilan solishtirildi. Taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Natijalar taklif etilgan S-blokning minimal, maksimal va o'rtacha nochiziqlilik qiymatlari bo'yicha yuqori statistik ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

S-blokda barcha sakkizta Bul funksiyaning yuqori nochiziqlilikka ega bo'lishi kirish va chiqish orasidagi korrelyatsiyani kamaytiradi hamda S-blokning kriptografik bardoshlilikini oshiradi.

1-jadval. Taklif etilgan hamda mavjud 8×8 S-bloklarning asosiy kriptografik xossalari bo'yicha taqqoslama tahlili

S-blok	Nochiziqlilik			deg(θ)	SAC			LP	DU
	min	max	o'rt.		min	max	o'rt.		
S-blok	112	112	112	7	0.4531	0.5469	0.5000	0.0276	4
AES	112	112	112	7	0.4531	0.5625	0.5048	0.0314	4
SM4	112	112	112	7	0.4375	0.5625	0.4997	0.0346	4
[3]	110	112	110	7	0.4219	0.5781	0.4953	0.0322	10
[4]	112	112	112	7	0.4375	0.5625	0.5022	0.0354	4
[5]	112	112	112	7	0.4065	0.5859	0.4980	0.0426	4
[6]	112	112	112	7	0.4375	0.5625	0.5010	0.0323	4
[7]	112	112	112	7	0.4375	0.5469	0.4978	0.0340	4
[8]	112	112	112	7	0.3906	0.5781	0.4960	0.0353	4
[9]	112	112	112	7	0.4375	0.5469	0.4980	0.0349	4

Natijalar muhokamasi. Olingan natijalar xosmas matritsani tanlash asosidagi inverse-affine konstruktsiya S-bloklarning kriptografik sifatini saqlash va ayrim ko'rsatkichlarni yaxshilash imkonini berishini ko'rsatadi. Xususan, hosil qilingan S-blokning barcha koordinata funksiyalari bo'yicha nochiziqlilik qiymati 112 ga teng bo'lib, bu 8×8 bijektiv S-bloklar uchun kuchli natija hisoblanadi.

Differensial bir xillikning darajasi 4 bo'lishi S-blokning differensial kriptotahlilga nisbatan yetarli darajada barqaror ekanini anglatadi. Bunday natija AES va SM4 kabi mashhur standartlarda uchraydigan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadigan darajadadir. Shu bilan birga, LAP qiymatining past bo'lishi kirish va chiqish bitlari o'rtasidagi chiziqli korrelyatsiyalar zaif ekanini bildiradi.

Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy afzalligi uning matematik soddaligi va amaliy moslashuvchanligidadir. Xosmas matritsalar to'plami juda katta bo'lgani sababli, turli matritsalarini tanlash orqali bir nechta S-blok variantlarini qurish mumkin. Bu esa standart shifrlash sxemalariga mos keluvchi, lekin parametrik jihatdan farqlanuvchi nochiziqli komponentlar oilasini yaratishga imkon beradi.

Shu bilan birga, matritsa tanlash jarayoni ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak. Har qanday xosmas matritsa avtomatik ravishda eng yaxshi S-blokni bermaydi. Mazkur yondashuvni amaliy blokli shifr tarkibida qo'llashda S-blokning o'zi bilan birga shifrnig chiziqli diffuziya qatlami, kalit jadvali, raundlar soni va umumiy SPN yoki Feistel arxitekturasini ham tahlil qilinishi lozim. S-blok kuchli bo'lishi zarur shart, ammo to'liq shifr xavfsizligi barcha komponentlarning uyg'un ishlashiga bog'liq. Xosmas matritsani tanlash asosidagi S-blok generatsiyasi

kelgusida dinamik S-bloklar, kalitga bog'liq affin qatlamlar va apparat jihatdan samarali almashtirish bloklarini qurishda ham qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, resurslari cheklangan qurilmalar uchun qidiruv jadvali ko'rinishida saqlanadigan, lekin kriptografik mezonlari yuqori bo'lgan S-bloklar amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu ishda simmetrik kalitli shifrlash algoritmlari uchun xosmas matritsani tanlash asosida S-bloklarni generatsiya qilish masalasi ilmiy jihatdan bayon qilindi. S-blok qurilishi GF(2⁸) maydonida teskari elementni hisoblash va tanlangan xosmas binar matritsa orqali affin akslantirishni bajarish tamoyiliga asoslandi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xosmas matritsa S-blokning bijektivligini saqlash bilan birga chiqish bitlarining tarqalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tanlangan matritsa qat'iy ko'chki mezonni, chiziqli yaqinlashuv ehtimoli va differensial ehtimollik bo'yicha yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Hosil qilingan S-blok uchun nochiziqlilik qiymatining 112 bo'lishi, SAC qiymatlarining 0.4531-0.5469 oralig'ida joylashishi va differensial ko'rsatkichlarning kuchli darajada saqlanishi taklif etilgan yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar S-bloklarni loyihalashda affin qatlam matritsasini tanlash mustaqil va muhim tadqiqot yo'nalishi ekanini ko'rsatadi.

Kelgusida ushbu yondashuvni turli keltirilmaydiga ko'phadlar, turli siljitish vektorlari, fiksirlangan nuqtalarni minimallashtirish va to'liq blokli shifr tarkibidagi xavfsizlik tahlili bilan kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xosmas matritsalar oilasini tizimli tanlash orqali bir nechta kriptografik mezonlar bo'yicha balanslangan S-bloklar sinfini shakllantirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abdurakhimov B., Boykuziyev I., Abdurazzokov J. Encryption systems and the history of their development. // InterConf, 2022.
2. Feistel H., Notz W.A., Smith J.L. Some cryptographic techniques for machine-to-machine data communications. // Proceedings of the IEEE 1975, 63: 1545–54.
3. Wang Y., Wong K.W., Li C., Li Y. A novel method to design S-box based on chaotic map and genetic algorithm. // Phys Lett A 2012, 376: 827–33.
4. Mahmood Malik MS, Ali MA, Khan MA, Ehatisham-Ul-Haq M, Shah SNM, Rehman M, et al. Generation of Highly Nonlinear and Dynamic AES Substitution-Boxes (S-Boxes) Using Chaos-Based Rotational Matrices. IEEE Access 2020, 8: 35682-95.
5. Nitaj A., Susilo W., Tonien J. A New Improved AES S-box with Enhanced Properties. // IACR Cryptol EPrint Arch 2020, 2020: 1597.
6. Nizam Chew LC, Ismail ES. S-box Construction Based on Linear Fractional Transformation and Permutation Function. // Symmetry (Basel) 2020, 12: 826.
7. Chen G, Chen Y, Liao X. An extended method for obtaining S-boxes based on three-dimensional chaotic Baker maps. // Chaos Solitons Fractals 2007, 31: 571–9.
8. Daemen J. AES Proposal: Rijndael, 1998.
9. Webster A.F., Tavares S.E. On the Design of S-Boxes. Advances in Cryptology - CRYPTO '85 Proceedings. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg; n.d. – P. 523-34.

**ShVARS-KRISTOFFEL FORMULASI VA UNING SOHALARNI KONFORM
AKSLANTIRISHDAGI TATBIQLARI**

Bekmetova Sadoqat Atabayevna - katta o'qituvchi

bekmetova.s@urdu.uz

Yuldashev Begzod Egambergan o'g'li - o'qituvchi

b.yuldashev@alumni.nsu.ru

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

**ФОРМУЛА ШВАРЦА-КРИСТОФФЕЛЯ И ЕЁ ПРИЛОЖЕНИЯ В КОНФОРМНОМ
ОТОБРАЖЕНИИ ОБЛАСТЕЙ**

Бекметова Садокат Атабаевна – старший преподаватель

Юлдашев Бегзод Эгамберганович – преподаватель

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

**SCHWARZ-CHRISTOFFEL FORMULA AND ITS APPLICATIONS
IN CONFORMAL MAPPING OF DOMAINS**

Bekmetova Sadoqat Atabayevna – Senior Lecturer

Yuldashev Begzod Egamberganovich – Lecturer

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

Tayanch so'zlar: konform akslantirish, Shvars-Kristoffel integrali, yuqori yarim tekislik, birlik doira, kompleks o'zgaruvchili funksiyalar.

Rezyume. Konform akslantirishlar nazariyasi kompleks analizning eng amaliy bo'limlaridan biri bo'lib, gidrodinamika, elektrostatika va issiqlik o'tkazuvchanlik masalalarini yechishda asosiy vosita hisoblanadi. Riman teoremasiga ko'ra, har qanday bir bog'lamli sohani birlik doiraga akslantirish mumkin. Biroq, amaliy masalalarda soha chegaralari ko'pincha siniq chiziqlardan (ko'pburchaklardan) iborat bo'ladi. Bunday hollarda Shvars-Kristoffel integrali universal yechim vazifasini o'taydi. Mazkur maqolada Shvars-Kristoffel formulasining nazariy asoslari va uning tatbiqlari metodik jihatdan tahlil etilgan.

Ключевые слова: конформное отображение, интеграл Шварца-Кристоффеля, верхняя полуплоскость, единичный круг, функции комплексной переменной.

Резюме. Теория конформных отображений является одним из практических разделов комплексного анализа и служит основным инструментом при решении задач гидродинамики, электростатики и теплопроводности. В сложных задачах, где границы области состоят из многоугольников, формула Шварца-Кристоффеля выступает универсальным решением. В данной статье анализируются теоретические основы формулы Шварца-Кристоффеля и её методическое применение.

Key words: conformal mapping, Schwarz-Christoffel integral, upper half-plane, unit disk, functions of a complex variable.

Summary. The theory of conformal mapping is one of the most practical branches of complex analysis and serves as the main tool for solving problems in hydrodynamics, electrostatics, and heat transfer. In complex problems where domain boundaries consist of broken lines (polygons), the Schwarz-Christoffel formula serves as a universal solution. This paper analyzes the theoretical and methodological foundations of the Schwarz-Christoffel formula, as well as problems of mapping the upper half-plane onto the interior of polygons.

Kirish. Konform akslantirishlar nazariyasi kompleks analizning eng amaliy bo'limlaridan biri bo'lib, gidrodinamika, elektrostatika va issiqlik o'tkazuvchanlik masalalarini yechishda asosiy vosita hisoblanadi. Riman teoremasiga ko'ra, har qanday bir bog'lamli sohani birlik doiraga akslantirish mumkin. Biroq, amaliy masalalarda soha chegaralari ko'pincha siniq chiziqlardan (ko'pburchaklardan) iborat bo'ladi. Bunday hollarda Shvars-Kristoffel integrali universal yechim vazifasini o'taydi.

Metodlar va nazariy asoslar.

Shvars-Kristoffel formulasining nazariy asoslari: Aytaylik, w -tekisligida n ta uchli $A_1, A_2, \dots, A_n$ ko'pburchak berilgan bo'lsin va uning ichki burchaklari $\alpha_1\pi, \alpha_2\pi, \dots, \alpha_n\pi$ ga teng bo'lsin. Yuqori yarim tekislikni ($\text{Im } z > 0$) ushbu ko'pburchak ichiga konform akslantiruvchi funksiya quyidagi ko'rinishdagi integral orqali ifodalanadi:

$$w = f(z) = C \int_{z_0}^z (\zeta - x_1)^{\alpha_1-1} (\zeta - x_2)^{\alpha_2-1} \dots (\zeta - x_n)^{\alpha_n-1} d\zeta + C_1$$

bunda $x_1 < x_2 < \dots < x_n$ - haqiqiy o'qdagil nuqtalar bo'lib, ular w -tekisligidagi ko'pburchak uchlarining proobrazlaridir, C va C_1 kompleks o'zgaruvchilar bo'lib, sohaning o'lchami va tekislikdagi o'rni belgilaydi, $\alpha_k - 1$ daraja ko'rsatkichi, bunda $\alpha_k\pi$ ko'pburchakning k -uchidagi ichki burchagi.

Ko'pburchak uchlaridan biri cheksiz uzoqlashgan nuqtaning obrazi bo'lgan holat: Faraz qilaylik, $a_n = \infty$ bo'lsin. Bu holatni avval ko'rilgan holatga keltirish uchun, $\text{Im } z > 0$ yarim tekisligini $\text{Im } \zeta > 0$ yarim tekisligiga o'tkazuvchi va $a_1, a_2, \dots, a_n = \infty$ nuqtalarni chekli

$$a_1', a_2', \dots, a_n' \text{ nuqtalarga o'tkazuvchi } \zeta = -\frac{1}{z} + a_n'$$

chiziqli almashtirishni bajaramiz. Formulani qo‘llab, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$w = C' \int_{z_0}^z (\zeta - a_1)^{\alpha_1-1} (\zeta - a_2)^{\alpha_2-1} \dots (\zeta - a_n)^{\alpha_n-1} d\zeta + C_1 =$$

$$= C' \int_{z_0}^z \left(a_n - a_1 - \frac{1}{z} \right)^{\alpha_1-1} \left(a_n - a_2 - \frac{1}{z} \right)^{\alpha_2-1} \dots \left(-\frac{1}{z} \right)^{\alpha_n-1} \frac{dz}{z^2} + C_1.$$

Har bir qavs ichidagi ifodani umumiy maxrajga keltiramiz va har bir qavsdan $(a_n - a_k)$ ($k=1, \dots, n-1$) ko‘paytuvchilarni qavsdan tashqariga chiqaramiz; u holda quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$w = C \int_{z_0}^z (z - a_1)^{\alpha_1-1} (z - a_2)^{\alpha_2-1} \dots$$

$$\dots (z - a_{n-1})^{\alpha_{n-1}-1} \frac{dz}{z^{\alpha_1+\alpha_2+\dots+\alpha_{n-1}+2}} + C_1$$

bu yerda $a_k = \frac{1}{a_n - a_k}$ — ba’zi haqiqiy o‘zgarmaslar, C

esa kompleks o‘zgarmasdir. n -burchakning ichki burchaklari yig‘indisi haqidagi elementar geometrik teoreмага ko‘ra: $\alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_n = n - 2$ ekanligidan foydalanib, yakuniy formulani hosil qilamiz:

$$w = C \int_{z_0}^z (z - a_1)^{\alpha_1-1} (z - a_2)^{\alpha_2-1} \dots (z - a_{n-1})^{\alpha_{n-1}-1} dz + C_1$$

Birlik doira uchun Shvars-Kristoffel formulasi:


$w_1, w_2, \dots, w_n$ nuqtalar Δ ko‘pburchakning uchlari, $\alpha_1\pi, \alpha_2\pi, \dots, \alpha_n\pi$ esa ushbu uchlarga mos keluvchi ichki burchaklar bo‘lsin. Agar $w = f(z)$ funksiyasi birlik doiraning ichki qismini Δ ko‘pburchakning ichki qismiga konform akslantirsa, u holda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$f(z) = C \int_{z_0}^z (\zeta - a_1)^{\alpha_1-1} (\zeta - a_2)^{\alpha_2-1} \dots (\zeta - a_n)^{\alpha_n-1} d\zeta + C_1$$

bu yerda z_0, C, C_1 va $|a_k|=1$ ($k=1, 2, \dots, n$) ba’zi o‘zgarmaslardir.

Natijalar (Misollar tahlili)

1-Misol: $\text{Im } z > 0$ yuqori yarim tekislikni 1-rasmda ko‘rsatilgan ω -tekisligidagi sohaga akslantiring. Nuqtalar mosligi: $\omega(A=0, B=1, C=\infty) \leftarrow z(0,1,\infty)$ deb berilgan.



1-rasm

Yechish: 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ushbu uchburchakning burchaklari mos ravishda $\alpha_A = \frac{3}{2}, \alpha_B = \frac{3}{2}$ ga teng, bundan $\alpha_C = -2$ kelib chiqadi. Shvars-Kristoffel formulasiga ko‘ra:

$$\omega(z) = C \int_0^z (\xi)^{\frac{3}{2}-1} (\xi-1)^{\frac{3}{2}-1} d\xi = C \int_0^z \sqrt{\xi} \sqrt{\xi-1} d\xi$$

Integrallash natijasida quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\omega(z) = C(\arcsin \sqrt{z} - \sqrt{z(1-z)}(1-2z)).$$



Bizda $\omega(1)=1$ sharti bor, shundan foydalanib o‘zgarmas C ni topamiz:

$$1 = C(\arcsin \sqrt{1}) = C \frac{\pi}{2} \Rightarrow C = \frac{2}{\pi}.$$

Demak, izlanayotgan akslantirish funksiyasi:


$$\omega(z) = \frac{2}{\pi}(\arcsin \sqrt{z} - \sqrt{z(1-z)}(1-2z)).$$

Demak yechimni grafik shaklida quyidagicha bo‘ladi:



2-rasm

2-Misol: $\text{Im } z > 0$ yuqori yarim tekislikni 3-rasmda ko‘rsatilgan ω -tekisligidagi sohaga akslantiring. Nuqtalar mosligi: $\omega(A=0, B=ia, C=\infty) \leftarrow z(0,1,\infty)$ deb berilgan.



3-rasm

Yechish: 3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, burchaklar $\alpha_A = \frac{1}{2}, \alpha_B = 2$ ga teng, bundan $\alpha_C = -\frac{3}{2}$ kelib chiqadi.

Shvars-Kristoffel integraliga ko‘ra:

$$f(z) = C \int_0^z t^{\frac{1}{2}-1} (t-1)^{2-1} dt = C \int_0^z \frac{t-1}{\sqrt{t}} dt = C \left(\frac{2}{3} z^{3/2} - 2\sqrt{z} \right)$$

Endi o‘zgarmas C ni topamiz:

$$f(1) = C \left(\frac{2}{3} - 2 \right) = -\frac{4}{3} C = ia \Rightarrow C = -\frac{3ai}{4}.$$

Demak, yakuniy funksiya:

$$f(z) = -\frac{3ai}{4} \left(\frac{2}{3} z^{3/2} - 2\sqrt{z} \right) = -\frac{ai}{2} (z^{3/2} - 3\sqrt{z}).$$

3-Misol: $|z| < 1$ doirani koordinata boshida markazlashgan va uchlaridan biri $w=1$ nuqtada bo‘lgan muntazam besh burchakli yulduz ichiga konform akslantiruvchi $w(z)$ funksiyasini toping. Bunda $w(0) = 0$ va $w'(0) > 0$ shartlari bajarilsin.

Yechish: Faraz qilaylik, $\omega(1) = 1$ bo‘lsin. Ushbu besh burchakli yulduzda beshta o‘tkir burchak o‘zaro teng va yana beshta botiq (o‘tmas) burchak ham o‘zaro tengdir. Ko‘pburchak ichki burchaklari yig‘indisi haqidagi teorema ko‘ra $5\alpha + 5\beta = 8\pi$ munosabat o‘rinli, bunda $\alpha\pi$ — o‘tkir burchak, $\beta\pi$ — botiq burchak ko‘rsatkichi. Shvars-Kristoffel formulasini quyidagicha yozish mumkin:

Adabiyotlar

1. Лаврентьев М.А., Шабат Б.В. Методы теории функций комплексного переменного. – Москва: Главная редакция физико-математической литературы изд-ва «Наука», 1973.
2. Tobin A. Driscoll, Lloyd N. Trefethen. Schwarz–Christoffel Mapping. This edition. – Cambridge University Press (Virtual Publishing), 2003.
3. Сидоров Ю.В., Федорюк М.В., Шабунин М.И. Лекции по теории функций комплексного переменного. – Москва: Главная редакция физико-математической литературы изд-ва «Наука», 1976.
4. Волковский Л.И., Лунц Г.Л., Араманович И.Г. Сборник задач по теории функций комплексного переменного. 4-е изд., перераб. – Москва: «ФИЗМАТЛИТ», 2004.
5. Еграфов М.А., Сидоров Ю.В., Федорюк М.В., Шабунин М.И., Бежанов К.А. Сборник задач по теории аналитических функций. – Москва: Главная редакция физико-математической литературы изд-ва «Наука», 1969.

$$\begin{aligned} \omega(z) &= C \int_0^z \prod_{k=1}^n (a_k - \xi)^{\alpha_k-1} d\xi = \\ &= C \int_0^z \prod_{k=1}^5 \left(e^{\frac{i2\pi(k-1)}{5}} - \xi \right)^{\alpha-1} \prod_{j=1}^5 \left(e^{\frac{i2\pi(j-1)}{5} + \frac{\pi}{5}} - \xi \right)^{\beta-1} d\xi = \\ &= C \int_0^z (1 - \xi^5)^{\alpha-1} (1 + \xi^5)^{\beta-1} d\xi. \end{aligned}$$

Bizga ma’lumki, ushbu yulduzning ichki burchaklari mos ravishda $\alpha\pi = \frac{1}{5}\pi$ va $\beta\pi = \frac{7}{5}\pi$ ga teng. Bundan quyidagi ifoda kelib chiqadi:


$$\omega(z) = C \int_0^z (1 - \xi^5)^{-\frac{4}{5}} (1 + \xi^5)^{\frac{2}{5}} d\xi$$

Endi C o‘zgarmasini aniqlaymiz. $\omega(1) = 1$ shartidan foydalansak:

$$C \int_0^1 (1 - \xi^5)^{-\frac{4}{5}} (1 + \xi^5)^{\frac{2}{5}} d\xi = 1$$

bu yerda integral Beta-funksiya orqali hisoblanib, natijada C quyidagiga teng bo‘ladi:

$$C = \frac{5 \cdot 2^{2/5}}{B(1/10, 1/5)}.$$



4-rasm

Muhokama: Shvars-Kristoffel formulasi muhandislik masalalarini matematik modellashtirishda kuchli vositadir. Metodik jihatdan ushbu mavzu talabalarda integral hisobini geometrik interpretatsiya qilish, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar geometriyasini chuqur anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Maqolada keltirilgan nazariy hisob-kitoblarni talabalarga konform akslantirishlarni mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

MATEMATIK INDUKSIYA: ALGORITMIK YONDASHUV VA MATLAB TADBIQLARI

Bekmetova Sadoqat Atabayevna – katta o‘qituvchi

bekmetova.s@urdu.uz

Yuldashev Begzod Egambergan o‘g‘li – o‘qituvchi

b.yuldashev@alumni.nsu.ru

To‘raxonov Islombek Farhodovich – o‘qituvchi

islombek@urdu.uz

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ ИНДУКЦИЯ: АЛГОРИТМИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ПРИЛОЖЕНИЯ В MATLAB

Бекметова Садокат Атабаевна – старший преподаватель

Юлдашев Бегзод Эгамберганович – преподаватель

Турахонов Ислонбек Фарходович – преподаватель

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни

MATHEMATICAL INDUCTION: AN ALGORITHMIC APPROACH AND MATLAB APPLICATIONS

Bekmetova Sadoqat Atabayevna – senior lecturer

Yuldashev Begzod Egamberganovich – lecturer

Turakhonov Islombek Farkhodovich – lecturer

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

Tayanch so‘zlar: matematik induksiya, algoritmik yondashuv, MATLAB, rekursiya, vizuallashtirish, matematik modellash, qonuniyatlarni aniqlash.

Rezyume. Maqolada matematik induksiya nafaqat isbotlash usuli sifatida, balki algoritmik fikrlash vositasi sifatida ham o‘rganiladi. MATLAB dasturi yordamida matematik formulalarni tekshirish, vizuallashtirish va yangi qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Induksiya va rekursiya o‘rtasidagi uzviy bog‘lanish misollar orqali yoritiladi.

Ключевые слова: математическая индукция, алгоритмический подход, MATLAB, рекурсия, визуализация, математическое моделирование, выявление закономерностей.

Резюме. В статье математическая индукция рассматривается не только как метод доказательства, но и как инструмент алгоритмического мышления. Демонстрируются возможности среды MATLAB для проверки математических формул, визуализации данных и выявления новых закономерностей. На конкретных примерах раскрывается тесная взаимосвязь между индукцией и рекурсией.

Key words: mathematical induction, algorithmic approach, MATLAB, recursion, visualization, mathematical modeling, pattern recognition.

Summary. The paper examines mathematical induction not only as a method of proof but also as a tool for algorithmic thinking. It demonstrates the capabilities of MATLAB for verifying mathematical formulas, visualizing data, and identifying new patterns. The inherent connection between induction and recursion is elucidated through practical examples.

Kirish. Matematik induksiya diskret matematikaning fundamental va eng ko‘p qo‘llaniladigan usullaridan biri bo‘lib, natural sonlarga bog‘liq mulohazalar, algebraik tengliklar va ketma-ketliklarni isbotlashda muhim o‘rin tutadi. An‘anaviy yondashuvda bu usul asosan nazariy xarakterga ega bo‘lib, baza (boshlang‘ich qadam) va induksion qadamni qog‘ozda tahlil qilish bilan cheklangan. Biroq raqamli texnologiyalar va algoritmlash jadal rivojlanayotgan hozirgi kunda matematik induksiyaning tatbiq doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda.

Induksiya endilikda faqat nazariy isbotlash vositasi emas. U rekursiv strukturalarni tushunish, algoritmlar tuzish va ularning to‘g‘riligini dasturiy jihatdan asoslashda ham asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy hisoblash tizimlari, xususan MATLAB dasturi, induktiv g‘oyalarni amaliy jihatdan tekshirish, murakkab ifodalarni soddalashtirish hamda induksion qadamdagi mantiqiy bog‘liqliklarni simulyatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi matematik induksiya yordamida yechiladigan masalalarni MATLAB dasturi orqali tahlil qilish, raqamli (numeric) va simvolik (symbolic) hisoblashlar yordamida gipotezalarni sinovdan o‘tkazish usullarini o‘rganishdan iborat. Bu yondashuv tadqiqotchilarga nafaqat isbotlarning to‘g‘riligiga ishonch

hosil qilishga, balki mantiqiy va algoritmik fikrlashni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Matematik induksiya va zamonaviy dasturlash vositalarini integratsiya qilish talabalar va yosh tadqiqotchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, murakkab rekursiv va induktiv masalalarni yechishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hisoblash xatolarini oldindan aniqlash va algoritmlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Induksiya va rekursiya. Induksiya va rekursiya o‘rtasida kuchli bog‘lanish mavjud. Har qanday rekursiv aniqlanish induktiv isbotga olib keladi.

Fibonachchi ketma-ketligi quyidagi rekursiv formula orqali aniqlanadi:

$$F_1 = 1, \quad F_2 = 1, \quad F_n = F_{n-1} + F_{n-2}, \quad n \geq 3.$$

Mazkur ta‘rif rekursiv xarakterga ega bo‘lib, har bir had oldingi ikkita had orqali aniqlanadi. Shu sababli Fibonachchi sonlari matematik induksiya bilan bevosita emas, balki bilvosita bog‘langan.

Quyidagi tengsizlikni ko‘rib chiqamiz:

$$F_n \leq 2^n, \quad \forall n \in \mathbb{N}.$$

Uni isbotlash uchun matematik induksiya usulidan foydalanamiz:

Boshlang‘ich holat: $n = 1$ va $n = 2$ uchun:

$$F_1 = 1 \leq 2, \quad F_2 = 1 \leq 4.$$

Induktiv faraz: Faraz qilaylik, $n = k$ va $n = k - 1$ uchun:

$$F_k \leq 2^k, \quad F_{k-1} \leq 2^{k-1}.$$

Induktiv qadam: Unda $n = k + 1$ uchun:

$$F_{k+1} = F_k + F_{k-1}.$$

Induktiv farazdan foydalanib:

$$F_{k+1} \leq 2^k + 2^{k-1} = 2^{k-1}(2+1) = 3 \cdot 2^{k-1}.$$

Endi quyidagini ko'ramiz:


$$3 \cdot 2^{k-1} < 2^{k+1},$$

chunki $3 < 4$. Demak,

$$F_{k+1} < 2^{k+1}.$$

Shunday qilib, tengsizlik barcha n lar uchun o'rinli. Endi bu yerda qaralayotgan tengsizlikning to'g'riligini MATLAB dasturi yordamida tekshirish jarayonini ham ko'rib chiqamiz:

```
n = 1:15;
Fn = 20eometric(n);
power2n = 2.^n;
figure;
plot(n, Fn, '-o', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize', 6,
'DisplayName', 'F_n (Fibonachchi)');
hold on;
plot(n, power2n, '-s', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize', 6,
'DisplayName', '2^n');
hold off;
grid on;
title('F_n \leq 2^n tengsizligini taqqoslash');
xlabel('n (natural sonlar)');
ylabel('Qiymatlar');
legend('Location', 'northwest');
```



1-rasm

Grafikga qarab quyidagi 3 ta muhim xulosani ko'rish mumkin:

1. Boshlang'ich qiymatlar ($n = 1, 2$):

n ning kichik qiymatlarida, masalan, $n = 1$ bo'lganda, $F_1 = 1$ va $2^1 = 2$ qiymatlar bir-biriga nisbatan yaqin joylashadi.

2. O'sish tezligidagi keskin farq:

n qiymati ortishi bilan (ayniqsa $n > 5$ dan boshlab), 2^n funksiyasining o'sish tezligi Fibonachchi ketma-

ketligiga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Masalan, oxirgi nuqtada $F_{15} = 610$ ni tashkil etsa, $2^{15} = 32768$ ga yetadi.

3. Tengsizlikning to'g'riligi:

Grafikda 2^n ni ifodalovchi chiziq har doim F_n ni ifodalovchi chiziqdan yuqorida yotibdi. Bu geometrik jihatdan quyidagi tengsizlikning isboti hisoblanadi: $F_n \leq 2^n$

ya'ni, bu chiziqlar hech qachon kesishmaydi va 2^n funksiyasi F_n dan doimo katta bo'ladi.

Endi esa Fibonachchi sonlari uchun quyidagi xossani tahlil qilamiz:

1-teorema. Yig'indi formulasi: Endi quyidagi formulani ko'rib chiqamiz:

$$F_1 + F_2 + \dots + F_n = F_{n+2} - 1.$$

Isbot: Boshlang'ich holat: $n = 1$ uchun:

$$F_1 = 1 = F_3 - 1 = 2 - 1 = 1.$$

Induktiv faraz: Faraz qilaylik,

$$F_1 + F_2 + \dots + F_k = F_{k+2} - 1.$$


Induktiv qadam:

$$\begin{aligned} F_1 + \dots + F_k + F_{k+1} &= (F_{k+2} - 1) + F_{k+1} \\ &= F_{k+2} + F_{k+1} - 1 = F_{k+3} - 1. \end{aligned}$$

Demak, formula barcha n lar uchun to'g'ri.

Endi bu misolda berilgan tenglikning to'g'riligini MATLAB yordamida tekshiramiz:

```
n = 1:12;
chap_qism = arrayfun(@(k) sum(20eometric(1:k)), n);
ong_qism = 20eometric(n + 2) - 1;
figure;
plot(n, chap_qism, '-o', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize',
6, 'DisplayName', 'F_1 + F_2 + \dots + F_n');
hold on;
plot(n, ong_qism, '—s', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize',
6, 'DisplayName', 'F_{n+2} - 1');
hold off;
grid on;
title('Tenglikni grafikda tekshirish: \Sigma F_i = F_{n+2} - 1');
xlabel('n (natural sonlar)');
ylabel('Qiymatlar');
legend('Location', 'northwest');
```



2-rasm

Rasmdan ko‘rinib turibdiki natijalar teng chiqadi, bu esa formulani eksperimental ravishda tasdiqlaydi.

Fibonachchi sonlari rekursiv tarzda aniqlanadi, ammo ularning xossalari isbotlashda matematik induksiya muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, rekursiya va induksiya o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri obyektini qurish, ikkinchisi esa uning xossalari asoslash uchun xizmat qiladi. MATLAB esa ushbu nazariy natijalarni amaliy jihatdan tekshirish imkonini beradi.

Induktiv isbot va hisoblash orqali tekshirish

2-teorema. Har qanday $n \in \mathbb{N}$ uchun:

$$1^3 + 2^3 + \dots + n^3 = \left(\frac{n(n+1)}{2} \right)^2.$$

Isbot: $n=1$ uchun tenglik o‘rinli. Faraz qilaylik, $n=k$ uchun o‘rinli:

$$1^3 + \dots + k^3 = \left(\frac{k(k+1)}{2} \right)^2.$$

Endi $n=k+1$ uchun:

$$1^3 + \dots + k^3 + (k+1)^3 = \left(\frac{k(k+1)}{2} \right)^2 + (k+1)^3 = (k+1)^2 \left(\frac{k^2}{4} + k + 1 \right) = (k+1)^2 \cdot \frac{(k+2)^2}{4} = \left(\frac{(k+1)(k+2)}{2} \right)^2,$$

demak, tasdiq isbotlandi.

MATLAB orqali tekshirish:

```
n = 1:15;
chap_qism = arrayfun(@(k) sum((1:k).^3), n);
ong_qism = ((n.* (n + 1)) ./ 2).^2;
figure;
plot(n, chap_qism, '-o', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize',
6, 'DisplayName', '1^3 + 2^3 + \dots + n^3');
hold on;
plot(n, ong_qism, '-s', 'LineWidth', 2, 'MarkerSize',
6, 'DisplayName', '((n(n+1))/2)^2');
hold off;
grid on;
title('Tenglikni grafikda tekshirish: \Sigma i^3 = ((n(n+1))/2)^2');
xlabel('n (natural sonlar)');
ylabel('Qiymatlar');
legend('Location', 'northwest');
```

Tengsizliklar va induksiya

3-teorema. Agar $x > -1$ bo‘lsa, u holda:

$$(1+x)^n \geq 1+nx$$

Isbot: Matematik induksiya usuli ikki qismdan iborat: Baza qadami ($n=1$ uchun): $n=1$ bo‘lganda tengsizlikning chap va o‘ng qismlarini tekshiramiz:

$$(1+x)^1 \geq 1+1 \cdot x$$

bu ifoda quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$1+x \geq 1+x,$$

tengsizlik o‘rinli (chap va o‘ng qismlar o‘zaro teng).

Induksion faraz: Faraz qilamizki, bu tengsizlik $n=k$ ($k \in \mathbb{N}$) uchun o‘rinli:

$$(1+x)^k \geq 1+kx. \quad (1)$$

Induksion qadam ($n=k+1$ uchun): Tengsizlik $n=k+1$ uchun ham o‘rinli ekanligini, ya’ni quyidagi tengsizlikni isbotlashimiz kerak:

$$(1+x)^{k+1} \geq 1+(k+1)x.$$

Buning uchun (1) ifodaning ikkala tomonini $1+x$ ga ko‘paytiramiz (shartga ko‘ra $x > -1$, shuning uchun $1+x > 0$ va tengsizlik o‘zgarmaydi):

$$(1+x)^k \cdot (1+x) \geq (1+kx)(1+x)$$

$$(1+x)^{k+1} \geq 1+x+kx+kx^2.$$

O‘ng qismdagi ifodani guruhlaymiz:

$$1+x+kx+kx^2 = 1+(k+1)x+kx^2.$$

Endi kx^2 hadga e’tibor qaratamiz: $k \in \mathbb{N}$ va har qanday haqiqiy sonning kvadrati musbat yoki nolga teng bo‘lgani uchun $kx^2 \geq 0$. Shuning uchun:

$$1+(k+1)x+kx^2 \geq 1+(k+1)x.$$


Natijada quyidagi tengsizlikka ega bo‘lamiz:

$$(1+x)^{k+1} \geq 1+(k+1)x.$$

Matematik induksiya prinsipiga asosan, Bernulli tengsizligi barcha $n \in \mathbb{N}$ uchun o‘rinli ekanligi isbotlandi.

MATLAB orqali grafik tekshirish:

```
x = linspace(-0.9, 1.5, 100);
n_values = [1, 2, 3, 4];
figure;
colors = lines(length(n_values)); % Har bir n uchun alohida rang tanlash
for i = 1:length(n_values)
    n = n_values(i);
    LHS = (1+x).^n;
    RHS = 1 + n * x;
    plot(x, LHS, 'Color', colors(i,:), 'LineWidth', 2, ...
'DisplayName', ['(1+x)^n, n=' num2str(n)]);
hold on;
plot(x, RHS, '--', 'Color', colors(i,:), 'LineWidth', 1.5, ...
'DisplayName', ['1 + nx, n=' num2str(n)]);
end
grid on;
title('Bernulli tengsizligini taqqoslash: (1+x)^n \geq 1+nx');
xlabel('x qiymatlari');
ylabel('Funksiya qiymatlari');
legend('Location', 'northwest');
xlim([-0.9 1.5]);
ylim([-0.5 8]);
```



3-rasm

1. **Kesishish nuqtasi ($x = 0$):**

Ikkala chiziq $x = 0$ nuqtada kesishadi. Bu nuqtada ikkala tomon ham 1 ga teng bo'ladi: $(1+0)^n = 1$ va $1+n \cdot 0 = 1$.

2. $x > 0$ **bo'lgan holat (Musbat zonada):**

x musbat bo'lganida, egri chiziq $(1+x)^n$ to'g'ri chiziq $1+nx$ dan yuqorida yotadi. Bu shuni bildiradiki, daraja ortgan sari chap qism o'ng qismdan keskinroq o'sib ketadi ($F(x) > G(x)$).

3. $-1 < x < 0$ **bo'lgan holat (Manfiy zonada):**

x manfiy bo'lganida ham, egri chiziq to'g'ri chiziqdan yuqorida joylashgan. Bu Bernulli tengsizligi $x > -1$ bo'lgan har qanday shartda to'g'riligini isbotlaydi. Qaysi rangdagi (ya'ni qaysi n) chiziq'larga qaramang, chap qismning qiymati o'ng qismdan har doim katta yoki unga teng bo'ladi. Bu tengsizlikning geometrik talqini.

Xulosa. Matematik induksiya faqat isbotlash vositasi emas, balki algoritmik fikrlash va hisoblash tajribalari bilan uzviy bog'langan kuchli metoddir. MATLAB bilan birgalikda qo'llanganda u zamonaviy matematik tadqiqotlar uchun samarali vositaga aylanadi.

Adabiyotlar

1. Демидович Б.П. Сборник задач и упражнений по математическому анализу. 11-е изд. 1995.
2. Abdurahmonov B. Matematik induksiya metodi. – Toshkent: 2008.
3. Николаева С.А. Метод математической индукции. Методическое пособие для учителей и учащихся инженерных классов физико-математического профиля. – Ядрин: 2015.
4. Дьяконов В.П. MATLAB. Полный самоучитель. – Москва: ДМК Пресс, 2012.

ATLAS VA ADRAS MILLIY GAZLAMALARINING MATERIALSHUNOSLIK XUSUSIYATLARI**Berdimbetova Akjarkin Djumaxanovna – dotsent**akjarkinberdimbetova@mail.ru*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***МАТЕРИАЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТКАНЕЙ АТЛАСА И АДРАСА****Бердимбетова Акжаркин Джумахановна – доцент***Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***MATERIAL CHARACTERICS TRADITIONAL FABRICS ATLAS AND ADRAS****Berdimbetova Akzharkin Dzhumakhanovna – Associate Professor***Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch soʻzlar: atlas, adras, materialshunoslik, toʻqimachilik, tabiiy tolalar, ipak, paxta, gigroskopiklik, mexanik xususiyatlar, toʻqilish strukturasi, Oʻzbekiston milliy gazlamalari.

Rezyume. Maqolada atlas va adrasning materialshunoslik xususiyatlari koʻrib chiqilgan boʻlib, ularning tuzilishi va tarkibi fizik hamda ekspluatatsion xususiyatlardagi farqlarni belgilashi koʻrsatilgan, shuningdek, ular zamonaviy toʻqimachilik sanoatida anʼanaviy va ekologik xavfsiz gazlamalar sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida xulosa qilingan.

Ключевые слова: атлас, адрас, материаловедение, текстиль, натуральные волокна, шелк, хлопок, гигроскопичность, механические свойства, структура ткани, национальные ткани Узбекистана.

Резюме. В статье рассмотрены материаловедческие особенности атласа и адраса, показано, что их структура и состав определяют различия в физических и эксплуатационных свойствах, а также сделан вывод об их значимости как традиционных и экологически безопасных тканей современной текстильной промышленности.

Key words. atlas, adras, materials science, textiles, natural fibers, silk, cotton, hygroscopicity, mechanical properties, fabric structure, traditional fabrics of Uzbekistan.

Summary. The article examines the materials science characteristics of atlas and adras, showing that their structure and composition determine differences in physical and performance properties, and concludes that they are significant as traditional and environmentally friendly fabrics in the modern textile industry.

Kirish. Toʻqimachilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy va muhim amaliy sohalardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston hududi esa qadimdan Buyuk Ipak yoʻlining markazida joylashganligi sababli bu yerda toʻqimachilik madaniyati juda erta shakllangan va yuqori darajada rivojlangan. Atlas va adras kabi milliy gazlamalar ushbu tarixiy jarayonning eng muhim mahsuli boʻlib, ular xalqning turmush tarzi, estetik qarashlari va tabiiy resurslardan foydalanish madaniyatini oʻzida aks ettiradi [6:135].

Materialshunoslik fanining rivojlanishi natijasida gazlamalar endilikda faqat tashqi koʻrinish yoki badiiy qiymatga ega mahsulot sifatida emas, balki murakkab fizik-kimyoviy va mexanik xossalarga ega boʻlgan tizimli materiallar sifatida oʻrganilmoqda. Atlas va adras ham ana shunday tabiiy kompozit materiallar qatoriga kiradi, chunki ularning xossalari tolalar tarkibi, ularning joylashuvi va oʻzaro bogʻlanishiga bevosita bogʻliqdir.

Atlas va adrasning tarixiy shakllanishi va madaniy ahamiyati. Atlas va adras gazlamalarining shakllanishi Markaziy Osiyo hududida ipakchilik va paxtachilikning rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Tarixiy manbalarda ushbu gazlamalar qadimiy shaharlarda, xususan Margʻilon, Buxoro va Samarqandda yuqori darajada ishlab chiqarilgani qayd etiladi. Ushbu hududlar tabiiy xom ashyo, tajribali hunarmandlar va rivojlangan savdo yoʻllari tufayli toʻqimachilik markazlariga aylangan [3:220].

Atlas qadimdan yuqori tabaqa vakillari kiyimida ishlatilgan boʻlib, u nafislik va hashamat belgisi sifatida qadrlangan. Uning silliq va yaltiroq yuzasi estetik jihatdan yuqori baholangan. Adras esa kundalik hayotda keng qoʻllanilgan boʻlib, u nisbatan mustahkamligi va qulayligi bilan ajralib turgan. Shu bilan birga, adras milliy kiyim madaniyatining ajralmas qismi sifatida ham shakllangan.

Tolaviy tarkib va materiallarning tuzilish xususiyatlari. Atlas gazlamasi asosan tabiiy ipak tolalaridan tashkil topadi. Ipak tolasi biologik kelib chiqishga ega boʻlib, u ipak qurti tomonidan ishlab chiqariladigan fibroin oqsilidan iboratdir. Ushbu oqsil molekulalari tartibli kristall va amorf qismlardan tashkil topganligi sababli ipak yuqori darajada mustahkamlik va elastiklikka ega boʻladi. Shu bilan birga, ipak tolalari juda ingichka boʻlib, ularning sirt tuzilishi silliq boʻlgani uchun yorugʻlikni yaxshi aks ettiradi va atlasga xos tabiiy jiloni hosil qiladi [5:57].

Adras esa aralash tolali gazlama boʻlib, uning tarkibida ipak va paxta tolalari birgalikda qoʻllaniladi. Paxta tolasi selluloza asosidagi tabiiy polimer boʻlib, u yuqori gigroskopik va mexanik barqarorlik bilan ajralib turadi. Ipak tolalari esa matoga estetik yumshoqlik va yaltiroqlik beradi. Ushbu ikki turdagi tolalarning birikishi natijasida adras muvozanatli fizik-mexanik xossalarga ega boʻladi.

Atlas gazlamasida toʻqilish jarayoni maxsus satin usulida amalga oshiriladi. Bu usulning asosiy xususiyati shundan iboratki, asos va arqoq iplarining kesishish nuqtalari juda kam boʻladi. Natijada mato yuzasida uzun ip yoyilmalari hosil boʻlib, silliq va yaltiroq sirt paydo boʻladi. Bunday struktura yorugʻlikning bir yoʻnalishda aks etishiga olib keladi, bu esa optik jiloni kuchaytiradi [7:202].

Adrasda esa toʻqilish jarayoni nisbatan zichroq va murakkabroq boʻlib, iplarining kesishish nuqtalari koʻproqdir. Bu esa matoning mexanik mustahkamligini oshiradi va uning shaklini uzoq muddat saqlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, adras yuzasida rang va naqshlarning tabiiy oʻtishlari hosil boʻlishi mumkin, bu esa uni badiiy jihatdan yanada boy qiladi.

Fizik-mexanik xususiyatlar va ularning tahlili. Atlas va adras gazlamalarining fizik-mexanik xususiyatlari ularning

ichki tolaviy tuzilishi va to'qilish texnologiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu materiallarda yuklama ostida deformatsiyalanish, cho'zilish, egilish hamda ishqalanishga chidamlilik kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi [4:99].

Atlas gazlamasi ipak tolalaridan tashkil topganligi sababli yuqori darajada silliq sirtga ega bo'lib, bu uning mexanik ta'sirlarga nisbatan sezgirligini oshiradi. Ipak tolalarining molekulyar tuzilishi mustahkam bo'lsa-da, gazlama strukturadagi kam kesishish nuqtalari uning ishqalanishga chidamliligini nisbatan pasaytiradi. Shu sababli atlas ko'proq dekorativ va kam mexanik yuklama talab qiladigan mahsulotlarda qo'llaniladi. Uning cho'zilish qobiliyati mavjud bo'lsa ham, uzoq muddatli mexanik stress ostida tolalarning siljishi va yuzaviy yemirilish jarayonlari kuzatilishi mumkin.

Adras esa aralash tolali tuzilishga ega bo'lib, undagi paxta komponenti materialning umumiy mustahkamligini sezilarli darajada oshiradi. Paxta tolalarining selluloza asosidagi kristall tuzilishi gazlamaga yuqori darajadagi barqarorlik beradi. Shu sababli adras cho'zilish, bukilish va ishqalanish kabi mexanik ta'sirlarga nisbatan ancha chidamli hisoblanadi. U o'z shaklini uzoq vaqt saqlab qolish xususiyatiga ega bo'lib, bu uni amaliy foydalanish uchun qulay materialga aylantiradi [2:146].

Gigiyenik va issiqlik-fizik xususiyatlari. Atlas va adras gazlamalarining gigiyenik xususiyatlari ularning tabiiy tolalardan tashkil topganligi bilan belgilanadi. Bunday materiallar inson terisi bilan bevosita kontaktga kirishganda biologik moslashuvchanlikni ta'minlaydi va allergik reaksiyalarni kamaytiradi.

Gigroskopiklik xususiyati ushbu gazlamalarning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Atlas ipak tolalarining molekulyar tuzilishi tufayli namlikni tez qabul qiladi va uni nisbatan tez bug'lantiradi. Bu jarayon teri yuzasida ortiqcha namlik to'planishining oldini oladi va qulay mikroiklim yaratadi. Adras esa paxta tolalari hisobiga yanada barqaror namlik almashinuviga ega bo'lib, u uzoq vaqt davomida komfort darajasini saqlab turadi [1:315].

Issiqlik-fizik jihatdan atlas yengil va havo o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan material sifatida issiq iqlim sharoitida salqinlik hissini beradi. Ipak tolalarining issiqlikni tez o'tkazish xususiyati tana haroratining ortiqcha ko'tarilishini oldini oladi. Adras esa nisbatan zichroq struktura tufayli issiqlikni barqaror ushlab turadi va mavsumiy o'zgarishlarga moslashgan material sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'yash texnologiyasi va ranglarning fizik xususiyatlari. Atlas va adrasni bo'yash jarayoni an'anaviy texnologiyalar va tabiiy pigmentlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, bu jarayon gazlamaning yakuniy estetik va fizik xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bo'yoqning tolalarga singish darajasi tolalarning kimyoviy tarkibi, sirt energiyasi va kapillyar tuzilishiga bog'liqdir.

Atlas gazlamasida ipak tolalarining silliq va zich yuzasi bo'yoq molekullarining bir tekis taqsimlanishiga imkon yaratadi. Natijada ranglar yuqori yorqinlik va chuqurlik kasb etadi. Yorug'likning sirt bo'ylab aks etishi esa ranglarning vizual intensivligini oshiradi. Shu sababli atlasda ranglar "jonli" va optik jihatdan boy ko'rinadi.

Adrasda esa bo'yash jarayoni murakkabroq kechadi, chunki paxta va ipak tolalari bo'yoqni turlicha qabul qiladi. Bu esa ranglarning notekis, ammo estetik jihatdan boy

o'tishlariga olib keladi. Ayniqsa an'anaviy ikat uslubida bo'yoq oldindan ipga singdirilib, keyin to'qilish jarayoni amalga oshiriladi. Natijada naqshlar tabiiy "chegarasiz" o'tishlar bilan hosil bo'ladi, bu esa adrasga xos badiiy ifodani shakllantiradi.

Hozirgi zamon to'qimachilik sanoatida atlas va adras milliy identitetni saqlagan holda innovatsion dizayn elementlari sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu gazlamalar an'anaviy kiyim-kechakdan tashqari, zamonaviy moda industriyasida ham yuqori baholanmoqda. Atlas o'zining yaltiroq yuzasi va estetik nafisligi tufayli ko'proq kechki liboslar, sahna kiyimlari va dizaynerlik kolleksiyalarida qo'llaniladi. U yorug'lik bilan o'zaro ta'sirga kirishib, vizual effekt yaratish imkonini beradi. Adras esa mustahkamligi va qulayligi sababli kundalik kiyimlar, bolalar kiyimi hamda ichki dizayn elementlarida keng ishlatiladi [9:93].

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu gazlamalarning strukturasi saqlagan holda ularning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash, ya'ni mustahkamlik va rang barqarorligini oshirish yo'nalishida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ekologik ahamiyati. Atlas va adras ekologik jihatdan toza materiallar hisoblanadi, chunki ular tabiiy tolalardan ishlab chiqariladi va kimyoviy ifloslantiruvchi komponentlarni o'z ichiga olmaydi. Ularning ishlab chiqarish jarayoni to'g'ri tashkil etilganda atrof-muhitga minimal zarar yetkazadi.

Ushbu gazlamalarning biologik parchalanish xususiyati ularni sintetik materiallarga nisbatan ekologik jihatdan afzal qiladi. Tabiiy tolalar vaqt o'tishi bilan mikroorganizmlar ta'sirida parchalanib, tabiiy aylanish jarayoniga qaytadi. Bu esa chiqindilar muammosini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, atlas va adras ishlab chiqarishida an'anaviy bo'yash usullaridan foydalanish kimyoviy chiqindilar miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos keladi.

Atlas va adras gazlamalarini materialshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish ularning nafaqat an'anaviy madaniy meros obyekti, balki murakkab fizik-kimyoviy va struktural xususiyatlarga ega tabiiy to'qimachilik tizimi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu gazlamalar insoniyatning tabiiy resurslardan foydalanish tajribasi, estetik qarashlari hamda texnologik rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, ular bugungi kunda ham ilmiy, amaliy va madaniy jihatdan o'z dolzarbligini yo'qotmagan [8:77].

Materialshunoslik jihatidan qaralganda, atlas va adrasning asosiy farqlovchi xususiyati ularning tolaviy tarkibi va to'qilish strukturasi namoyon bo'ladi. Atlas asosan tabiiy ipak tolalariga asoslangan bo'lib, uning molekulyar tuzilishi va sirt xossalari gazlamaga o'ziga xos optik effekt – yaltiroqlik va yorug'likni kuchli aks ettirish xususiyatini beradi. Adras esa ipak va paxta tolalarining birgalikdagi kombinatsiyasi natijasida shakllanib, u nisbatan muvozanatli fizik-mexanik xossalarga ega bo'lgan kompozit material sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli atlas ko'proq estetik va dekorativ maqsadlarda, adras esa amaliy va kundalik foydalanish uchun qulay material sifatida qoraladi.

Ushbu gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlari ularning ekspluatatsion imkoniyatlarini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Atlasning nozik va silliq

tuzilishi uni tashqi mexanik ta'sirlarga nisbatan sezgir qiladi, biroq bu uning estetik qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, uni yuqori darajadagi dizayn materialiga aylantiradi. Adras esa paxta tolalarining mavjudligi tufayli ancha barqaror mexanik xossalarga ega bo'lib, u uzoq muddatli foydalanish sharoitida ham o'z shakli va tuzilishini saqlab qolish qobiliyatiga ega. Bu holat adrasni amaliy to'qimachilik mahsulotlari orasida muhim o'ringa qo'yadi.

Gigiyenik va issiqlik-fizik xususiyatlar nuqtayi nazaridan ham ushbu gazlamalar tabiiy material sifatida yuqori baholanadi. Ularning gigroskopiklik xususiyati inson terisi bilan o'zaro ta'sirda qulay mikroiklim yaratishga xizmat qiladi. Atlas ipak tolalarining tabiiy tuzilishi tufayli namlikni tez qabul qiladi va tezda tashqi muhitga chiqaradi, bu esa tana haroratining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Adras esa paxta komponenti tufayli namlikni nisbatan uzoqroq ushlab turadi va asta-sekin chiqaradi, bu esa uning turli iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi. Issiqlik almashinuvi jarayonida ham bu ikki gazlama o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, atlas yengilligi va havo o'tkazuvchanligi bilan ajralib tursa, adras zichroq tuzilishi orqali issiqlikni barqaror saqlash imkonini beradi.

Dunyo tillarining katta qismi raqamli resurslar nuqtai nazaridan kam resursli tillar toifasiga kiradi. Bunday tillar uchun ochiq elektron korpuslar, parallel matnlar, lingvistik ma'lumotlar bazalari, tokenizatorlar va oldindan o'qitilgan til modellari yetarli darajada shakllanmagan. Natijada kam resursli tillarda mashinali tarjima, avtomatik matn tasnifi, axborot qidiruv tizimlari va boshqa NLP ilovalarini ishlab chiqish jarayoni murakkablashadi. Shu sababli kam resursli tillar uchun matnli ma'lumotlarni yig'ish, tozalash va korpus shakliga keltirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [3].

Qoraqalpoq tili ham raqamli resurslari yetarli darajada rivojlanmagan tillardan biri hisoblanadi. Mavjud matnli

resurslar ko‘pincha veb-saytlar, yangilik portallari va rasmiy sahifalarda tarqoq holda joylashgan bo‘lib, ular mashinali o‘qitish algoritmlari uchun tayyor ma’lumotlar to‘plami shaklida emas. Avvalgi tadqiqotlarda Swiss German, Punjabi va boshqa kam resursli tillar uchun internet manbalaridan avtomatik ravishda matn yig‘ish orqali elektron korpuslar yaratish mumkinligi ko‘rsatilgan [4, 6]. Ushbu maqolaning maqsadi Requests va BeautifulSoup kutubxonalari yordamida qoraqalpoq tilidagi elektron manbalardan maqola matnlarini avtomatik yig‘ish va keyingi qayta ishlash bosqichlari uchun birlamchi xom matnlar bazasini shakllantirish metodologiyasini ko‘rsatishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda qoraqalpoq tili uchun birlamchi xom matnlar bazasini shakllantirish jarayoni ma’lumot manbalarini tanlash, veb-sahifalarni avtomatik yuklab olish, HTML tarkibidan kerakli matnlarni ajratish, birlamchi tozalash va saqlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Dastlabki xom korpusning leksik va uslubiy xilma-xilligini ta’minlash maqsadida qoraqalpoq tilidagi uchta ishonchli elektron resurs tanlandi: kknews.uz, yuz.uz va joqargikenes.uz. Manbalarni tanlashda ularning ochiq veb-resurs ekanligi, qoraqalpoq tilidagi matnlarni muntazam e’lon qilishi, tahririy nazoratdan o‘tganligi va turli janrdagi matnlarni qamrab olishi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Veb-resurs	Sohasi	Til uslubi	Qamrab olingan sahifalar
kknews.uz	Ommaviy axborot vositalari	Jurnalistik, ijtimoiy-siyosiy	613
yuz.uz	Milliy yangiliklar agentligi	Rasmiy, tahliliy	623
joqargikenes.uz	Davlat boshqaruvi	Qonunchilik, rasmiy-idoraviy	150

Bunday manbalarni tanlash kam resursli tillar uchun internetdan korpus yaratish tajribasiga mos keladi. Masalan, SwissCrawl tizimida ham internetdagi ochiq veb-sahifalar asosiy matn manbasi sifatida ishlatilgan [4].

Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida Python dasturlash tili, Requests va BeautifulSoup kutubxonalariidan foydalanildi. Requests veb-sahifalarga HTTP so‘rov yuborish va HTML hujjatni yuklab olish uchun, BeautifulSoup esa yuklab olingan HTML tarkibini tahlil qilish, kerakli teglarni topish, sarlavha, asosiy matn va havolalarni ajratib olish uchun qo‘llanildi. Kahlon va Singh tomonidan Punjabi tili misolida olib borilgan tadqiqotda ham BeautifulSoup statik HTML sahifalardan matnli ma’lumotlarni olishda samarali Python kutubxonasi sifatida ta’riflangan [6].

Ishlab chiqilgan algoritm ikki asosiy bosqichga asoslandi, avval navigatsiya sahifalari ko‘rib chiqilib, maqolalarga olib boruvchi havolalar ajratildi, keyin har bir maqola sahifasiga alohida so‘rov yuborilib, uning sarlavhasi va asosiy matni olindi. Jarayon quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi: 1) sayt URL va sahifalar sonini belgilash; 2) navigatsiya sahifasini Requests orqali yuklab olish; 3) BeautifulSoup yordamida <a> teglarini tahlil qilish; 4) /qr/ yoki /kk/ prefiksli unikal havolalarni ajratish; 5) maqola sahifasidan <h1> va asosiy matn bloklarini olish; 6) matnni filtrlash va korpus fayliga

saqlash. Mazkur yondashuv SwissCrawl tizimidagi crawler tamoyiliga yaqin bo‘lib, unda ham URL lar ro‘yxati olinadi, sahifa yuklanadi, HTML tarkibidan matn va havolalar ajratiladi [4].

BeautifulSoup yordamida sahifaning HTML tuzilmasi obyekt sifatida tahlil qilindi va maqola mazmunini ifodalovchi sarlavha hamda paragraf matnlari ajratib olindi. HTML teglar, menyu elementlari, reklama, navigatsiya bloklari va texnik qismlar korpusga kiritilmadi. Web-korpus yaratishda aynan asosiy matnni ajratib olish muhim bosqich hisoblanadi, chunki sahifalardagi menyu, havola, reklama va boshqa boilerplate qismlar matn sifatini pasaytirishi mumkin [5].

Veb-sahifalardan olingan xom matnlar birlamchi tozalashdan o‘tkazildi, bunda HTML teglar olib tashlandi, ortiqcha bo‘sh joylar normallashtirildi, juda qisqa va ma’no bermaydigan paragraflar filtrlandi, matnlar UTF-8 kodirovkasida saqlandi hamda takroriy URL manzillar alohida ro‘yxat orqali nazorat qilindi. Serverga ortiqcha yuklama bermaslik uchun so‘rovlar orasida time.sleep yordamida qisqa tanaffuslar qo‘yildi, vaqtinchalik HTTP xatoliklariga chidamlilik uchun esa Retry mexanizmlaridan foydalanildi. Laippala va boshqalar ham web-korpus yaratishda raw HTML matnni tozalash va boilerplate removal bosqichlari matn sifatiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi [5].

Umumiy metodologiyani quyidagicha ifodalash mumkin: manbalarni tanlash → URL sahifalarni aniqlash → HTML sahifani yuklab olish → BeautifulSoup yordamida tahlil qilish → maqola havolalarini ajratish → maqola matnini olish → birlamchi tozalash → saqlash → dastlabki xom matnlar bazasini shakllantirish. Keyingi bosqichlarda ushbu xom ma’lumotlar to‘plamini deduplikatsiya, normalizatsiya, tokenizatsiya va janrlar bo‘yicha tasniflash orqali NLP modellarini o‘qitishga tayyor holatga keltirish mumkin.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan algoritm yordamida uchta 47ortal47n manbadan jami 1 386 ta navigatsiya sahifasi tahlil qilindi. Ushbu sahifalardan 18 784 ta maqola matni ajratib olindi va natijada 6 090 553 ta so‘zdan iborat birlamchi xom matnlar bazasi shakllantirildi. Manbalar bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlarning umumiy statistikasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Manbalar bo‘yicha yig‘ilgan birlamchi korpus statistikasi

Manba nomi	Sahifalar qamrovi	Maqolalar soni	Jami so‘zlar	Ulushi (%)
kknews.uz	613	9 808	3 343 302	54.9
yuz.uz	623	7 476	2 561 739	42.1
joqargikenes.uz	150	1 500	185 512	3.0
JAMI	1 386	18 784	6 090 553	100

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng 47ort ulush kknews.uz portaliga to‘g‘ri keladi: undan 9 808 ta maqola va 3 343 302 ta so‘z yig‘ildi. Ikkinchi yirik manba yuz.uz bo‘lib, undan 7 476 ta maqola va 2 561 739 ta so‘z ajratib olindi. Joqargikenes.uz hajm jihatidan kichikroq bo‘lsa-da, rasmiy-huquqiy va davlat boshqaruviga oid matnlarni o‘z ichiga olgani sababli korpusning uslubiy xilma-xilligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Umumiy hisobda har

bir maqolaga o'rtacha 324 ta so'z to'g'ri keladi, bu esa matnlarning NLP vazifalari uchun foydalanishga yaroqli ekanini ko'rsatadi.

Yig'ilgan ma'lumotlarning asosiy afzalligi – ularning turli uslubdagi manbalardan olinganidir. Kknews.uz 48ortal jurnalistik va ijtimoiy-siyosiy uslubdagi matnlarni, yuz.uz rasmiy va tahliliy materiallarni, joqargikenes.uz esa qonunchilik va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlarni qamrab oladi. Bunday xilma-xillik kelajakda qoraqalpoq tili uchun yaratiladigan til modellarining leksik va uslubiy qamrovini kengaytirishga yordam beradi.

Avvalgi tadqiqotlar ham kam resursli tillar uchun internetdan korpus yaratish samarali yo'l ekanini ko'rsatadi. Masalan, Swiss German tili uchun yaratilgan SwissCrawl korpusi internetdan avtomatik yig'ilgan 562 524 ta gap, 62 ming URL va 3 472 domen asosida shakllantirilgan [4]. Ushbu tajriba qoraqalpoq tili kabi raqamli resurslari kam bo'lgan tillar uchun ham ochiq veb-manbalar asosida korpus yaratish mumkinligini tasdiqlaydi.

Biroq web scraping orqali yig'ilgan matnlar doimo to'liq tayyor korpus hisoblanmaydi. Veb-sahifalarda navigatsiya menyulari, reklama bloklari, takroriy havolalar va qisqa texnik matnlar uchrashi mumkin. Shu sababli yig'ilgan ma'lumotlar dastlabki bosqichda xom korpus sifatida qaraladi. Laippala va boshqalar web-korpus yaratishda HTML sahifalardan olingan matnlarni tozalash, keraksiz qismlarni olib tashlash va asosiy matnni ajratish korpus sifatini oshirishda muhim ekanini ta'kidlaydi [5].

Shakllantirilgan 6 milliondan ortiq so'zli birlamchi xom korpus qoraqalpoq tili uchun muhim boshlang'ich resurs hisoblanadi. Ushbu xom ma'lumotlar to'plami kelgusida maxsus WordPiece yoki BPE tokenizatorlarini yaratish, mavjud ko'p tilli modellarni qoraqalpoq tiliga

moslashtirish, matn tasnifi, axborot qidiruv, mashinali tarjima va terminologik lug'at tuzish kabi NLP vazifalari uchun dastlabki asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, yirik Transformer modellarini to'liq o'qitish uchun yanada kattaroq va chuqur tozalangan korpus talab etiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda kam resursli tillar uchun veb-saytlardan matnli ma'lumotlarni avtomatik yig'ish masalasi qoraqalpoq tili misolida ko'rib chiqildi. Python dasturlash tili, Requests va BeautifulSoup kutubxonalari yordamida maqola matnlarini yig'ishga mo'ljallangan web scraping metodologiyasi ishlab chiqildi. Natijada kknews.uz, yuz.uz va joqargikenes.uz portallaridan 18 784 ta maqola va 6 090 553 ta so'zdan iborat birlamchi xom matnlar bazasi shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari ochiq internet manbalari kam resursli tillar uchun dastlabki matnli ma'lumotlar bazasini yaratishda samarali va amaliy jihatdan qulay manba ekanini ko'rsatdi. Yangilik portallari va rasmiy veb-saytlardan olingan matnlar qoraqalpoq tilining jurnalistik, ijtimoiy-siyosiy va rasmiy-huquqiy uslublarini qamrab olgani sababli kelajakdagi NLP tadqiqotlari uchun muhim leksik va uslubiy asos yaratadi. Ushbu yondashuv Swiss German va Punjabi kabi boshqa kam resursli tillar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tajribasi bilan ham mos keladi [4, 6].

Kelgusida yig'ilgan xom ma'lumotlar to'plamini chuqur preprocessing, deduplikatsiya, kodirovka normalizatsiyasi va jumalarga ajratish bosqichlaridan o'tkazish, shuningdek uni badiiy adabiyotlar, ilmiy matnlar va ta'limiy resurslar hisobiga kengaytirish maqsadga muvofiq. Xulosa qilib aytganda, veb-saytlardan avtomatik matn yig'ish qoraqalpoq tilining raqamli resurslarini kengaytirish va uni zamonaviy NLP texnologiyalariga integratsiya qilishda muhim dastlabki bosqich hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N., Uszkoreit J., Jones L., Gomez A.N., Kaiser Ł., Polosukhin I. Attention is All You Need. // *Advances in Neural Information Processing Systems*, 2017, 30. – P. 5998-6008.
2. Devlin J., Chang M.W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. // *arXiv preprint arXiv:1810.04805*. 2018.
3. Joshi P., Santy S., Budhiraja R., Bali K., Choudhury M. The State and Fate of Linguistic Diversity in the NLP World. // *Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics*, 2020. – P. 6282-6293.
4. Linder L., Jungo M., Hennebert J., Musat C., Fischer A. Automatic Creation of Text Corpora for Low-Resource Languages from the Internet: The Case of Swiss German. *Proceedings of the 12th Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2020)*, 2020. – P. 2706-2711.
5. Laippala V., Rönqvist S., Hellström S., Luotolahti J., Repo L., Salmela A., Skantsi V., Pyysalo S. From Web Crawl to Clean Register-Annotated Corpora. *Proceedings of the 12th Web as Corpus Workshop*, 2020. – P. 14-22.
6. Kahlon N.K., Singh W. Comparative Analysis of Web Scraping Tools for Low-Resource Language Text. // *International Journal of Engineering Trends and Technology*, 72(1), 2024. – P. 284-299.

**SUG'ORISH ISHLARIDA SUV TA'MINOTINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN
NOQAT'IY KONTROLLER ISHLAB CHIQISH**

Shomirzayev Bobir Urinbayevich – *texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

shobabur@mail.ru

Andijon davlat universiteti

**РАЗРАБОТКА ТОЧЕЧНЫХ КОНТРОЛЛЕРОВ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ВОДОСНАБЖЕНИЯ
В ИРРИГАЦИОННЫХ СИСТЕМАХ**

Шомирзаев Бобир Уринбаевич – *доктор философии по техническим наукам, доцент*

Андижанский государственный университет

**DEVELOPMENT OF POINT CONTROLLERS FOR OPTIMIZING
WATER SUPPLY IN IRRIGATION SYSTEMS**

Shomirzaev Bobir Urinbayevich – *Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate Professor*

Andijan State University

Tayanch so'zlar: MATLAB/Simulink, noaniq mantiq, suv ta'minotini optimallashtirish, noaniq kontroller, sug'orishni boshqarish, Mamdani algoritmi, qishloq xo'jaligi.

Rezyume. Maqolada Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonning suv tanqis mintaqalarida noaniq mantiqqa asoslangan sug'orishni boshqarish tizimi qishloq xo'jaligi sug'orish ishlarida suv ta'minotini optimallashtirish uchun taklif qilingan. Taklif etilayotgan tizim sug'orishni boshqarishdagi havo harorati, tuproq namligi, quyosh nurlanishi, shamol tezligi va suv bug'lanishidan iborat beshta asosiy agrometeorologik parametrlarni birlashtiradi. Taklif etilgan yondashuv atrof muhitga moslashuvchan va sug'orishni optimal boshqarish imkonini beradi, bu esa uni iqlim parametrlarining noaniqligi va o'zgaruvchanligi sharoitida qo'llash imkonini beradi.

Ключевые слова: MATLAB/Simulink, нечеткая логика, оптимизация водоснабжения, нечеткий контроллер, управление орошением, алгоритм Мамдани, сельское хозяйство.

Резюме. В статье предлагается система управления орошением на основе нечеткой логики для оптимизации водоснабжения в сельскохозяйственных районах Центральной Азии, включая Узбекистан, испытывающих дефицит воды. Предложенная система интегрирует пять основных агрометеорологических параметров, а именно температуру воздуха, влажность почвы, солнечную радиацию, скорость ветра и испарение воды, в управление орошением. Предложенный подход является адаптивным к окружающей среде и обеспечивает оптимальное управление орошением, что позволяет использовать его в условиях неопределенности и изменчивости климатических параметров.

Key words: MATLAB/Simulink, fuzzy logic, water supply optimization, fuzzy controller, irrigation control, Mamdani algorithm, agriculture.

Summary. This paper proposes a fuzzy logic-based irrigation control system for optimizing water supply in water-scarce agricultural areas of Central Asia, including Uzbekistan. The proposed system integrates five key agrometeorological parameters, namely, air temperature, soil moisture, solar radiation, wind speed, and water evaporation, into irrigation control. The proposed approach is adaptive to the environment and provides optimal irrigation control, making it suitable for use under conditions of uncertainty and variability of climatic parameters.

Kirish. Chuchuk suv tanqisligi XXI asrning eng dolzarb global muammolaridan biridir: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi tabiiy manbalardan olinadigan barcha suvning taxminan 70 foizini iste'mol qiladi [1]. Qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil iqlimga ega Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu ulush 85-90% ga etadi, bu esa sug'orishni optimallashtirishni mintaqaning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun strategik muhim vazifaga aylantiradi [2]. An'anaviy sug'orishni boshqarish usullari – tortishish kuchi bilan sug'oriladigan jo'yaklarni sug'orish va belgilangan suv ta'minoti jadvallari – suvdan foydalanish samaradorligining pastligi bilan tavsiflanadi (sug'orish samaradorligi ko'pincha 40-55% dan oshmaydi) va tuproq va iqlim sharoitidagi dinamik o'zgarishlarni hisobga olinmaydi [3]. Natijada, ko'plab sug'oriladigan maydonlarda ham kam, ham ortiqcha sug'orish kuzatiladi, bu esa o'simliklarning stressga uchrashiga, tuproqning sho'rlanishiga va samarasiz suv yo'qotishlariga olib keladi [4].

Neyron tarmoqlariga asoslangan kontrollerlar, genetik algoritmlar, mashinani o'rganish va noaniq mantiq kabi

ko'plab yondashuvlar orasida ikkinchisi agronomlarning noaniq, lingvistik jihatdan ifodalangan bilimlari bilan boshqaruv obyektining qat'iy matematik modelini tuzish talabisiz ishlash qobiliyati bilan ajralib turadi [5, 6]. 1965-yilda L.Zadeh tomonidan kiritilgan noaniq mantiq [7], ekspert bilimlarini lingvistik "AGAR-UNDA" qoidalari shaklida rasmiylashtirish va kirish ma'lumotlari noaniqligi sharoitida boshqaruv harakatlarini chiqarish imkonini beradi. Noaniq mantiq kontrollerlari issiqlik energetikasi, robototexnika, transport tizimlari va tibbiyotda muvaffaqiyatli qo'llaniladi; Biroq, ularning Markaziy Osiyoning qurg'oqchil mintaqalarining sug'orish tizimlarida amaliy qo'llanilishi yetarlicha o'rganilmagan.

Materiallar va usullar. Taklif qilinayotgan sug'orishni boshqarish tizimi uch darajali ierarxik arxitektura ega. Pastki daraja asosiy o'lchovni amalga oshiradigan va ma'lumotlarni oldindan qayta ishlaydigan dala sensori tugunlaridan iborat. O'rta qatlam – bu noqat'iy xulosa algoritmini amalga oshiradigan va ijrochi qurilmalar (solenoid klapanlar, nasos chastotasi konvertorlari) uchun boshqaruv signallarini yaratadigan markaziy hisoblash moduli (Raspberry Pi 4B). Yuqori qatlam – bulut

platformasi bo'lib, veb-interfeys orqali ma'lumotlarni arxivlash, vizualizatsiya qilish va masofadan monitoring qilishni ta'minlaydi.

Noqat'iy kontrollerni boshqaruv Mamdani algoritmi yordamida amalga oshiriladi, chunki u agronomik qo'llanmalarda eng keng tarqalgan va yaxshi talqin qilingan usul hisoblanadi. Xulosa chiqarish tizimi to'rt bosqichdan iborat: kirish fuzzifikatsiyasi, qoida bazasini qo'llash, agregatsiya va defuzzifikatsiya.

Lingvistik o'zgaruvchilar va a'zolik funktsiyalari

Kirish lingvistik o'zgaruvchilari: tuproq namligi (SM), taxminiy bug'lanish transpiratsiyasi (ET_0) va havo harorati (T). Chiqish o'zgaruvchisi sug'orish tezligi (IR). O'zgaruvchan xususiyatlar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval. Noqat'iy boshqaruvchining lingvistik o'zgaruvchilari

Lingvistik o'zgaruvchi	Term to'plami	Diapazon	A'zolik funktsiyasi
Tuproq namligi (SM)	Juda past / Past / O'rta / Yuqori / Juda yuqori	0–100 %	Trapetsiya shaklida
Bug'lanish Transpiretsiyasi (ET_0)	Past / O'rta / Yuqori	0–15 mm/kun	Uchburchak
Havo harorati (T)	Sovuq / O'rtacha / Issiq	–20 – 50°C	Gauss
Sug'orish intensivligi (IR)	Yo'q / Minimal / O'rta / Yuqori / Maksima	0–100 %	Trapetsiya shaklida

SM o'zgaruvchisi uchun agronomik diapazonlarning noaniq chegaralarini aks ettirish uchun trapezoidal a'zolik funktsiyalari (trapMF) tanlandi. Aniqroq jismoniy chegaralarga ega bo'lgan ET_0 uchun uchburchak a'zolik funktsiyalari (trimF) ishlatilgan. Havo harorati uchun harorat stressining o'simlik suvidan foydalanishga ta'sirining uzluksiz xususiyatini etarli darajada aks ettirish uchun Gauss a'zolik funktsiyasi (gaussMF) ishlatilgan. IR chiqish o'zgaruvchisi uchun a'zolik funktsiyalari trapezoidal bo'lib, silliq boshqaruvni ta'minlaydi. Rasman ravishda, trapezoidal a'zolik funktsiyasi quyidagi ifoda bilan belgilanadi:

$$\mu_{\text{trap}}(x; a, b, c, d) = \max(\min((x-a)/(b-a), 1, (d-x)/(d-c)), 0),$$

bu yerda a, b, c, d ekspertlar bilan birgalikda tahlil orqali aniqlangan trapetsiya parametrlari. Gauss a'zolik funktsiyasi:

$$\mu_{\text{gauss}}(x; c, \sigma) = \exp(-(x - c)^2 / (2\sigma^2))$$

bu yerda c - markaz va σ - a'zolik funktsiyasining kengligi.

Noaniq qoidalar bazasi

Qoidalar bazasi tajribaga ega sug'orish mutaxassislari bilan ekspert suhbatlari orqali ishlab chiqilgan. "AGAR (SM = A) VA (ET_0 = B) VA (T = C), UNDA (IR = D)" shaklidagi jami 125 ta qoida shakllantirildi, ular kirish o'zgaruvchilarining barcha kombinatsiyalarini ($5 \times 5 \times 5 = 125$) qamrab oladi. Qoidalarning tegishlilik to'plami 2-jadvalda ko'rsatilgan:

2-jadval. Noqat'iy boshqaruvchi bazasidan tanlangan qoidalar

SM	ET_0	T	(If...Then) qoidasi
Juda past	Yuqori	Issiq	IR = Maksimal
Juda past	O'rta	Issiq	IR = Yuqori
Past	Yuqori	Issiq	IR = Yuqori
Past	O'rta	O'rta	IR = O'rta
O'rta	O'rta	O'rtacha	IR = O'rta
O'rta	Past	Sovuq	IR = Minimal
Yuqori	Har qanday	Har qanday	IR = Yo'q / Minimal
O'ta yuqori	Har qanday	Har qanday	IR = Yo'q

Mantiqiy "VA" operatori min-AND operatsiyasi yordamida amalga oshiriladi va mantiqiy natija kesish operatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Natijalar barcha ishga tushirilgan qoidalar bo'yicha max-OR operatsiyasi yordamida umumlashtiriladi.

Defazzifikatsiya – noqat'iy chiqish to'plamini aniq raqamli boshqaruv harakatiga aylantirish – og'irlik markazi (COG) usuli yordamida amalga oshiriladi:

$$IR^* = \int \mu_{IR}(x) \cdot x \, dx / \int \mu_{IR}(x) \, dx,$$

bu yerda IR^* defazzifikatsiya qilingan sug'orish intensivligi qiymati va $\mu_{IR}(x)$ chiqish olamidagi agregatsiyalangan noqat'iy to'plamning a'zolik funktsiyasidir.

COG usuli boshqaruvning ravonligini ta'minlaydi va agregatsiyalangan noqat'iy to'plamning shaklini umuman hisobga oladi, bu ayniqsa bir nechta faol qoidalar bir-birining ustiga chiqqanda muhimdir.

FLC dasturiy ta'minoti MATLAB R2023a da Simulink muhitida Fuzzy Logic Toolbox va Fuzzy Logic Controller bloki yordamida ishlab chiqilgan. Boshqaruv obyekti – tuproq profilining agrogidrologik modeli - ildiz zonasida (0–80 sm) suv balansi tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$dSM/dt = (IR + P - ET_a - D) / (Z_r \rho_b),$$

bu yerda SM - tuproqning hajmli namligi (m^3/m^3); IR - sug'orish intensivligi (mm/kun); P - yog'ingarchilik (mm/kun); ET_a - haqiqiy bug'lanish (mm/kun); D - drenaj oqimi (mm/kun); Z_r - ildiz zonasining chuqurligi (0,8 m); ρ_b - tuproqning massaviy zichligi ($1350 \, kg/m^3$).

FLC ning kundalik ishlash dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, kontroller ko'p faktorli noaniqlik holatlarida oddiy qarorlar qabul qilgan: masalan, $ET_0 > 10$ mm/kun bo'lgan issiq kunlarda tizim kunduzgi bug'lanishni qoplash uchun past intensivlikdagi kechki sug'orishni ($IR \approx 30-40\%$) boshlagan, yog'ingarchilik bashorat qilinganida esa ertalabki sug'orish bekor qilingan

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, taklif qilingan noqat'iy kontroller sug'orish suvini sezilarli darajada tejashga imkon beradi (32,6%) va shu bilan birga agronomik ko'rsatkichlarni yaxshilaydi. Bu kirish o'zgaruvchilarining yanada kengroq to'plami, shuningdek, sinovlar qurg'oqchil iqlim sharoitida optimallashtirish salohiyati yuqori bo'lgan sharoitda o'tkazilganligi bilan

izohlanadi. FLC ning PID ga nisbatan asosiy afzalligi shundaki, u FLC yaqinlashib kelayotgan yog'ingarchilik haqida signal qabul qilinganda rejalashtirilgan sug'orishni to'g'ri bekor qiladi, PID kontrolleri esa shunga o'xshash vaziyatlarda ortiqcha sug'oradi.

FLC ni murakkabroq usullar - neyron tarmoqlari, AN-FIS va chuqur o'rganish algoritmlari bilan taqqoslaganda, yuqori sifatli nazoratga erishish uchun ikkinchisi katta miqdordagi o'quv ma'lumotlarini talab qilishini ta'kidlash muhimdir, noqat'iy kontroller esa to'g'ridan-to'g'ri mutaxassis bilimlariga asoslanib amalga oshirilishi va keyinchalik aniqlashtirilishi mumkin. Bu, ayniqsa, tarixiy agrometeorologik ma'lumotlar ko'pincha yo'q yoki ishonchsiz bo'lgan rivojlanayotgan qishloq xo'jaligi mintaqalari uchun juda muhimdir.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, qisqa muddatli gidrometeorologik bashorat qilish algoritmlarini bashoratli boshqaruv blokiga integratsiya qilish suv sarfini 8-12% ga kamaytiradi.

Xulosa. Beshta agrometeorologik parametrlarni: tuproq namligi, bug'lanish, havo harorati, quyosh nurlanishi va shamol tezligini hisobga oladigan noqat'iy sug'orish kontrolleri ishlab chiqilgan bo'lib, tizim 125 ta noqat'iy qoidalar va Mamdani algoritmi yordamida amalga oshiriladi. Taqdim etilgan natijalar noqat'iy kontroller qurg'oqchil hududlarda aqlli sug'orish uchun amaliy va tejamkor vosita ekanligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan tizim boshqariladigan obyektning aniq matematik modelisiz ishlashi mumkin, bu uning turli tuproq va iqlim sharoitlarida qo'llanilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. FAO (2020). The State of Food and Agriculture 2020. FAO, Rome. DOI: 10.4060/cb1447en
2. Abdullaev I., Molden D. Spatial and temporal variability of water productivity in the Syr Darya Basin, Central Asia. // Water Resources Research, 40(8), 2004.
3. Pereira L.S., Oweis T., Zairi A. Irrigation management under water scarcity. // Agricultural Water Management, 57(3), 2002. – P. 175-206.
4. Gleick P.H. Global freshwater resources: soft-path solutions for the 21st century. // Science, 302(5650), 2003. – P. 1524-1528.
5. Zadeh L.A. Fuzzy sets. // Information and Control, 8(3), 1965. – P. 338-353.
6. Ross T.J. Fuzzy Logic with Engineering Applications (3rd ed.). – Wiley, Chichester, 2010
7. Mamdani E.H., Assilian S. An experiment in linguistic synthesis with a fuzzy logic controller. // International Journal of Man-Machine Studies, 7(1), 1975. – P. 1-13.

**TERMIK ISHLOVNING NODIR YER ELEMENTLARI BILAN LEGIRLANGAN
KREMNIY ELEKTROFIZIK XOSSALARIGA TA'SIRI****Yusupov Oralbay Naurizbaevich** – *assistent o'qituvchi*yuon2072@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***ВЛИЯНИЕ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ НА ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КРЕМНИЯ,
ЛЕГИРОВАННОГО РЕДКОЗЕМЕЛЬНЫМИ ЭЛЕМЕНТАМИ****Юсупов Оралбай Наурызбаевич** – *ассистент преподаватель**Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***INFLUENCE OF THERMAL TREATMENT ON THE ELECTROPHYSICAL PROPERTIES
OF SILICON STRUCTURES WITH RARE-EARTH ELEMENTS****Yusupov Oralbay Naurizbaevich** – *assistant teacher**Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch so'zlar: yarimo'tkazgich, kremniy, n-Si, termik ta'sirlar effekti, elektrofizik xossalari, kremniyni o'stirish jarayonida Sm, Gd va Yb bilan legirlash, kremniyga termik ishlov berish.

Rezyume. Maqolada samariy, gadoliniiy va itterbiy kabi nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy monokristallarida yuqori haroratli termik ishlov berish natijasida sodir bo'ladigan elektrofizik jarayonlar, chuqur sathlarning shakllanishi va texnologik kirishmalar (kislorod va uglerod) bilan o'zaro ta'sir mexanizmlari o'rganilgan. Choxralskiy usulida o'stirilgan hamda diffuziya yo'li bilan legirlangan namunalarni neytron-aktivatsion tahlil, IQ-spektroskopiya, sig'imning izotermik relaksatsiyasi va to'rt zondli usullari yordamida o'rganildi.

Ключевые слова: полупроводник, кремний, n-Si, эффекты термических воздействий, электрофизические свойства, легирование кремния Sm, Gd и Yb при выращивании, термическая обработка кремния.

Резюме. В статье говорится об изучении электрофизических процессов, формирования глубоких уровней и механизмов взаимодействия с технологическими примесями (кислородом и углеродом), происходящих в результате высокотемпературной термической обработки монокристаллов кремния, легированных редкоземельными элементами, такими как самарий, гадолиний и иттербий. Образцы, выращенные методом Чохральского и легированные диффузией, изучались с помощью нейтронно-активационного анализа, ИК-спектроскопии, изотермической релаксации ёмкости и четырехзондовых методов.

Key words: semiconductor, silicon, n-type silicon, the influence of thermal effects, electrophysical properties, structures with Sm, Gd, and Yb during growth, silicon during heat treatments.

Summary. The article to study the mechanisms of electrophysical processes, deep level formation, and interaction with technological impurities (oxygen and carbon) occurring during high-temperature heat treatment in silicon monocrystals doped with rare earth elements such as samarium, gadolinium, and ytterbium. Samples grown by the Chohralski method and doped by diffusion were studied using neutron activation analysis, IR spectroscopy, isothermal capacitance relaxation, and four-probe methods.

Kirish. Nodir yer elementlari yarimo'tkazgich fizikasi va mikroelektronika sohasida tobora muhim o'rin egallayotgan materiallar sifatida dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari hamda ilmiy markazlari tamonidan katta qiziqish bildirilmoqda. NYE bilan legirlangan kremniy, ayniqsa, Si asosidagi optoelektronikada – yorug'lik chiqaruvchi diodlar (LED), foton detektorlar va integrallashgan fotonik qurilmalar ishlab chiqarishda istiqbolli material sifatida keng e'tiborga sazovor bo'lmoqda [1-3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu ishda samariy, gadoliniiy va itterbiy kabi nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy monokristallarida yuqori haroratli termik ishlov berish natijasida sodir bo'ladigan elektrofizik jarayonlar, chuqur sathlarning shakllanishi va texnologik kirishmalar (kislorod va uglerod) bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish maqsad qilingan. Choxralskiy usulida o'stirilgan hamda diffuziya yo'li bilan legirlangan namunalarni neytron-aktivatsion tahlil, IQ-spektroskopiya, sig'imning izotermik relaksatsiyasi va to'rt zondli usullari yordamida o'rganildi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eritmadan o'stirish jarayonida kremniyga kiritilgan nodir yer elementlari atomlari, odatda kristall panjarada elektr

jihatdan faol bo'lmagan holatda bo'ladi [2-3]. Nodir yer elementlari bilan legirlangan kremniy yorug'lik manbalari sifatida kremniy optoelektronikasi uchun istiqbolli material sifatida tadqiqotchilarning katta e'tiborini tortmoqda. Ma'lumki, kremniydagi NYE kirishmalari strukturalarning optik xossalari namoyon bo'lishi, NYE optik va elektr faol markazlar spektriga, ularning umumiy konsentratsiyasiga hamda nazorat qilib bo'lmaydigan texnologik kirishmalar va material hajmidagi termik nuqsonlar bilan o'zaro ta'siriga bog'liqdir [4-6]. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ushbu kirishma atomlarini faollashtirish va ularning kremniy xossalari ta'sirini ta'minlash uchun qo'shimcha tashqi ta'sirlar masalan, termik ishlov berish yoki nurlantirish zarur hisoblanadi [6-8].


Natijalar va muhokama. Neytron faollashtirilgan tahlil yordamida nodir yer elementlarining kremniyda borligi va miqdori aniqlandi, Si hajmida haqiqatdan ham nodir yer elementlari atomlari ancha katta konsentratsiyalarda 10^{15} dan 10^{19} sm⁻³ gacha mavjudligi aniqlandi. Sig'imli o'lchashlar o'stirish jarayonida kiritilgan Sm, Gd va Yb, boshqa NYE kabi Si hajmida elektr faol bo'lmisligi ko'rsatildi. n-Si taqiqlangan zonasining quyi yarmida joylashgan chuqur sathlarni (ChS) o'rganish uchun optik

qayta zaryadlash usuli qo'llanildi. Solishtirma qarshiligi $\rho=10\div100$ Om·sm bo'lgan, Choxralskiy usulida <111> yo'nalishda o'stirish jarayonida Sm, Gd va Yb bilan legirlangan n-Si monokristallari namunalari tadqiq qilindi. Namunalar shaybadan o'lchami $12\times6\times1$ mm bo'lgan parallelepipedlar shaklida kesib olindi. Nazorat namunalari sifatida xuddi shunday solishtirma qarshilikka ega bo'lgan, ammo NYE kirishmalarisiz kremniy namunalari ayni sharoitlarda o'stirildi.

Kremniy tarkibidagi nodir yer elementlari konsentratsiyasi 10^{16} sm⁻³ dan oshganda, ikkinchi fazaning shakllanishi kuzatiladi [9]. Elektr o'lchovlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, Sm, Gd va Yb kremniyda dastlabki holatida elektr jihatdan nafaol bo'ladi. Namunalar 900–1200°C harorat oralig'ida havo muhitida va vakuumli ampulalarda 0,5÷30 soat davomida termik ishlov berilib, so'ngra toblanganda yoki sekin sovitilganda, Si<NYE> namunalarida kislorodning pretsipitatsiyasi nazorat namunalariga qaraganda kamroq bo'ladi. Sig'imning izotermik relaksatsiyasi natijalariga ko'ra, termik ishlov berish jarayonida Sm, Gd va Yb kremniyda nazorat qilib bo'lmaydigan kirishmalar va strukturaviy nuqsonlar uchun getter vazifasini o'taydi.

Nodir yer elementi kirishmasi kiritilgan va nazorat kremniy namunalarini to'rt zondli usulda solishtirma qarshiliklarini o'lchash ishlari olib borildi. Nodir yer elementi mavjud namunalariga turli rejimlar, ya'ni termik ishlov berish harorati va sovutish rejimlarida ishlov berilgan kremniyda ρ solishtirma qarshilikni o'lchashlar termik ishlov berish vaqti oshishi bilan solishtirma qarshilik oshishini ko'rsatdi. 1-rasmda n-Si<Gd> namunalarida solishtirma qarshilikning 1000°C (2 egri chizig'i), 1100 °C (3 egri chizig'i), 1200°C (4 egri chizig'i) termik ishlov berish vaqtining solishtirma qarshilikka bog'liqlik grafigi keltirilgan. Nodir yer elementi kirishmali namunalarda kremniy solishtirma qarshiligining oshishi turli xil yuqori haroratli termik ishlov berishlarda kompensatsiyalovchi markazlarning kiritilishiga dalolat beradi. Shunday qilib, kremniydagi nodir yer elementi atomlarining yuqori haroratli termik ishlov berishda faollashishi natijasida hosil bo'layotgan chuqur energetik sathlar akseptor tabiatga egaligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Nazorat namunalarini yuqori haroratli termik ishlov berish natijasida solishtirma qarshilikning nodir yer elementi kiritilgan namunalar kabi o'zgarishi kuzatilmadi (1 rasm, 1 egri chizig'i).



1 rasm. n-Si<Gd> namunalar solishtirma qarshiliklarining YHIB davomiyligiga bog'liqligi T_{YHIB} : 2) 1000°C 3) 1100°C va 4) 1200°C, 1-nazorat Si


Gd bilan kremniyni legirlash jarayoni 1200°C da 50 soat oralig'ida diffuziya qilish orqali amalga oshirildi. IQ yutilish spektrlari tadqiq qilish uchun boshlang'ich namuna sifatida Choxral usulida o'stirilgan n va p-tip o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kremniy namunasi ishlatildi. Bunda kislorod va uglerodning optik faol konsentratsiyalari mos ravishda quyidagi qiymatlarga $N_o^{opt} = 6 \cdot 10^{17} \div 1.2 \cdot 10^{18}$ sm⁻³ va $N_c^{opt} = 2 \cdot 10^{16}$ sm⁻³ ega. Boshlang'ich namunalarning solishtirma qarshiliklar $10\div100$ Om·sm oralig'ida bo'lib, qo'yilgan masalaning shartiga ko'ra sayqallangan namunalarning qalinligi 1÷1,5 mm ni tashkil etadi.

Optik faol kislorod (N_o^{opt}) va uglerodning (N_c^{opt}) konsentratsiyalarni aniqlash uchun, IQ yutilish spektrlarni 1100 sm⁻¹ (kislorod polosasi) va 610 sm⁻¹ (uglerod polosasi) 300 K da o'lchandi. Nazorat namuna sifatida xuddi shunday qalinlikdagi kislorodsiz namunalar olinib, ulardagi kislorod va uglerodning optik faol konsentratsiyalari mos ravishda $N_o^{opt} \leq 10^{16}$ sm⁻³, $N_c^{opt} = 5 \cdot 10^{15}$ sm⁻³ teng bo'lgan namunalar ishlatildi.


Boshlang'ich namunalarda N_o^{opt} va N_c^{opt} konsentratsiyalari o'lchab olingandan so'ng, o'ta toza metall Gd yuqori vakuumda kremniy siriga purkalib, yuqori haroratli diffuziya jarayoni amalga oshirildi. Diffuziyadan so'ng, xuddi shu namunalarning N_o^{opt} va N_c^{opt} lari IQ yutilish spektri orqali o'lchandi. Ekperimental olingan natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kremniyga gadoliniy kiritilgan n va p tip namunalarda optik faol kislorodning konsentratsiyasi, kontrol namunalarga nisbatan (xuddi shu sharoitda, Gd diffuziya qilingan haroratda) 10 ÷ 20 % kamayishi aniqlandi. Bundan tashqari, $\lambda = 16,4$ mkm to'lqin uzunligida, optik faol uglerodning IQ yutilish spektri o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, legirlangan va kontrol namunalarida optik faol uglerod konsentratsiyasining kamayishi kuzatilmadi. Yuqori haroratli ishlov berish orqali Gd bilan legirlangan kremniydagi chuqur sathlarning energetik spektri o'rganilganda, chuqur sathlarning hosil bo'lish effektivligi dastlabki kremniydagi texnologik kirishmalar kislorod va uglerodning miqdoriga bog'liq ekan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Gd mavjud bo'lgan dastlabki kremniyda, kislorod miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, yuqori haroratli ishlovdan so'ng, chuqur sathlarning konsentratsiyasi shunchalik ko'p bo'lar ekan. Bu effekt orqali haqiqatdan nodir yer elementlar bilan texnologik kirishmalar o'zaro ta'sirlashar ekan degan fikrga olib kelindi. Mazkur farazni tekshirish uchun, biz o'stirish paytida Gd kiritilgan dastlabki kremniy namunalari va ularga turli xil yuqori haroratli ishlov berilgandagi IQ yutilish spektrlarni o'rgandik.

Olingan natijalarga ko'ra, Gd bilan legirlangan kremniyga yuqori haroratli ishlov berilgandan optik faol kislorodning konsentratsiyasi Gd atomlarining miqdori va yuqori haroratli ishlov temperaturasiga qarab 10-20 % oshar ekan (2-rasm). Temperatura qanchalik yuqori bo'lsa, mazkur effekt shunchalik kuchli namoyon bo'lar ekan.



2-rasm. O'stirish jarayonida legirlangan n-Si<Gd> namunalarning IQ nurlar yutish spektrlari 1) 1200°C 2) 1000°C, 3) nazorat namuna.




3-rasm. Diffuziya jarayonida n-Si<Gd> kiritilgan namunalarning IQ yutilish spektrlari. 1) 1200°C, 2) 1000°C, 3) nazorat namuna.

Si<N_{YE}> namunalarda energiyalari $E_c - 0.17 \text{ eV}$, $E_c - 0.20 \text{ eV}$, $E_c - 0.32 \text{ eV}$, $E_c - 0.41 \text{ eV}$, $E_v + 0.4 \text{ eV}$ bo'lgan chuqur sathlar (ChS) konsentratsiyasi termik ishlov berishning tegishli bosqichlaridan o'tgan nazorat namunalaridagiga qaraganda ancha kamdir. 1373–1473 K harorat oralig'ida 2 soat davomida termik ishlov berilib, so'ngra moyda yoki sekin sovitilganda barcha Si<N_{YE}> namunalarda kompensatsiya kuzatiladi. Shu sababli, 77–300 K harorat oralig'ida sig'imning izotermik relaksatsiyasi usuli yordamida namunalarda birorta ham markazning qayta zaryadlangani aniqlanmadi ($N_d > 5 \cdot 10^{11} \text{ sm}^{-3}$), ya'ni, konsentratsiyasi $N_{N_{YE}} \geq 5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan Si<N_{YE}> asosida tayyorlangan Shottki to'siqlarining sig'imi $C_b \sim 80 \text{ K}$ haroratgacha berilgan kuchlanish kattaligiga bog'liq emas. Konsentratsiyasi $N_{N_{YE}} \geq 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan namunalar uchun esa bu holat 100 K haroratgacha sodir bo'lmaydi, ya'ni $C_b \approx C_h$, bu yerda C_h – namunaning geometrik sig'imi. Bunda tez sovitilgan namunalarda kompensatsiya darajasi yuqori bo'lgan.


1173 K va undan yuqori haroratda termik ishlov berish tadqiq etilayotgan NYE kirishmalari bilan legirlangan Si namunalarda ionlashgan markazlar konsentratsiyasining $3 \cdot 10^{14}$ dan $2,6 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamayishiga olib keladi. Biroq, Si ning taqiqlangan zonasida NYE bilan bog'liq chuqur sathlar hosil bo'lishi aniqlanmadi, garchi ularning bilvosita ta'siri kuzatilgan aksariyat chuqur sathlar konsentratsiyasiga ham bog'langanligi ma'lum bo'ldi. Binobarin, Sm, Gd va Yb Si ning taqiqlangan zonasi quyi qismida mayda akseptor sathlarni hosil qiladi deb taxmin qilish mumkin va bu ularning akseptor tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Nazorat namunalarda 1173–1473 K harorat oralig'ida termik ishlov berilgandan so'ng, parametrlari adabiyot ma'lumotlariga [10] mos keladigan va energiyalari $E_c - (0.17 - 0.22) \text{ eV}$, $E_c - 0.4 \text{ eV}$, $E_c - 0.54 \text{ eV}$, $E_v + 0.2 \text{ eV}$, $E_v + 0.4 \text{ eV}$ bo'lgan chuqur sathlar aniqlandi. Bu termik markazlarning barchasining konsentratsiyasi $\sim 5 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ dan oshmadi.

Havosi so'rib olingan n-Si<N_{YE}> ampulalaridagi namunalarni termik ishlov berilgan namunalarga nisbatan, havo muhitida toblangan namunalardan farqli o'laroq, n-Si nazorat namunalarda kuzatilgan barcha CHSlar aniqlanadi. Bunda ularning konsentratsiyasi, odatda, $\sim (2-3) \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ dan oshmaydi, elektronlarni tutib olish kesimi $\sigma_n \sim 10^{-14} \text{ sm}^{-2}$ bo'lgan $E_v + 0.4 \text{ eV}$ CHSga ega markaz bundan mustasno. Uning konsentratsiyasi nazorat namunalarda $(3-4) \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ga yetsa, NYE bilan legirlangan kremniyda taxminan $1 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$ ni tashkil etadi. Ma'lumki, bu donor CHS temir kirishmasi bilan bog'lanadi [10].

Shunday qilib, Sm, Gd va Yb kirishmalari, tez diffuziyalanuvchi nazorat qilinmaydigan Au va Fe bilan bog'liq bo'lgan chuqur energetik sathlarning hosil bo'lishini, shuningdek, boshqa termik markazlarning energiyalari $E_c - 0.17 \text{ eV}$ (4-rasm) va $E_c - 0.4 \text{ eV}$ (b-rasm) bo'lgan hamda konsentratsiyalari termik ishlov berish haroratiga va Si tarkibidagi NYE ning mavjudligiga bog'liq bo'lgan markazlarning paydo bo'lishini kamaytiradi [8,11–14]. Kremniyda Sm, Gd va Yb mavjudligi ushbu termik markazlarning konsentratsiyasini 2–4 baravar kamaytiradi va yuqori haroratli termik nuqsonlarni kamaytiradi. Si tarkibida NYE kirishmalarining konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, namunalarning kompensatsiya darajasi va termik nuqsonlarni kamayish darajasi shunchalik katta bo'ladi.



4-rasm. n – Si va n – Si < N_{YE} > na'munalarida $E_c - 0.17 \text{ eV}$ sathli termik markaz konsentratsiyasining termik ishlov temperaturasi bog'lanishi 1 – n – Si, 2 – n – Si < Sm >, 3 – n – Si < Gd >. $N_{N_{YE}} = 5 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$



5-rasm. $n - Si$ va $n - Si < NYE >$ namunalarda $E_c - 0.4 eV$ sathli termik markaz konsentratsiyasining termik ishlov temperaturasi bogʻlanishi 1 – $n - Si$, 2 – $n - Si < Sm >$, 3 – $n - Si < Gd >$. $N_{NYE} = 5 \cdot 10^{18} sm^{-3}$

Xulosa. Oʻstirish jarayonida Sm, Gd va Yb kirishmalari bilan legirlangan Si dagi asosiy boʻlmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqti (τ_{nzt}) ni oʻlchash natijalari shuni koʻrsatadiki, bu kirishmalarning mavjudligi namunalarning termik ishlov berishga chidamliligini oshiradi va shu bilan birga τ_{nzt} qiymatlari nazorat namunalari nisbatan 2–4 barobar ortadi. Termik nuqsonlarning kamayishi Si hajmining nazorat qilib boʻlmaydigan tez diffuziyalanuvchi kirishmalardan tozalanishi, ularning Sm, Gd va Yb kirishmalari yordamida geterlanishi yoki akseptor tabiatli NYE+nuqson komplekslarining hosil boʻlishi, shuningdek, Si dagi NYE ning kislorod bilan faol oʻzaro taʼsiri bilan izohlanishi mumkin. Si<NYE> namunalari IQ-yutilishni tadqiq qilish natijasida Si da NYE ning kislorod bilan oʻzaro taʼsiri NYE konsentratsiyasi $N_{NYE} \geq 5 \cdot 10^{17} sm^{-3}$ dan boshlanishi aniqlandi. Bu esa, Si hajmida nazorat qilib boʻlmaydigan va texnologik kirishmalar uchun stok vazifasini bajaruvchi NYE ning ikkinchi faza shakllanishi hamda ularning silitsidlari mavjudligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Милнс Л. Примеси с глубокими уровнями в полупроводниках. – Москва: «Мир», 1977.
2. Бургуэн Ж. Ланно М. Точечные дефекты в полупроводниках. Теория. – Москва: «Мир», 1984.
3. Соболев Н.А. Кремний, легированный эрбием - новый полупроводниковый материал для оптоэлектроники. – Москва: // Российский химический журнал, 2001, 5-6(XLV). – С. 95-101.
4. Шаховцов В.И., Шиндич В.Л. Особенности поведения в полях ядерной реакции кремния, легированного редкоземельными элементами. В. кн. Радиационные эффекты в твердых телах. – Киев: «Наукова думка», 1977. – С. 88-102.
5. Карпов Ю.А., Петров В.В., Просолович В.С. Фотопроводимость и электрические свойства Si<Er>, облученного γ -квантами ^{60}Co . – Санкт-Петербург: // Физика и техника полупроводников, 1982, 9(16). – С.1676-1678.
6. Назыров Д.Э., Регель А.Р., Куликов Г.С. Кремний, легированный редкоземельными элементами: Препринт ЛФТИ им. А.Ф.Иоффе АН СССР №1122. – Л.: 1987.
7. Фистуль В.И. Атомы легирующих примесей в полупроводниках. – Москва: «Физматлит», 2004.
8. Libertino S. The effects of oxygen and defects on the deep-level properties of Er in crystalline Si. // J. Appl. Phys. 1995. Vol. 78. №6. – P. 3867-3873.
9. Wong E., Liu H., Man Sh.Q. et al. Erbium doping in silicon by thermal in diffusion. // Jpn. J. Appl. Phys. 1998, Vol. 37, № 6B. – P. 3669-3672.
10. Назыров Д.Э. Геттерирование золота самарием и гадолинием в кремнии. // Электронная обработка материалов, 2007, № 3(245). – С. 77–82.
11. Назыров Д.Э., Базарбаев М.И., Иминов А.А. Диффузия иттрия в кремнии. // Физика и техника полупроводников. 2006, Т. 40, Вып. 7. – С. 788-789.
12. Назыров Д.Э. Диффузия иттербия в кремнии. // Физика и техника полупроводников. 2003, Т. 37, Вып. 9. – С. 1056-1057.
13. Назыров Д.Э., Куликов Г.С., Малкович Р.Ш. Диффузия эрбия и тулия в кремнии. // Физика и техника полупроводников, 1991, Т. 25, Вып. 9. – С. 788-789.
14. Зайнабидинов С., Назыров Д.Э. Диффузия, растворимость и электрические свойства скандия и празеодима в кремнии. // Изв. вузов. Физика, 2007, № 1. – С. 75-77.

Biologiya. Zoologiya. Ximiya. Ekologiya

**GAH-1 HÁM GAH-2 REAGENTLERI JÁRDEMINDE Fe(III), Hg(II) HÁM Pb(II)
IONLARÍN SPEKTROFOTOMETRIYALÍQ ANÍQLAW**

Askarova Maral Raxmetovna – *assistent oqıtıwshı*

asqarovamaral@gmail.com

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

**СПЕКТРОФОТОМЕТРИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИОНОВ Fe (III), Hg (II) И Pb (II)
РЕАГЕНТАМИ GAH-1 И GAH-2**

Аскарова Марал Рахметовна – *ассистент преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**SPECTROPHOTOMETRIC DETERMINATION OF Fe (III), Hg (II), AND Pb (II)
IONS USING GAH-1 AND GAH-2 REACTIVES**

Maral Rakhmetovna Askarova – *assistant teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: GAH-1, GAH-2, spektrofotometriya, temir(III), simob(II), qo‘rg‘oshin(II), kompleks birikmalar.

Rezyume. Maqolada GAH-1 va GAH-2 reagentlari yordamida Fe(III), Hg(II) va Pb(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlashning optimal sharoitlari o‘rganildi. Komplekslarning tarkibi izomolyar seriyalar va Asmus usullari yordamida aniqlandi. Reagentlarning dissotsiyanish konstantalari, molyar so‘ndirish koeffitsiyentlari, muvozanat va barqarorlik konstantalari hisoblandi. Ishlab chiqilgan metodika sun‘iy aralashmalar hamda tabiiy suv namunalari tarkibida muvaffaqiyatli qo‘llanildi.

Ключевые слова: GAH-1, GAH-2, спектрофотометрия, железо(III), ртуть(II), свинец(II).

Резюме. В статье исследованы оптимальные условия спектрофотометрического определения ионов Fe(III), Hg(II) и Pb(II) с использованием реагентов GAH-1 и GAH-2. Определены состав комплексов, константы диссоциации реагентов, коэффициенты молярного поглощения, константы равновесия и устойчивости. Разработанная методика успешно применена для анализа искусственных смесей и природных вод.

Key words: GAH-1, GAH-2, spectrophotometry, iron(III), mercury(II), lead(II), complex compounds.

Summary. The article investigates the optimal conditions for spectrophotometric determination of Fe(III), Hg(II), and Pb(II) ions using GAH-1 and GAH-2 reagents. The composition of the complexes was established by isomolar series and Asmus methods. Dissociation constants, molar absorptivity coefficients, equilibrium constants, and stability constants were determined. The developed method was successfully applied to synthetic mixtures and natural water samples.

Kirisiw. Házirgi waqıtta qorshaǵan ortalıqtıń awır metallar menen pataslanıwı global ekologiyalıq máselelerdiń biri bolıp tabıladı. Fe(III), Hg(II) hám Pb(II) ionları tábiyyı suwlarda, óndiris shıǵındılarında hám biologiyalıq sistemalarda jıynalıp, adam organizmine hám ekologiyalıq sistemalarǵa úlken qáwip keltiredi. Sonlıqtan bul metallardıń az muǵdarların anıq hám selektiv anıqlaw analitikalıq ximiyanıń aktual wazıypalarına kiredi [1-3].

Spektrofotometriyalıq analiz usılları joqarı sezgirliǵı, salıstırmalı arzanlıǵı hám analizdiń tez orınlanıwı sebepli keń qollanıladı [4, 5]. Sońǵı jıllarda gossipol tuwındıları negizinde jaratılǵan organikalıq reagentler awır metall ionların anıqlawda perspektivalı analitikalıq reagentler retinde qızıǵıw oyatpaqta [6, 7].

Gossipol negizinde sintezlengen GAH-1 hám GAH-2 reagentleri quramında donor atomlardıń bolıwı olarǵa metall ionları menen turaqlı kompleksler payda etiw qásiyetin beredi. Bul reagentlerdiń analitikalıq múmkinshiliklerin úyreniw ekologiyalıq monitoring sistemaları ushın jańa metodikalardı jaratıwda áhmiyetli esaplanadı [8].

Bul jumıstıń maqseti GAH-1 hám GAH-2 reagentleri járdeminde Fe(III), Hg(II) hám Pb(II) ionların spektrofotometriyalıq anıqlawdıń optimal sharayatların anıqlaw, komplekslerdiń fizikalıq-ximiyalıq parametrlerin esaplaw hám metodikanı real obyektlerge qollawdan ibarat.

Materiallar hám metodlar. Izertlewlerde GAH-1 hám GAH-2 reagentleriniń 0,01 % li eritpeleri qollanıldı. Fe(III), Hg(II) hám Pb(II) ionlarınıń standart eritpeleri analiz ushın tayarlandı. Optikalıq ólshepler UV-Vis Specord M-50 spektrofotometrinde alıp barıldı. Kompleks payda bolıw reakciyalarınıń optimal sharayatların belgilew ushın eritpe ortalıǵı, reagent muǵdarı, pH mánisi hám bufer sistemaları úyrenildi.



Komplekslerdiń quramın anıqlaw ushın izomolyar seriyalar metodı hám Asmustıń tuwrı sızıqlar metodı qollanıldı. Reagentlerdiń dissociyanıw konstantaları Komar usılı menen, komplekslerdiń haqıyqıy molyar sóndiriw koefficientleri Tolmachyovtıń grafik metodı menen, al turaqlılıq konstantaları Babko usılı járdeminde anıqlandı.

Nátiyjeler hám talqılaw. GAH-1 hám GAH-2 reagentleriniń Fe(III), Hg(II) hám Pb(II) ionları menen kompleks payda etiw qásiyetleri spektrofotometriyalıq usıl menen úyrenildi.

GAH-1 reagenti menen payda bolǵan kompleksler ushın absorbcıya maksimumları Fe(III) ushın 495 nm, Hg(II) ushın 470 nm hám Pb(II) ushın 450 nm ge teń boldı. GAH-2 reagenti menen bul kórsetkishler sáykes túrde 490, 465 hám 445 nm ge teń ekenligi (1-keste,1-grafik) anıqlandı.

1-keste. Optik tıǵızlıqtıń nur filtrine baylanıslılıǵı
($n=5$, $l=1$, $C_R=0,01\%$, $C_{Me}=30$ mkg/ml, UV-Vis Srecord
M-50 spektrofotometr)



λ	A(GAH-1)			λ	A(GAH-2)		
	Fe(III)	Hg(II)	Pb(II)		Fe(III)	Hg(II)	Pb(II)
360	0,014	0,011	0,024	360	0,014	0,011	0,024
400	0,024	0,017	0,057	400	0,024	0,017	0,057
450	0,061	0,094	0,120	445	0,061	0,094	0,123
470	0,086	0,118	0,108	465	0,086	0,120	0,101
495	0,115	0,099	0,081	490	0,118	0,102	0,084
540	0,074	0,061	0,054	540	0,076	0,064	0,056
590	0,054	0,038	0,038	590	0,055	0,039	0,040
640	0,041	0,027	0,028	640	0,043	0,027	0,029
690	0,034	0,020	0,018	690	0,035	0,022	0,019
730	0,024	0,016	0,014	730	0,025	0,017	0,016
800	0,014	0,012	0,014	800	0,015	0,013	0,015



1-grafik. Optimal nur filtrin tańlaw(GAH-1, GAH-2).

Komplekslerdiń optikalıq qásiyetlerin salıstırıw GAH-1 reagentiniń joqarı kontrastlıq beretinligin kórsetti. Fe(III) ushın $\Delta\lambda=85$ nm, Hg(II) hám Pb(II) ushın 90 nm ge teń boldı. GAH-2 reagentinde bul kórsetkishler sáykes túrde 80, 85 hám 85 nm boldı. Bul analitikalıq anıqlawdıń sezgirligin arttırıwǵa múmkinshilik beredi.

Izertlewler nátiyjesinde Fe(III) ionı ushın optimal pH 4,3–4,4, Hg(II) ushın 4,9–5,0 hám Pb(II) ushın 5,7–5,8 ekenligi anıqlandı.



2-grafik. Fe(III), Hg(II) hám Pb(II) ionlarınıń GAH-1 hám GAH-2 menen payda qılǵan kompleks birikpelerdiń optik tıǵızlıqlarınıń eritpe ortalıǵına baylanıslılıq grafığı.

Komplekslerdiń quramın anıqlaw nátiyjeleri boyınsha Fe(III) ionı menen reagent arasında 2:3 qatnasında, al Hg(II) hám Pb(II) ionları menen 1:2 qatnasında kompleks payda bolıwı anıqlandı. Izomolyar seriyalar hám Asmus metodları boyınsha alınǵan nátiyjeler bir-birin tastıyıqladı.

Qaraqalpaqstanın tabiiy florası 52 tuqımlasqa kiretuğın, 142 tuwısqa tiyisli, 239 túrden ibarat alkaloidlı ósimliklerge iye ekenligi anıqlandı. Bul tuqımlaslardıń ishinde alkaloidlı ósimliklerdiń kópshiligin soralar (Chenopodiaceae) tuqımlası iyeleydi. Bul tuqımlasta 25 tuwısqa kiretuğın 57 túr alkaloidlı ósimlikler ushırasadı (floradağı ulıwma alkaloidlı ósimliklerdiń 23,8% i). Ekinshi orındı quramalıgúlliler tuqımlası iyelep, onda 18 tuwısqa kiretuğın 29 túr alkaloidlı ósimlikler jámlengen (12,1%). Úshinshi orındı sobıqlılar tuqımlası iyeleydi, onda 12 tuwısqa tiyisli 19 túr alkaloidlı ósimlikler jıynalgan (7, 9%). Solay etip, bul tuqımlaslar hámme alkaloidlı ósimliklerdiń sanınıń yarımınan aslam túrlerdi (123 tur, yaғni 51,6 %) jámlep, kúshli biologiyalıq aktivlikke iye bolğan shiykizat baylıǵına iye ekenligin kórsetti.

Juwmaq. Alkaloidlı ósimliklerdiń botanikalıq-geografiyalıq aymaqlar boyınsha tarqalıwın analiz etkende Ámiwdárya alabı florası basqa aymaqlarǵa salıstırǵanda alkaloidlı ósimliklerdiń kópligi menen ajıraladı. Bul aymaqta respublika florasında ushrasatuğın barlıq alkaloidlı ósimliklerdiń 34,7 % i ósedi.

Ekinshi orında Qızılqum (23,8 %), úshinshi orındı Ustyurt aymaǵı iyeleydi. Alkaloidlı ósimliklerdiń 24 túri úsh geografiyalıq aymaqta da ushırasadı, 31 túri Qızılqum menen Ustyurtte, 10 túri Ámiwdarya alabında hám Qızılqumda, 3 túri Ámiwdárya alabı hám Ústirtte ósedi.

Solay etip, alkaloidlı ósimliklerdiń (68 turi) hár qanday klimat sharayatında óse alatuǵının kórsetti (keste 2).

Keste 2. Qaraqalpaqstan Respublikası florasında alkaloidlı ósimliklerdiń botanikalıq-geografiyalıq aymaqlar boyınsha tarqalıwı

Ámiwdárya alabı		Qızılqum		Ústirt		Ámiwdárya alabı, Qızılqum		Ámiwdárya alabı, Ústirt		Qızılqum, Ústirt		Ámiwdárya alabı, Qızılqum, Ústirt	
Sanı	%	Sanı	%	Sanı	%	Sanı	%	Sanı	%	Sanı	%	Sanı	%
83	34,7	57	23,8	31	13,0	10	0,5	3	0,01	31	13,0	24	10,1

Ádebiyatlar

1. Адилев Т.А. Ядовитые алкалоидоносные растения Узбекистана. – Ташкент: 1970.
2. Атаев А.А. Алкалоидоносы произрастающих в окрестностях Ленинабада. – Ленинабад: // «Уч. Записки Ленинабадского пед. Ин-та», вып. X, 1958.
3. Ережепов С.Е. Основные дикорастущие лекарственные растения Каракалпакии. – Нукус: «Каракалпакстан», 1971.
4. Ережепов С. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика использование и охрана. – Ташкент: «Фан» 1978.
5. Ережепов С.Е. Ядовитые и вредные растения Каракалпакии. – Нукус: «Каракалпакстан», 1975.
6. Исмаилов Н.М. Материалы к изучений алкалоидоносных растений Азербайджана. – Известия Академии наук Азербайджанской ССР, 1950.
7. Массажетов П.С. Поиски алкалоидоносных растений Средней Азии. – Москва: Тр ВНИИЛР, 1947.
8. Соколов В.С. Алкалоидоносные растения СССР. – Москва; Ленинград: Изд-во Академии наук СССР, 1952.
9. Тилегенов Р.Т., Утениязов К.У., Торениязова Д.А., Алкалоидлар. Методикалық қолланба. – Нөкис: 2004.
10. Юнусов С.Ю. Алкалоиды. – Ташкент: В кн. Химия в Узбекистане, 1965
11. Юнусов С.Ю. Алкалоиды. – Ташкент: 1968.
12. Орехов А.Н. Об алкалоидах *Anabasis aphylla*. // ЖОХ, Т. VII, 1934.

**THE IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE AGROECOLOGICAL
CONDITION OF IRRIGATED SOILS IN KHOREZM REGION****Aminov Bexzod Bahramovich** – doctoral studentaminovbexzod@gmail.com**Okhunjanova Dildora Kamiljonovna** – doctoral studentdildoraokhunjanova@gmail.com

National University of Uzbekistan

Bazarbayeva Muhsina Quvondikovna – student**Abdullayeva Mehribon Atabekovna** – student

Urgench State Pedagogical Institute

**XORAZM VILOYATIDAGI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING
AGROEKOLOGIK HOLATIGA IQLIM O'ZGARISHINING TA'SIRI****Aminov Bexzod Bahram o'g'li** – tayanch doktorant**Okhunjanova Dildora Kamiljon qizi** – tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

Bazarbayeva Muhsina Quvondiq qizi – talaba**Abdullayeva Mehribon Atabekovna** – talaba

Urganch davlat pedagogika instituti

**ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА АГРОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ
СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ****Аминов Бехзод Бахрамович** – докторант**Охунжанова Дилдора Камилжоновна** – докторант

Национальный университет Узбекистана

Базарбаева Мухсинна Кувондыковна – студент**Абдуллаева Мехрибон Атабековна** – студент

Ургенчский государственный педагогический институт

Tayanch so'zlar: iqlim o'zgarishi, sug'oriladigan tuproqlar, agroekologik holat, sho'rlanish, Xorazm viloyati.

Rezyume. Maqolada global iqlim o'zgarishlari sharoitida Xorazm viloyatining sug'oriladigan tuproqlarida kechayotgan asosiy agroekologik jarayonlar tahlil qilinadi. Havo haroratining oshishi, yog'in-sochin miqdorining o'zgarishi hamda suv resurslari tanqisligi tuproq sho'rlanishi, unumdorlikning pasayishi va degradatsiya jarayonlariga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari hududda barqaror yer resurslaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ключевые слова: изменение климата, орошаемые почвы, агроэкологическое состояние, засоление, Хорезмская область.

Резюме. В статье анализируются основные агроэкологические процессы, происходящие на орошаемых почвах Хорезмской области в условиях глобальных климатических изменений. На основе научных источников освещается влияние повышения температуры воздуха, изменения количества осадков и дефицита водных ресурсов на процессы засоления почв, снижения их плодородия и деградации. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций по устойчивому использованию земельных ресурсов региона.

Key words: climate change, irrigated soils, agroecological condition, salinization, Khorezm region.

Summary. The article analyzes the main agroecological processes occurring in the irrigated soils of the Khorezm region under conditions of global climate change. Based on scientific sources, the impacts of rising air temperatures, changes in precipitation patterns, and water resource scarcity on soil salinization, fertility decline, and degradation processes are examined. The research findings contribute to the development of practical recommendations for the sustainable use of land resources in the region.

Introduction. In recent years, global climate change has exerted a significant influence on natural environments and socio-economic processes in almost all regions of the world. Rising air temperatures, changes in precipitation patterns, increasing frequency of drought events, and growing water scarcity are causing serious environmental problems, particularly in arid and semi-arid regions [1]. Central Asia, including the Republic of Uzbekistan, is considered one of the regions most vulnerable to climate change impacts. The Khorezm region is characterized by its specific natural and geographical conditions, low-lying

relief, and strong dependence on the water resources of the Amu Darya River [2]. Agriculture in the region is predominantly based on irrigated farming, and irrigated soils play a crucial role in ensuring regional food security. However, under conditions of climate change, increasing water shortages, intensified evaporation processes, and fluctuations in groundwater levels are having a negative impact on the agroecological condition of irrigated soils.

The impact of climate change on irrigated soils in the Khorezm region is primarily manifested through increased soil salinization, deterioration of physical and chemical

properties, reduction in humus content, and a decline in biological activity [3]. These processes lead to decreased crop productivity, reduced efficiency of land use, and pose serious threats to the stability of agroecosystems. Agroecological problems are becoming particularly acute in areas cultivated with cotton, wheat, and vegetable crops. At present, under conditions of climate change, the scientific assessment of the condition of irrigated soils, identification of existing problems, and development of effective mitigation and adaptation measures constitute an urgent scientific and practical task. From this perspective, studying the agroecological condition of irrigated soils in the Khorezm region, analyzing the influence of climatic factors, and substantiating appropriate adaptation measures are of great importance [4]. The aim of this article is to analyze the impact of climate change on the agroecological condition of irrigated soils in the Khorezm region, identify the main negative processes, and develop scientifically grounded conclusions for the sustainable use of land resources.

Materials and Methods. The research was conducted on irrigated agricultural lands of the Khorezm region. The study objects included irrigated meadow-alluvial, meadow, and sierozem (gray) soils widely distributed in the lowland areas of the region. These soil types constitute the main basis of agricultural production in the Khorezm region and are considered among the agroecosystems most sensitive to climate change. To assess the impact of climate change on the agroecological condition of soils, long-term meteorological, hydrological, and soil science data were used. In particular, long-term data from meteorological stations located in the Khorezm region, including air temperature, precipitation, evaporation rates, and wind regime indicators, were analyzed. Based on these data, trends in climatic factors were identified, and their effects on irrigated soils were evaluated. Soil investigations were carried out under both field and laboratory conditions [5]. During field surveys, soil profiles were excavated in irrigated areas, and their morphological characteristics – such as the thickness of genetic horizons, color, structure, texture, moisture content, and degree of salinity – were described. Soil samples were collected separately from each genetic horizon and prepared for laboratory analyses. Under laboratory conditions, the main agroecological indicators of soil samples were determined through the following analyses: soil texture, total and mobile salt content, soil reaction (pH), humus content, carbonates, nutrient elements (nitrogen, phosphorus, and potassium), and water-physical properties [6]. The degree and type of soil salinization were assessed based on the total dissolved salts content and ionic composition. In evaluating the agroecological condition of irrigated soils, groundwater level and mineralization were considered important factors. For this purpose, data from reclamation monitoring wells located in the study area were used. Changes in groundwater levels and chemical composition were analyzed in relation to soil salinization and secondary degradation processes. To obtain a deeper understanding of climate change impacts, a comparative-analytical approach was applied. This method involved comparing climatic and soil indicators obtained in different years to identify changes in agroecological conditions. Statistical analysis methods were used to assess relationships and trends among the main indicators. In

addition, scientific literature and regulatory documents were analyzed during the research process. Scientific studies by researchers from the Republic of Uzbekistan and foreign countries on climate change, irrigated soil degradation, and agroecology were reviewed and synthesized [7]. This approach contributed to the scientific justification of the research results and strengthened the conclusions. The integrated application of these research methods made it possible to conduct a comprehensive and systematic assessment of the impact of climate change on the agroecological condition of irrigated soils in the Khorezm region.

Results and Discussion. The research results indicate that the agroecological condition of irrigated soils in the Khorezm region is undergoing significant changes under conditions of climate change. Analysis of long-term meteorological data confirms a clear upward trend in the average annual air temperature in the region. In particular, rising temperatures during the growing season intensify evaporation processes, which negatively affect the moisture regime of irrigated soils. Changes were also observed in the annual and seasonal distribution of precipitation. Precipitation occurring mainly over short periods and in an uneven manner leads to insufficient accumulation of natural soil moisture reserves. This situation increases the demand for irrigation and forces more intensive use of water resources. As a result, secondary salinization and soil degradation processes in irrigated lands are becoming more active [8]. According to soil analysis results, irrigated meadow-alluvial and sierozem soils in the study area exhibit an increasing trend in total dissolved salt content. Areas with relatively shallow groundwater levels showed a more pronounced degree of salinization. This indicates that, under climate change conditions, water scarcity combined with the deterioration of reclamation status exerts a complex and cumulative impact on the agroecological condition of soils [9].

Negative changes were also recorded in the physical properties of soils. Under conditions of high temperatures and water deficit, soil structure degradation, increased bulk density, and reduced water permeability were observed. Such changes restrict root system development and adversely affect crop growth and development, ultimately leading to a decline in agricultural crop yields. Analysis of humus content revealed a gradual decrease in organic matter in irrigated soils. Under climate change conditions, accelerated decomposition of organic matter due to high temperatures, together with insufficient application of organic fertilizers, leads to a reduction in humus reserves. This process negatively affects soil fertility and undermines the stability of agroecosystems. When compared with studies conducted by other researchers, the obtained results demonstrate that the impact of climate change on soils in the Khorezm region is more complex and multifactorial [10]. While some studies emphasize rising temperature as the primary negative factor, the findings of this research highlight that water scarcity and reclamation-related issues also play a critical role. The results suggest that mitigating the impacts of climate change and improving the agroecological condition of irrigated soils require an integrated approach. In particular, enhancing water-use efficiency, introducing modern irrigation technologies such

as drip irrigation, strengthening agrotechnical measures against salinization, and restoring soil organic matter reserves are of great importance.

Furthermore, the development of climate change adaptation measures should take regional characteristics

into account. Under the conditions of the Khorezm region, improving agroecological monitoring systems and ensuring regular control of soil conditions will help prevent negative processes and support the sustainable use of irrigated lands in the future.

References

1. Abdullayev A.Q. Iqlim o'zgarishi sharoitida Markaziy Osiyoda yer resurslari degradatsiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.
2. Ortiqov R.O., Karimov B.S. Sug'oriladigan tuproqlarning agroekologik holati va ularni yaxshilash yo'llari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
3. FAO. Iqlim o'zgarishi va tuproq degradatsiyasi. – Rim: FAO nashriyoti, 2019.
4. IPCC. Iqlim o'zgarishi 2021: ta'sirlar, moslashuv va zaiflik. – Kembrij: Cambridge University Press, 2021.
5. Ahmedov M.M. Xorazm viloyati tuproqlarining meliorativ holati va unumdorligi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2018, № 4, 22-26-b.
6. Ismoilov S.I., Tursunov D.Q. Iqlim omillarining sug'oriladigan tuproqlarga ta'siri. // Tuproqshunoslik va agrokimyo, 2020, № 2, 45-50-b.
7. Xamidov A.A. Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish muammolari va ularni kamaytirish yo'llari. – Toshkent: «O'qituvchi», 2017.
8. Glantz M.H. Markaziy Osiyoda iqlim va suv resurslari. – Berlin: «Springer», 2018.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xorazm viloyatining iqlim va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari. – Toshkent: 2022.
10. Qodirov J.Sh. Iqlim o'zgarishi sharoitida agroekotizimlarning barqarorligi. // Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. 2021, № 3, 33-38-b.

**SAMARQAND SHAHRI ATROFI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHINING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich – *geografiya fanlari doktori (DSc), professor*

ibragimovlutfullo@gmail.com

Berdikulov Firdavs Farxod o'g'li – *tayanch doktorant*

firdavsberdikulov95@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА
ПРИГОРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ ГОРОДА САМАРКАНДА**

Ибрагимов Лутфулло Зиядуллаевич – *доктор географических наук (DSc), профессор*

Бердикулов Фирдавс Фарходович – *базовый докторант*

Самаркандский государственный университет имени Шафофа Рашидова

**MODERN CHALLENGES AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PERI-URBAN
AGRICULTURE IN SAMARKAND CITY OUTSKIRTS**

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich – *doctor of Geographical sciences (DSc), professor*

Berdikulov Firdavs Farxod ugli – *Doctoral Student*

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Tayanch so'zlar: shahar atrofi hududlari, oziq-ovqat talabi, ta'minot tafovuti, barqaror qishloq xo'jaligi, urbanizatsiya, Samarqand.

Rezyume. Rezyume. Maqolada Samarqand shahri atrofi qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Urbanizatsiya va aholi sonining o'sishi oziq-ovqat tizimlariga bosimni kuchaytirayotgan sharoitda yer resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy sug'orish hamda agrotexnologiyalarni joriy etishning ahamiyati asoslangan. Shahar atrofi qishloq xo'jaligi hududlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi strategik tizim sifatida baholangan.

Ключевые слова: пригородные территории, спрос на продовольствие, дисбаланс обеспечения, устойчивое сельское хозяйство, урбанизация, Самарканд.

Резюме. В статье анализируются вопросы устойчивого развития сельского хозяйства пригородных территорий Самарканда. В условиях урбанизации и роста численности населения, усиливающих нагрузку на продовольственные системы, обоснована необходимость рационального использования земельных ресурсов, внедрения современных методов орошения и агротехнологий. Пригородные сельскохозяйственные территории рассматриваются как стратегическая система обеспечения продовольственной безопасности.

Key words: peri-urban areas, food demand, supply gap, sustainable agriculture, urbanization, Samarkand.

Summary. The article analyzes the issues of sustainable development of peri-urban agriculture around Samarkand city. Under conditions of urbanization and population growth increasing pressure on food systems, the importance of rational land use, modern irrigation methods, and the introduction of advanced agrotechnologies is substantiated. Peri-urban agricultural areas are considered a strategic system for ensuring food security.

Kirish. Samarqand shahri atrofi hududlarida qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri suv resurslari va agrotexnologik tizimlarining cheklanganligidir. Mintaqaning qurg'oqchil iqlim sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarining 85 foizdan ortig'i yer usti sug'orish tizimiga tayanadi, biroq suv oqimining beqarorlashuvi hamda sug'orish infratuzilmasining eskirishi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirmoqda [1]. Sug'orish samaradorligi ko'rsatkichining ko'plab xo'jaliklarda 0,6 dan past bo'lishi suv resurslari va hosildorlik salohiyatining katta qismini yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda [2].


Urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi ta'sirida suv tanqisligi, yer resurslarining qisqarishi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi qishloq xo'jaligi tizimiga tobora kuchli bosim o'tkazmoqda. Shu bilan birga, shaharda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi mavjud ishlab chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda [5]. Ayniqsa, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish, agrotexnologiyalarni keng qo'llash va hududiy rejalashtirishni takomillashtirish masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi sharoitda shahar atrofi qishloq xo'jaligi hududlari faqat "xazira yerlar" sifatida emas, balki shaharning

barqaror rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi muhim hududiy tizim sifatida qaralishi lozim [6:7]. Ayniqsa, Samarqand kabi yirik tarixiy va turistik shaharlarda mahalliy oziq-ovqat bazasining mustahkamligi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot Samarqand shahri atrofi hududlarida qishloq xo'jaligi rivojlanishini cheklayotgan resurs va infratuzilmaviy muammolarni aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategiyalarini baholash hamda urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini asoslashni maqsad qiladi.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqot O'zbekistonning janubi-sharqida joylashgan Samarqand shahrining shahar atrofi (peri-urban) hududlariga qaratilgan bo'lib (1-rasm), shahar markazidan 10–30 km uzoqlikda joylashgan hamda shahar o'zagi bilan mustahkam iqtisodiy va hududiy aloqalarni saqlab turgan uchta asosiy qishloq xo'jaligi zonasi – Pastdarg'om, Toyloq va Ishtixon tumanlarining shahar atrofi hududlariga qaratilgan. Ushbu tumanlar birgalikda mahalliy meva va sabzavotlar yetishtiriladigan asosiy ishlab chiqarish mintaqasini tashkil qiladi. Rasmiy statistika ularning qishloq xo'jaligidagi

ustunligini ko'rsatadi: 2022-yilda Pastdarg'omda 17 500 gektar maydonda sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan bo'lsa, Toyloqda xuddi shunday ekinlar maydoni 14 200 gektarni tashkil etgan [1]. Bu Samarqandning bevosita tevarak-atrofidagi dehqonchilik intensivligi yuqori ekanligidan dalolat beradi.



1-rasm. Tadqiqot hududi xaritasi

Tadqiqot hududi keskin mavsumiy farqlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos quruq (arid) va yarim quruq (yarim arid) iqlimga ega. Yoz oylari odatda issiq va quruq bo'lib, kunduzgi harorat ko'pincha 35 °C dan oshadi, qish esa nisbatan sovuq keladi. Yillik o'rtacha yog'ingarchilik 300–350 mm ni tashkil etadi, yog'ingarchilikning asosiy qismi noyabr va mart oylari oralig'iga to'g'ri keladi. Ushbu cheklangan suv resurslariga qaramay, Samarqandning unumdor lyoss (buloq) tuproqlari, yillik o'rtacha 13–15 °C harorat bilan birgalikda, sug'orish to'g'ri boshqarilganda, turli xil ekin tizimlari uchun qulay sharoit yaratadi [3].

Mahalliy sug'orish tizimlari asosan Zarafshon daryosi va uning tarmoqlangan kanallar tizimi suviga tayanadi. Biroq, uchta asosiy omil tufayli kuchayib borayotgan suv taqchilligi jiddiy muammoga aylandi:

1. Mavsumiy oqim o'zgaruvchanligining ortishi;
2. Shahar iste'mol talabining o'sishi;
3. Sanoat ehtiyojlarining kengayishi [4].

Suv xo'jaligi vazirligining so'nggi ma'lumotlari suv bilan ta'minlanganlik darajasidagi xavotirli tendensiyalarni ko'rsatmoqda – bir nechta tadqiqot zonalarida ketma-ket uch yil davomida sug'orish koeffitsiyenti 0.7 dan past bo'lganligi qayd etildi, bu qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga nisbatan surunkali suv yetishmovchiligidan dalolat beradi.

Ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish uchun Microsoft Excel dasturidan, chuqurroq statistik tahlil uchun esa R dasturidan foydalangan holda, biz ekin maydonlarining transformatsiyasi, mahsuldorlikning o'zgarishi va shaharning oziq-ovqatga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojlarining rivojlanish qonuniyatlarini tizimli ravishda kuzatib bordik. Ushbu miqdoriy tahlil raqamli tendensiyalarni umumiy kontekstga solish uchun mintaqaviy qishloq xo'jaligi siyosati va shaharni rivojlantirish rejalarining tanqidiy sharhi bilan to'ldirildi.

Geofazoviy (geospatial) tahlil vositalari mavjud emasligini hisobga olib, ushbu tadqiqot tadqiqot hududini belgilashda ma'muriy-hududiy chegaralar yondashuvini qabul qiladi va uchta qo'shni tumanga: Pastdarg'om, Toyloq va Ishtixonga e'tibor qaratadi. Bu hududlar ikkita asosiy mezon asosida tanlab olindi: ularning Samarqand shahar o'zagiga geografik jihatdan yaqinligi va metropo-

liten mintaqasi uchun asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beruvchisi sifatidagi o'rni. Ushbu tanlov yerlardan foydalanishdagi ziddiyatlar va qishloq xo'jaligiga bo'lgan bosim eng yaqqol namoyon bo'ladigan muhim shahar-qishloq o'zaro ta'sir hududini qamrab oladi.

Raqamli natijalarni to'ldirish uchun tadqiqotda Qishloq xo'jaligi vazirligi va boshqa tegishli organlar tomonidan qabul qilingan qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha milliy va mintaqaviy rejalar, yerlardan foydalanish qoidalarini hamda oziq-ovqat xavfsizligi dasturlari ham ko'rib chiqiladi. Bu kuzatilgan tendensiyalarni kontekstual tahlil qilishga va mahalliy qishloq xo'jaligi tizimlariga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy omillarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, shahar hududining kengayishi va iqlim o'zgaruvchanligi sharoitida kelgusi xavf va imkoniyatlarni o'rganish uchun ssenariylarni baholash usuli qo'llaniladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari Samarqandda ortib borayotgan oziq-ovqat talabi va kamayib borayotgan qishloq xo'jaligi salohiyati o'rtasidagi tobora chuqurlashib borayotgan tanqislikni ochib beradi. Hozirgi vaqtda yangi sabzavotlarning asosiy qismini, mevalarning muhim ulushini hamda sut mahsulotlarining qariyb uchdan bir qismini yetkazib berayotgan shahar atrofi tumanlari endilikda misli ko'rilmagan bosim ostida qolmoqda.

Samarqand shahri atrofi tumanlarida qishloq xo'jaligi oldida turgan asosiy muammolardan biri tez sur'atlarda o'sib borayotgan shahar aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish tobora qiyinlashib borayotganidir. Aholi soni oshishi va daromadlarning ko'payishi bilan birga, jon boshiga to'g'ri keladigan yangi sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talab ham kuchayib bormoqda. Xususan, sabzavot iste'moli 2000-yildagi taxminan 95 kg/kishi/yildan 2024-yilga kelib 124 kg dan oshgan darajagacha yetgan bo'lib, bu oziqlanish tarkibining diversifikatsiyasi, bozorga kirish imkoniyatlarining yaxshilanishi hamda sog'lom ovqatlanish tendensiyalari bilan bog'liq. Ushbu o'sish shahar demografik kengayishi bilan birga umumiy yillik sabzavot talabini sezilarli darajada oshirgan.

1-jadvalda 2000-2024-yillar oralig'ida sabzavotga bo'lgan talab va mahalliy ishlab chiqarishning modellashtirilgan tendensiyalari keltirilgan. Ushbu davr mobaynida talab qariyb ikki barobarga oshib, taxminan 35 ming tonnadan 72 ming tonnadan ortiq darajaga yetgan. Shahar atrofi zonalarida mahalliy ishlab chiqarish dastlab talabdan sezilarli darajada yuqori bo'lgan ortiqcha hajmni ta'minlagan. Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu ortiqcha kamayib borgan va 2010-yillarning o'rtalaridan boshlab asta-sekin yemirila boshlagan. 2020-yillarning boshlariga kelib esa ishlab chiqarish va talab egri chiziqlari bir-biriga yaqinlashish tendensiyasini ko'rsata boshlagan. Qisqarib borayotgan ortiqcha mahsulot asosan ishlab chiqarish o'sishining sustligi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon ikki asosiy cheklov ta'sirida yuz bermoqda: qishloq xo'jaligi yerlarining qisqarib borishi va sug'orish samaradorligining doimiy past darajada qolishi. Ba'zi agrar texnologiyalar joriy etilgan bo'lsa-da, ularning ta'siri tez sur'atlarda o'sayotgan aholi soni va jon boshiga iste'mol hajmining ortishi bosimi oldida sezilarli emas.

1-jadval. Samarqand shahar atrofi hududlarida sabzavotga bo'lgan talab, ishlab chiqarish va ta'minotdagi tafovut (2000-2024)

Yil	Sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talab (tonna)	Sabzavot ishlab chiqarish (tonna)	Ta'minotdagi tafovut (tonna)
2000	34960	82000	47040
2002	37364.42125	81865.68542	44501.26417
2004	39909.96329	82200	42290.03671
2006	42604.27379	82839.38769	40235.1139
2008	45455.3954	83725.4834	38270.088
2010	48471.78546	84824.55532	36352.76987
2012	51662.33672	86113.84388	34451.50715
2014	55036.39912	87576.64068	32540.24157
2016	58603.80249	85200	26596.19751
2018	62374.88051	86973.50647	24598.62596
2020	66360.49575	88888.54382	22528.04807
2022	70572.06595	90937.82934	20365.76339
2024	75021.59158	93115.10153	18093.50995

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Ushbu tizimli muammolarga qo'shimcha ravishda, shahar atrofi fermerlari bir qator chuqur ildiz otgan noqulayliklarga duch kelmoqda: ularning aksariyati shahar ulgurji bozorlariga ishonchli bog'lanmagan, sovutkichli saqlash infratuzilmasi yetarli emas va ekin yetishtirish hamda suv boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha davlat yordami juda cheklangan. Ushbu cheklovlarining birgalikdagi ta'siri mintqa oziq-ovqat tizimini tashqi va ichki zarbalarga nisbatan tobora zaiflashtirmoqda.

Shahar atrofi qishloq xo'jaligi oldida turgan muammolar uchta asosiy ustunga tayangan holda zudlik bilan qayta tuzilishni talab etadi: yer resurslarini saqlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va institutsional islohotlar. Ishlab chiqarish yo'nalishida esa 2015-yildan

keyingi hosildorlik pasayishini bartaraf etish uchun iqlim o'zgarishiga moslashgan texnologiyalarga maqsadli investitsiyalar talab etiladi. Xususan, himoyalangan (issiqxona) yetishtirish tizimlari va aniq sug'orish texnologiyalari joriy etilishi, shuningdek moliyalashtirish, o'qitish va agro-konsalting xizmatlarini birlashtirgan kompleks qo'llab-quvvatlash dasturlari fermerlarning yangi texnologiyalarni qabul qilishini rag'batlantirishi kerak. Eng muhim jihati shundaki, siyosatchilar shahar atrofi qishloq xo'jaligining maqomini tubdan qayta ko'rib chiqishi lozim. Bu hududlarni vaqtinchalik zaxira zonalar sifatida emas, balki shahar oziq-ovqat xavfsizligi infratuzilmasining doimiy tarkibiy qismi sifatida tan olish zarur. Buning uchun qishloq va shahar o'rtasidagi ta'minot zanjirlarini mustahkamlash, hosildan keyingi saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda fermerlar kooperatsiyalarini kuchaytirish orqali ularning bozorga chiqish imkoniyatlarini va iqtisodiy barqarorligini oshirish talab etiladi.

Agar ushbu tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmasa, chora ko'rish uchun vaqt tobora qisqarib bormoqda. Samarqand yaqin kelajakda oziq-ovqatda o'zini ta'minlashdan voz kechib, zaif importga qaram tizimga o'tish xavfi ostida qoladi. Bu esa nafaqat shahar iste'molchilari, balki qishloq aholisi hayotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tanlov aniq: barqaror va moslashuvchan mintaqaviy oziq-ovqat tizimini oldindan shakllantirish yoki qishloq xo'jaligi salohiyatining asta-sekin yemirilishini passiv tarzda qabul qilish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Samarqand shahrida urbanizatsiya jarayonlari kuchayib borishi bilan shahar atrofi qishloq xo'jaligi hududlariga bosim ortayotganini ko'rsatdi. So'nggi yigirma yil davomida aholi soni keskin oshgan bo'lsa, haydaladigan yer maydonlari izchil qisqargan. Bu holat mahalliy oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim xavf omiliga aylanmoqda. Shu sababli shahar atrofi hududlarini Samarqandning strategik "yashil infratuzilmasi" sifatida baholash zarur. Yer resurslarini himoya qilish, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish va yuqori samarali ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish orqali ushbu hududlarning barqaror faoliyatini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar

1. Berdikulov F. et al. Agricultural development in the peri-urban areas of Samarkand, Uzbekistan: Challenges and prospects. // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2025. T. 670. – P. 05021.
2. Berdikulov F. et al. the agribusiness of Samarkand's suburbs as a foundation for the city's sustainable food security. // R-Economy, 2026, Vol. 12, Iss. 1, 2026. T. 12. № 1. – P. 94-108.
3. Ibragimov L. et al. Specialization of agriculture of Samarkand region. // Journal of Geography and Natural Resources, 2024, T. 4, № 01. – P. 38-49.
4. Lutfullo I., Shodiyor B. Geographical possibilities of development of agroindustrial cluster activities in samarkand region. // Fan va ta'lim integratsiyasi (integration of science and education), 2023, T. 1, № 1. – P. 82-92.
5. Mulya S.P., Putro H.P.H., Hudalah D. Review of peri-urban agriculture as a regional ecosystem service. // Geography and Sustainability, 2023, T. 4, № 3. – P. 244-254.
6. Zasada I. Multifunctional peri-urban agriculture – A review of societal demands and the provision of goods and services by farming. // Land use policy, 2011, T. 28, № 4. – P. 639-648.
7. Брыжко В.Г., Шкрёбо В.П. Модель организационной системы совершенствования продовольственного обеспечения крупного города. // Аграрный вестник Урала, 2012, № 3(95). – С. 60-63.

UDK: 556.53:551.583(575.1)

**ShEROBOD DARYOSI HAVZASIDA SUV RESURLARINING SHAKLLANISHI,
GIDROLOGIK REJIMI VA IQLIMIY O'ZGARUVCHANLIK SHAROITIDAGI DINAMIKASI**

Karimov Ilhom Esonovich – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

kilhom855@gmail.com

Mustayev Kurbonmurod Raxmon o'g'li – *tayanch doktorant*

mustayevq1998@gmail.com

Jizzax davlat pedagogika universiteti

**ФОРМИРОВАНИЕ, ГИДРОЛОГИЧЕСКИЙ РЕЖИМ И ДИНАМИКА ВОДНЫХ РЕСУРСОВ
В БАСЕЙНЕ РЕКИ ШЕРАБАД В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА**

Каримов Илхом Эсонович – *доктор философии по географическим наукам, доцент*

Мустаев Курбонмурод Рахмонович – *докторант*

Джизакский государственный педагогический университет

**FORMATION, HYDROLOGICAL REGIME AND DYNAMICS OF WATER RESOURCES
IN THE SHERABAD RIVER BASIN UNDER CLIMATE CHANGE**

Karimov Ilhom Esonovich – *Doctor of Philosophy in Geographical Sciences, Associate Professor*

Mustayev Kurbonmurod Rakhmonovich – *doctoral student*

Jizzakh State Pedagogical University

Tayanch so'zlar: Sherobod daryosi, suv resurslari, gidrologik rejim, iqlimiy o'zgaruvchanlik, mavsumiy oqim, kamsuvlik, sug'orish.

Rezyume. Mazkur maqolada Sherobod daryosi havzasida suv resurslarining shakllanish sharoiti, gidrografik tarmoq tuzilishi, gidrologik postlar bo'yicha oqim ko'rsatkichlari hamda suvlilik darajasi turlicha bo'lgan yillarda oqimning mavsumiy taqsimlanishi daryo rejimini belgilovchi asosiy omillar sifatida tahlil qilindi. Natijalar ko'rsatadiki, yillik oqimning asosiy qismi bahor va yozning birinchi yarmiga to'g'ri keladi; aprel-iyun oylarida oqim ulushi o'rtacha suvli yillarda 55,1 %ni tashkil etadi. Kamsuvli va juda kamsuvli yillarda yozgi oqim qisqarib, kuz-qish davri ulushi ortadi. Bu holat vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida sug'orma dehqonchilik uchun suv tanqisligi xavfini kuchaytirishi tahlil qilingan.

Ключевые слова: река Шерабад, водные ресурсы, гидрологический режим, климатическая изменчивость, сезонный сток, дефицит воды, орошение.

Резюме. В данной статье проанализированы условия формирования водных ресурсов в бассейне реки Шерабад, структура гидрографической сети, показатели стока на гидрологических постах и сезонное распределение стока в годы с разным уровнем воды как основные факторы, определяющие речной режим. Результаты показывают, что основная часть годового стока приходится на весну и первую половину лета; доля стока в апреле-июне составляет 55,1% в годы со средним уровнем воды. В годы с низким и очень низким уровнем воды летний сток уменьшается, а доля осенне-зимнего периода увеличивается. Проанализировано, что такая ситуация повышает риск нехватки воды для орошаемого земледелия во второй половине вегетационного периода.

Key words: Sherabad River, water resources, hydrological regime, climate variability, seasonal runoff, water shortages, irrigation.

Summary. This article analyzes the conditions for water resource formation in the Sherabad River basin, the structure of the hydrographic network, flow indicators at gauging stations, and the seasonal distribution of flow in years with different water levels as the main factors determining the river regime. The results show that the majority of annual flow occurs in spring and the first half of summer; the share of flow in April-June is 55.1% in years with average water levels. In years with low and very low water levels, summer flow decreases, while the share of flow in the autumn-winter period increases. It has been analyzed that this situation increases the risk of water shortages for irrigated agriculture in the second half of the growing season.

Kirish. Arid va yarim arid mintaqalarda daryo suvlari tabiiy landshaftlarning ekologik barqarorligi, aholi punktlari suv ta'minoti va sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik tizimlari uchun hal qiluvchi resurs hisoblanadi. Iqlimning isishi, yog'inlarning fazoviy-mavsumiy notekisligi va bug'lanish talabining ortishi kichik hamda o'rta tog' daryolarida oqimning yillararo va mavsumiy beqarorligini kuchaytiradi. IPCC baholashlarida G'arbiy va Markaziy Osiyo hududlarida yog'in kamayishi hamda evapotranspiratsiya ortishi qurg'oqchilik va yer usti oqimi qisqarishi xavfini kuchaytirishi qayd etilgan [1]. WMO global suv resurslari hisobotlarida ham daryo oqimlari, tuproq namligi va yerosti suvlarining monitoringini kuchaytirish suv xavfsizligi uchun ustuvor vazifa sifatida ta'kidlanadi [2].

Sherobod daryosi Surxondaryo viloyatining janubi-g'arbiy qismida joylashgan Sherobod vodiysi suv xo'jaligi tizimida muhim ahamiyatga ega. Havzaning yuqori qismi Boysun va Chaqchar tog'lari bilan bog'liq tog'li relyefda shakllansa, quyi qismi qishloq xo'jaligi maydonlari va kanallar tizimi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun Sherobod daryosining gidrologik rejimini faqat o'rtacha suv sarfi orqali emas, balki oqimning yil ichidagi taqsimlanishi, suvlilik darajalari va iqlimiy o'zgaruvchanlik sharoitidagi xatti-harakati bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

Tadqiqotning maqsadi: Sherobod daryosi havzasida suv resurslarining shakllanishi, gidrologik rejimining asosiy ko'rsatkichlari va iqlimiy o'zgaruvchanlik sharoitida mavsumiy oqim dinamikasini ilmiy jihatdan baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari vegetatsiya davrida suv

taqsimotini rejalashtirish, gidrologik prognozlarini takomillashtirish va suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini asoslashda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot hududi va metodlar. Sherobod daryosi havzasi tog'li yuqori qism, adir-oldi hududlar va sug'oriladigan vodiy landshaftlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston milliy atlasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Sherobod daryosi suv yig'ilish maydoni 2950 km² ni (havza maydoni 4760 km²) [7] tashkil etadi. Havzada uzunligi 26-50 km bo'lgan 8 ta, 10-25 km bo'lgan 26 ta va 10 km dan kichik 656 ta irmoq mavjud [3]. Bu ko'rsatkichlar havzaning zich, ammo gidrologik jihatdan notekis ishlaydigan tarmoqqa ega ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotda havzaning gidrografik tarmog'i ArcGIS dasturida tuzilgan karta asosida tahlil qilindi. Gidrologik ko'rsatkichlar bo'yicha Komarchi, Darband va Sherobod shahri kuzatuv punktlari ma'lumotlari, yillik oqimning oylar bo'yicha taqsimlanishi hamda suvlik darajalariga oid nashr qilingan gidrologik ma'lumotlardan foydalanildi [4: 5]. Shuningdek, daryo suvlari mineralizatsiyasi va o'rtacha suv sarfiga oid so'nggi ilmiy manbalardagi ma'lumotlar qiyosiy talqin qilindi [6].


Metodik jihatdan tadqiqot uch yo'nalishda olib borildi: birinchidan, havzaning gidrografik va balandlik sharoiti baholandi; ikkinchidan, gidropostlar bo'yicha F, H, Q, Δ oqim va Cv ko'rsatkichlari tahlil qilindi; uchinchi, ko'p suvli, o'rtacha suvli, kam suvli va juda kamsuvli yillarda oqimning oylar hamda fasllar bo'yicha ulushi qiyoslandi. Ushbu yondashuv Sherobod daryosi rejimining iqlimiy o'zgaruvchanlikka sezuvchanligini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Sherobod daryosida suv resurslarining shakllanishi havzaning balandlik zonalligi, tog'li yuqori qismda yog'in nisbatan ko'proq tushishi, qor-yomg'ir suvlari va yerosti suvlarining qo'shma ta'siri bilan belgilanadi. Gidrologik postlar ma'lumotlari daryo oqimining yuqori qismdan quyi qismga tomon ortib borishini ko'rsatadi. Komarchi punktida suv sarfi 2,54 m³/s bo'lsa, Darbandda 5,51 m³/s, Sherobod shahri gidropostida esa 6,07 m³/s ga yetadi (1-jadval).

1-jadval. Sherobod daryo havzasining asosiy gidrologik ko'rsatkichlari [4]

Daryo, kuzatuv punkti	F, km ²	H, km	Q, m ³ /s	Δ oqim	Cv
Komarchi q.	300	2,480	2,54	0,225	0,372
Darband q.	949	2,070	5,51	0,300	0,370
Sherobod sh.	2950	1,440	6,07	0,278	0,361

Jadval natijalariga ko'ra, havzaning quyi qismiga tomon suv yig'ilish maydoni kengaygani sari suv sarfi ortadi, lekin variatsiya koeffitsiyenti deyarli bir xil diapazonda saqlanadi. Bu holat daryo oqimining yil ichida va yillararo o'zgaruvchanligi havza bo'ylab umumiy iqlimiy sharoitlarga sezilarli darajada bog'liq ekanini bildiradi. So'nggi ilmiy manbalarda Sherobod shahri bo'yicha o'rtacha yillik suv sarfi 6,9 m³/s yoki yillik oqim hajmi taxminan 0,22 km³ deb keltirilgani ham daryoning suv resurslari cheklangan, ammo vodiy xo'jaligi uchun strategik manba ekanini tasdiqlaydi [6].



1-rasm. Sherobod daryo havzasi gidrografik tarmoqlari kartasi.


Izoh: Ushbu karta ArcGIS dasturida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Oqimning yillik va mavsumiy taqsimlanishi. Sherobod daryosi qor-yomg'ir va yerosti suvlaridan to'yinuvchi daryolar turiga mansub. Oqimning eng yuqori ulushi bahor oxiri va yoz boshida, ya'ni qor erishi va yog'inli davr tugallanishi oralig'ida shakllanadi. O'rtacha suvli yillarda aprel-iyun oylariga yillik oqimning 55,1 % i to'g'ri keladi. Eng kam suvli davr esa sentyabr-noyabr oylarida kuzatilib, oktyabr oyida oqim ulushi 3,6 % gacha pasayadi (2-jadval).

2-jadval. Sherobod shahri gidropostida yillik oqim hajmining oylar bo'yicha taqsimlanishi, % hisobida. [5]

Suvlilik darajasi	Oylar											
	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	I	II
Juda kam suvli	6,2	11,6	23,3	18,1	7,9	4,5	3,3	4,0	4,3	4,9	5,8	6,1
Kam suvli	6,4	11,9	24,0	18,5	8,5	4,8	3,5	3,6	3,8	4,4	5,2	5,4
O'rtacha suvli	6,6	12,3	20,6	22,2	9,1	4,7	3,7	3,6	3,9	4,2	4,2	4,9
Ko'p suvli	6,5	13,8	24,4	17,6	10,1	4,6	3,3	3,7	3,3	4,0	4,2	4,5

Suvlilik darajasiga qarab oqimning fasllar bo'yicha taqsimlanishida muhim farqlar yuzaga keladi. Ko'p suvli yillarda III-VI oylar ulushi 62,3 % ni tashkil etadi, yozgi davrda esa 18,0 % atrofida bo'ladi. O'rtacha suvli yillarda bahor davri ulushi 61,7 %, yozgi ulush 17,5 %, kuz-qish ulushi esa 20,8 % ga teng. Kam suvli va juda kamsuvli yillarda yozgi oqimning qisqarishi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.



2-rasm. Oqimning fasllar bo'yicha taqsimlanishi (yillik oqim nisbatan % hisobida). [5]

Iqlimiy o'zgaruvchanlik sharoitida gidrologik dinamikasi. Havzada yog'in miqdorining balandlik bo'yicha ortishi daryo oqimini shakllantiruvchi asosiy geografik qonuniyatlardan biridir. Biroq 1991-2020-yillar kesimida yog'inlarning mavsumiy taqsimotida ayrim siljishlar, jumladan fevral va noyabr oylarida yog'in ulushining ortishi qayd etilgan [7]. Bunday o'zgarishlar bahor davridagi qisqa muddatli toshqinlar, sel hodisalari hamda yozning ikkinchi yarmida suv tanqisligi ehtimolini kuchaytirishi mumkin.

Juda kamsuvli yillarda bahor davri ulushi 59,2 %, yozgi ulush esa 15,7 % gacha kamayadi. Ayni paytda kuz-qish davri ulushi 25,1 % ga yetadi. Bunday taqsimot daryoning qurg'oqchil yillarda qor-yomg'ir suvlariga nisbatan kamroq, yerosti va buloq suvlarining nisbatan barqaror chiqimiga ko'proq tayanishini ko'rsatadi. Bu gidrologik holat ayniqsa iyul-sentyabr oylarida sug'orma dehqonchilik tizimlari uchun xavfli bo'lib, Kallamozor, Dahna, Chilonzor, Guliston, Uzunsoy va Xo'jaulkan massivlarida suv taqsimotini rejalashtirishni talab etadi.

Demak, Sherobod daryosi havzasida gidrologik rejimning iqlimiy omillarga sezuvchanligi ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, bahor davridagi qor-yomg'ir oqimining to'planish vaqti o'zgaradi; ikkinchidan, vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida daryo oqimi keskin kamayadi. Shu sababli havzada gidrologik prognozlar faqat yillik o'rtacha suv sarfiga emas, balki oylar va suvlilik guruhlari bo'yicha differensial yondashuvga asoslanishi lozim.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Sherobod daryosi havzasida suv resurslari tog'li yuqori qismdagi yog'in, qor

erishi, buloq va yerosti suvlarining qo'shma ta'siri hisobiga shakllanadi. Havzaning umumiy maydoni 4760 km², suv yig'ilish maydoni 2950 km² bo'lib, gidrografik tarmoq ko'plab kichik irmoqlar bilan xarakterlanadi. Bu holat daryo oqimining qisqa muddatli meteorologik sharoitlarga sezgirligini oshiradi.

Gidropostlar bo'yicha tahlil Sherobod shahri yaqinida o'rtacha suv sarfi 6,07-6,9 m³/s atrofida ekanini ko'rsatadi. Bu miqdor vodiy xo'jaligi uchun muhim bo'lsa-da, suv resurslari cheklanganligi va vegetatsiya davrida suv taqchilligi xavfi mavjudligini ko'rsatadi.

Yillik oqimning asosiy qismi bahor va yozning birinchi yarmida shakllanadi. O'rtacha suvli yillarda aprel-iyun oylariga oqimning 55,1 %i to'g'ri keladi. Iyul-sentyabr oylarida oqim kamayishi sug'oriladigan yerlar uchun asosiy xavf omili hisoblanadi.

Kamsuvli va juda kamsuvli yillarda yozgi oqim ulushi kamayib, kuz-qish davri ulushi ortadi. Bu daryoning qurg'oqchil sharoitda yerosti va buloq suvlari bilan nisbatan barqaror to'yinishi hisobiga rejimning qayta taqsimlanishini anglatadi.

Amaliy jihatdan Sherobod havzasida vegetatsiya davri uchun mavsumiy gidrologik prognozlarni ishlab chiqish, suv taqsimotini oylar bo'yicha qayta rejalashtirish, sug'orish me'yorlarini suvlilik darajasiga moslashtirish hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlarda 1965-1990 va 1991-2020 iqlimiy davrlari bo'yicha daryo oqimi, yog'in va harorat ko'rsatkichlarini statistik qiyoslash Sherobod havzasida iqlim o'zgarishining gidrologik oqibatlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. IPCC. Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
2. World Meteorological Organization. State of Global Water Resources 2023. – Geneva: WMO, 2024.
3. O'zbekiston milliy atlas. 1-jild. – Toshkent: 2020. 192-b.
4. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. – Ташкент: Узгидромет, НИГМИ, «VORIS-NASHRIYOT», 2007.
5. Ресурсы поверхностных вод СССР. Том 14. Средняя Азия. Выпуск 3. Бассейн р. Амударья. – Ленинград: Гидрометеиздат, 1971. 141-б.
6. Чембарисов Э.И., Шодиев С.Р., Норкуватова У.И. Использование бассейнового метода прогноза минерализации речной воды в бассейнах Кашкадарьи, Сурхандарьи и Зеравшана. // O'zbekiston zamini, 2024, № 3.
7. Karimov I. E., Mustayev K. R. Sherobod daryo havzasi iqlimi davriy o'zgaruvchanligining geografik xususiyatlari. // Экономика и социум, 2026, №6(145).

**NUROTA TUMANI GIDROLOGIK OBYEKTЛАRI VA KARST JARAYONLARINING
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI****Kodirova Maxfuza Maxmudovna** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*kodirovamaxfuza7@gmail.com*Navoiy davlat universiteti***РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГИДРОЛОГИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ
И КАРСТОВЫХ ПРОЦЕССОВ В НУРАТИНСКОМ РАЙОНЕ****Кодирова Махфуза Махмудовна** – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент**Навоийский государственный университет***REGIONAL CHARACTERISTICS OF HYDROLOGICAL FEATURES
AND KARST PROCESSES IN THE NURATA DISTRICT****Kodirova Mahfuza Makhmudovna** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, associate professor**Navoi State University*

Tayanch soʻzlar: Nurota, arid iqlim, Chashma, karst jarayoni, tektonik yoriqlar, gʻorlar, yer osti suvlari, artesian manbalari.

Rezyume. Maqolada Nurota tumanidagi asosiy buloqlarning ilmiy-gidrologik tavsifi keltirilgan, “Chashma” gidrologik obyektining hududiy ekotizimdagi roli kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda Nurota tizmasi, uning murakkab karst tizimlari va gidrologik manbalari, gʻorlari va buloqlarning gidravlik bogʻliqligi yoritilgan.

Ключевые слова: Нурота, засушливый климат, Чашма, карстовые процессы, тектонические разломы, пещеры, подземные воды, артезианские источники.

Резюме. В статье представлено научно-гидрологическое описание основных родников района Нурота и всесторонний анализ роли гидрологического объекта «Чашма» в региональной экосистеме. Исследование проливает свет на горный массив Нурота, его сложные карстовые системы и гидрологические источники, а также на гидравлическую связь его пещер и родников.

Key words: Nurota, arid climate, Chashma, karst processes, tectonic faults, caves, groundwater, artesian springs.

Summary. This article presents a scientific and hydrological description of the main springs in the Nurota region and a comprehensive analysis of the role of the ‘Chashma’ hydrological feature within the regional ecosystem. The study sheds light on the Nurota mountain range, its complex karst systems and hydrological sources, as well as the hydraulic connectivity of its caves and springs.

Kirish. Nurota tumani gidrologik jihatdan Markaziy Osiyoning qurgʻoqchil (arid) zonalarida yer osti va yer usti suvlarining oʻzaro murakkab taʼsirini oʻrganish uchun noyob hududiy tizim hisoblanadi. Tumandagi gidrologik obyektlar asosan Nurota tizmasidan keladigan oqimlar va yer osti artesian havzalariga bogʻliq [2]. Tumandagi buloqlar asosan Nurota togʻ tizmasining tektonik yoriqlari va ohaktosh qatlamlarining filtratsiyasi natijasida hosil boʻlgan. Nurota togʻlari asosan paleozoy davriga oid ohaktosh, dolomit va marmarlardan tashkil topgan [1]. Bu jinslar suv taʼsirida oson eriydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nurota tizmasi, uning murakkab karst tizimlari va gidrologik manbalari bir necha avlod olimlari – geologlar, gidrogeologlar va arxeologlarning diqqat markazida boʻlib kelgan. Bu hududni oʻrganishda quyidagi olimlarning hissasi beqiyos:

Oʻrta Osiyo gidrogeologiyasining asoschilaridan biri O.K.Lange boʻlib, u Nurota tizmasidagi yer osti suvlari-ning shakllanish qonuniyatlarini va togʻ jinslarining suv oʻtkazuvchanligini ilk bor ilmiy asoslab bergan [4]. Oʻzbekistonda muhandislik geologiyasi va gidrogeologiyasi maktabi yaratuvchisi akademik G.A.Mavlonov Nurota hududidagi artesian havzalari va “Chashma” kabi yirik buloqlarning tektonik yoriqlar bilan bogʻliqligini oʻrgangan [6]. Gidrogeolog olim N.N.Xojiboyev Nurota va Qizilqum hududidagi yer osti suvlarining zaxiralarini baholash va ularning irrigatsiyada foydalanish boʻyicha fundamental tadqiqotlar olib brogan [8]. V.G.Xodjayev Nurota togʻlaridagi karst jarayonlari va gʻorlarning gidrologik rejimini maxsus speleologik ekspeditsiyalar davomida tahlil qilgan [9].

Gʻorlar nafaqat suv manbai, balki tarixiy maskan sifatida ham oʻrganilgan boʻlib, bu sohada akademik Yahyo

Gʻulomov Nurota tumanidagi qadimiy sugʻorish tizimlari va karizlarni arxeologik jihatdan oʻrgangan bosh olim. U karizlarni “antik davr muhandislik moʻjizasi” deb atagan va ularning Nurota oazisi hayotidagi rolini isbotlagan [10]. 1950-60-yillarda D.N.Lev Nurota tizmasidagi gʻorlarni (xususan, Peshogʻor gʻorini) oʻrgangan. U gʻorlar ichidan paleolit davriga oid mehnat qurollarini topib, bu yerlar insoniyatning eng qadimiy manzilgohlaridan biri ekanini ilmiy tasdiqlagan [5]. Geografiya fanlari doktori, karstshunos olim M.M.Mamatqulov Nurota togʻlaridagi karst gʻorlarining tasnifini (klassifikatsiyasini) ishlab chiqqan va ularning ekologik muhofazasi boʻyicha dasturlar yaratgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Yaqin yillarda Nurota hududida gidrogeologik qidiruv va ekologik monitoring ishlari jadallashgan. Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi mutasaddilari hamda gidrogeolog olimlar ishtirokida Nurota tumanida 2026-yil yanvarda yangi yer osti suv zaxiralarini aniqlash boʻyicha dala tadqiqotlari oʻtkazildi [2].

Tahlil va natijalar. Nurota oazisining markaziy qismida joylashgan muhim gidrologik obyekt “Chashma” bulogʻi oʻzining oʻzgarmas fizik koʻrsatkichlari bilan ajralib turadi. Ilmiy oʻlchovlar natijasiga koʻra, manba suvining harorati yil davomida termodinamik muvozanatda boʻlib, shifobaxsh xususiyatlarga ega. Suvning kimyoviy tarkibi murakkab mikroelementlar kompleksidan iborat.

Nurota buloqlarining hosil boʻlishi va yer ostidagi yoʻnalishi bir nechta gidrogeodinamik bosqichlardan oʻtadi.

Birinchi bosqich- Infiltratsiya zonasi (Togʻ choʻqqilari) joylashgan boʻlib, Nurota tizmasining 2000 m dan baland qismlariga tushgan qor va yomgʻir suvlari ohaktoshli (karstli) yoriqlar orqali yer qaʼriga singib ketadi.

Ikkinchi bosqich-Akkumulyatsiya (To‘planish) zonasi bo‘lib, suv paleozoy davri jinslari orasida 500 metrdan 1500 metrgacha bo‘lgan chuqurlikda to‘planadi. Bu yerda suv yer qa‘ri issiqligi va minerallar bilan boyiydi.

Uchinchi bosqich-Tektonik yoriqlar (Migratsiya yo‘li) bo‘lib, Nurota shahri ostidan o‘tuvchi yirik tektonik uzilmalar suv uchun “magistral” vazifasini bajaradi. Suv bosim ostida yuqoriga, yer yuzasiga qarab intiladi. “Chashma” va boshqa yirik buloqlar aynan shu yoriqlarning yer yuzasiga chiqish nuqtalarida hosil bo‘ladi.

Nurota “Cashma”sining Gidroteknik ko‘rsatkichlar

Bos-qich	Jarayon nomi	Chuqurlik/Masofa	Suvning holati
I	Shimilish	0-300 m	O‘ta chuchuk, filtratsiyada
II	Mineralizatsiya	300-1200 m	Minerallar bilan boyish
III	Vertikal ko‘tarilish	1000-0 m	Artezian bosimi ostida
IV	Chiqish (Buloq)	Yer yuzasi	+19,5°C barqaror harorat

“Chashma” muqaddas bulog‘i tumandagi eng yirik va barqaror artezion manba hisoblanadi. U gidrogeologik tipiga ko‘ra ko‘tariluvchi artezion buloq hisoblanib, unda suv yer qa‘ridagi yuqori bosim ostida tektonik yoriq orqali yuqoriga chiqadi. Buloqqa kirib keluvchi suv miqdori sekundiga o‘rtacha 400-440 litr bo‘lib, bu miqdor fasllar almashishiga qaramay deyarli o‘zgarmaydi. Suvning kimyoviy tarkibi murakkab mikroelementar kompleksdan iborat bo‘lib, unda jami 15 xil mikroelement aniqlangan. Suvning mineral tarkibida asosan, kumush (Ag), oltin (Au), yod (I), brom (Br) va radon (Rn) elementlari mikrodozalarda mavjud. Kumush ionlari suvning uzoq vaqt davomida buzilmasligini va bakteritsid xususiyatini ta‘minlaydi. Suvning harorati yil davomida o‘zgarmas +19°C, +20°C.

Nurota chashmasining sirli jihatiga bu yerning tabiiy o‘rni va buloqning shifobaxsh xususiyatlari ham sabab bo‘lgan. Shuningdek, chashma suvi tarkibidagi fosfor moddasi suvning va baliqlarning tovlanib turishini ta‘minlab, jozibali ko‘rinish paydo qiladi. Ming yillar davomida oqib turgan chashmaning muzlashi hech kuzatilmagan, u minerallashgan yumshoq ichimlik suvidir. Aniqlanishicha, mazkur suvning tarkibidagi minerallarning yuqori biologik faolligi va kimyoviy elementlarning tibbiy-balneologik xususiyatlari oshqozon-ichak xastaliklariga davo. Suvdagi yod moddasi bo‘qoq kasalligiga, noyob brom moddasi esa asab kasalliklariga shifo ekanligi qadimdan ma‘lum. Uning tarkibidagi kumush eritmasi esa suv tarkibi yaxshi saqlanishini ta‘minlaydi.



1-rasm. Nurota Chashma majmuasi.

Nurota tog‘larining ichkarisida Omonxona bulog‘i joylashgan bo‘lib, ushbu buloq o‘zining shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur. Uning suvining tarkibida magniy, kalsiy va natriy tuzlari yuqori konsentratsiyada. Gidrogeologlar ushbu suvni “o‘ta toza va biologik faol” deb tasniflashadi. U inson organizmidagi modda almashinuvini yaxshilash va buyrakdagi tuzlarni eritish xususiyatiga ega ekanligi ilmiy isbotlangan. Yog‘ingarchilik suvlari ohaktoshlardagi mayda yoriqlar orqali sizib kirib, vaqt o‘tishi bilan ularni kengaytiradi va ulkan yer osti karst bo‘shliqlari hamda g‘orlarni hosil qiladi. Nurota buloqlari aynan mana shunday ulkan yer osti karst g‘orlarida to‘plangan suv zaxiralaridan to‘yinadi. Buni ilmiy tilda “karstli suvli qatlam” deb ataladi.

Nurota tizmasidagi karst jarayonlari ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

Ochiq karstlar: Yer yuzasidagi voronkalar va g‘or og‘izlari -masalan, Sentob va Uxum vodiylaridagi kichik g‘orlar. Ular atmosfera yog‘inlarini yer ostiga o‘tkazuvchi “voronka”lardir.

Yopiq (chuqur) karstlar: Yer osti 200-500 metr chuqurlikda joylashgan, suv bilan to‘la g‘orlar. Nurota shahridagi buloqlar aynan shu chuqur karst tizimlaridan suv oladi. Nurota buloqlari – bu shunchaki yer ostidan chiqayotgan suv emas, balki Nurota tizmasining butun karst ekotizimi mahsuli bo‘lib, g‘orlar qurisa yoki ifloslansa, buloqlar ham o‘z kuchini va shifobaxshligini yo‘qotadi. Nurota tizmasining karst g‘orlari nafaqat gidrologik tizimning ajralmas qismi, balki o‘ziga xos ekologik boshpana va ilmiy laboratoriya vazifasini ham bajaradi.

Nurota buloqlari va karst g‘orlari o‘rtasida “Sifonli bog‘lanish” mavjud bo‘lib, bunda tabiiy rezervuarlar, ya‘ni yer ostidagi g‘orlar o‘ziga xos ulkan suv idishlari vazifasini bajaradi. Suv bu g‘orlarda yillar davomida filtrlanadi va minerallar bilan boyiydi. Karst g‘orlari yer yuzasidan ancha balandda yoki chuqurda joylashgan bo‘lishi mumkin. Suvning g‘orlardan buloqlarga oqib kelishi gidravlik bosim hisobiga sodir bo‘ladi. “Chashma” bulog‘ining suv sarfi (debiti) o‘zgarmasligi aynan yer ostidagi mana shunday ulkan karst rezervuarlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Buloqlarning qiyosiy-kimyoviy jadvali

Buloq nomi	Tipi	Mineral-lashuvi	Asosiy xususiyati
Chashma	Artezian (ko‘tariluvchi)	0.8-1.0 g/l	Kumush ionlari, yuqori debit
Omonxona	Mineral (shifobaxsh)	1.2-1.5 g/l	Oshqozon-ichak va buyrak davosi
Kariz buloqlari	Grunt suvlari yig‘indisi	0.4-0.6 g/l	O‘ta chuchuk va yumshoq
Sentob buloqlari	Voklyuz (tog‘ darchasi)	0.5-0.7 g/l	Past haroratli, tiniq

Bugungi kunda Nurota buloqlarining g‘orlar bilan bog‘liqligini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

Indikatorli (bo‘yoqli) usul: Yuqori tog‘dagi karst voronkalariga zararsiz bo‘yoq yuboriladi va u qaysi buloqdan qancha vaqtdan keyin chiqishi kuzatiladi. Bu suvning yer osti yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Izotop tahlili: Suvdagi vodorod va kislorod izotoplarini o'rganish orqali suvning yer ostida necha yil "sayohat" qilgani aniqlanadi. (Nurota suvlari uchun bu muddat bir necha o'n yillar bo'lishi mumkin).

Xulosa va takliflar. Nurota buloqlari mintaqadagi gidrostratigrafik qatlamlarning "oynasi" hisoblanadi. Ularni muhofaza qilish nafaqat diniy yoki madaniy, balki Markaziy Osiyoning chuchuk suv zaxiralarini saqlash nuqtai nazaridan ham o'ta muhimdir.

Nurota buloqlari - bu yopiq gidrologik tizim bo'lib, uning tozaligi bevosita Nurota tog'lari tepasidagi ekologik

holatga bog'liq. Tog' tepasida ifloslanish yuz bersa, bu 10-15 yildan keyin buloq suvi tarkibida aks etishi mumkin (migratsiya tezligiga ko'ra). Nurota tizmasining gidrogeologik tuzilishida karst jarayonlari (suvda eruvchan tog' jinslarining yemirilishi) markaziy o'rin tutadi. Buloqlarning shakllanishi va ularning yer osti yo'nalishlari bevosita ushbu karst g'orlari va bo'shliqlari bilan bog'liq.

Nurota buloqlari faqatgina yer ostidan chiqayotgan suv emas, balki Nurota tizmasining butun karst ekotizimi mahsulidir. G'orlar qurisa yoki ifloslansa, buloqlar ham o'z kuchini va shifobaxshligini yo'qotadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Navoiy viloyati va Nurota bo'limlari).
2. O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi. Nurota tumanida yangi yer osti suv zaxiralarini aniqlash bo'yicha gidrogeologik dala tadqiqotlari hisoboti. – Toshkent: 2026.
3. Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti (GIDROINGEO). Navoiy viloyati yer osti suvlari monitoringi va gidrogeokimyoviy xaritasi. – Toshkent: 2024.
4. Ланге О.К. Водопроницаемость горных пород и условия формирования подземных вод Нуратинского хребта. // Труды Института гидрогеологии и инженерной геологии им. О.К. Ланге. – Ташкент: «Фан», 1967. – Вып. 3. – С. 12–28.
5. Лев Д.Н. Поселения древнекаменного века в пещерах Центрального Узбекистана. // Труды Самаркандского государственного университета им. Алишер Навои. Новая серия. – Самарканд: Саопtions СГУ, 1957, Вып. 78, – С. 15-32.
6. Mavlonov A.A. O'zbekiston gidrogeologiyasi va muhandislik geologiyasi. -Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2018.
7. Маматкулов М.М. Карст и карстовые пещеры Нуратинских гор (вопросы морфологии и классификации). // Узбекский геологический журнал. – Ташкент: 1979. № 4. – С. 26-33.
8. Ходжибаев Н.Н., Пулатов К.П. Мелиоративная гидрогеология Узбекистана. – Ташкент: «Узбекистан», 1981.
9. Ходжаев В.Г. Карстовые пещеры Нуратинских гор и их гидрологический режим. // Пещеры Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1978. – С. 34-42.
10. G'ulomov Ya. «Xorazmning sug'orilish tarixi: eng qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha». – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1957.

UDK : 908.911

QASHQADARYO VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**Normatov Sunnat Axmadovich – o‘qituvchi**sunnatnormatov@gmail.com*Shahrisabz davlat pedagogika instituti***ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ТУРИЗМА
В КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ****Норматов Суннат Ахмадович – преподаватель***Шахрисабзский государственный педагогический институт***OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF RURAL TOURISM IN KASHKADARYA REGION****Normatov Sunnat Axmadovich – Lecturer***Shahrisabz State Pedagogical Institute*

Tayanch so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, qishloq turizmi, qishloq joylari, madaniy meros va tarixiy obidalar, turizm imkoniyati.

Rezyume. Maqolada Qashqadaryo viloyati qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari haqida tumanlar miqyosidagi qishloqlar nuqtayi nazaridan bayon qilingan bo‘lib asosan qishloq tumanlari hududida joylashgan turizm imkoniyati yuqori qishloqlari haqida so‘z borgan bo‘lib bu qishloqlarning bugungi kundagi turistik imkoniyatlari ochib berilgan.

Ключевые слова: Кашкадарьинский край, сельский туризм, сельские районы, культурное наследие и исторические памятники, туристический потенциал.

Резюме. В статье описываются возможности развития сельского туризма в Кашкадарьинской области с точки зрения сел районного уровня, с акцентом на села с высоким туристическим потенциалом, расположенные в сельских районах, и раскрывается текущий туристический потенциал этих сёл.

Key words: Kashkadarya region, rural tourism, rural areas, cultural heritage and historical sites, tourism potential.

Summary. The article describes the opportunities for developing rural tourism in the Kashkadarya region from the perspective of district-level villages, mainly focusing on villages with high tourism potential located in rural districts, and reveals the current tourist potential of these villages.

Kirish. Qashqadaryo viloyati joylashuv o‘rniga ko‘ra boshqa viloyatlardan alohida ajralib turadigan o‘ziga xos bir qancha ko‘rinishlari mavjud bo‘lib ularga quyidagilarni aytishimiz mumkin. Viloyat hududining o‘ziga xos landshaftlariga ega bo‘lgani, xususan, viloyatning shimol va shimoli g‘arbida tekisliklar janubiy va janubi sharqiy tog‘lar, shimoli sharqiy qismi tog‘lardan iborat bo‘lib bu viloyat hududida joylashgan qishloqlarning bir biriga o‘xshamagan hamda birining tabiatini ikkinchi takrorlamaydigan o‘ziga xos ajib qishloqlarning ko‘pligi bilan ham ajralib turishini aytishimiz mumkin bunday imkoniyatlar viloyat hududida joylashgan qishloqlarda qishloq turizmini rivojlantirishga keng imkoniyat beradi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xususan viloyatning to‘g‘li hamda tog‘oldi qishloqlariga Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Dehqonobod, Qamashi hamda chiroqchi tumani yuqori tog‘li qishloqlarini aytadigan bo‘lsak, viloyatning markaziy va garbiy qismida adirliklarni hududidan iborat bo‘lgan tuman qishloqlari va viloyatning G‘arbiy qismi hisoblangan Muborak, Mirishkor, Nishon, Koson tumani hududlarida joylashgan qishloqlarda cho‘l turizmini bir qancha ko‘rinishlarini rivojlantirishga keng imkoniyat beradi. Viloyat hududida joylashgan qishloqlarning o‘ziga xos ko‘rinishiga ega bo‘lgan qishloqlarining ko‘pligi bilan ham alohida ajralib turadigan tumanlarni ham aytishimiz mumkin [2:127].


Xususan, bu hududda joylashgan tog‘ qishloqlarining aksariyati daryo havzalarida joylashgan bo‘lib bu qishloqlarda tabiiy go‘zalligi va o‘ziga xos tabiat uyg‘unligida rivojlanganligi hamda chiroqli vodiylari, xushmanzara tog‘lari va sharqiroq daryolar bilan boyligi ushbu joylarda shakllangan qishloqlarda turizmning yerik tarmog‘laridan biri o‘lga ekoturizmni rivojlantirishga keng imkoniyatlar

ochib beradi. O‘zining boy tarixiy merosi, go‘zal tabiati hamda go‘zal tabiiy landshaftlari, qishloq joylarining o‘ziga xos hunarmandchiliklari va agrar salohiyatga ega hudud bo‘lib ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirishda tog‘ bo‘ylab piyoda yurish (trekking), tog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosini tamosho qilish, tog‘ manzaralari, sharsharalar, daryolar bo‘ylari hamda tog‘ manzaralariga sayohat qilish va bu hududlarda tabiat qo‘riqxonalari va dam olish maskanlarini tashkil etish, suv manbalari atrofida mavsumga qarab damolish zonalarini tashkillashtirish bu hududlarga mahaliy qolaversa xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko‘payteradi.

Qishloq joylari o‘zinig tabiiy holicha tayyor bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘pligi bilan hamda qishloqlarning o‘ziga xos tabiiy sharoitdan kelib chiqib dehqonchilik mahsulotlariga ham boyligini aytishimiz mumkin misol tariqasida respublikamizda ilk agroturizm maqomini olgan qishloq Kitob tumanida joylashgan Varganza qishlog‘i ekanligini aytish mumkin bu hududda anorchilik fermer xo‘jaligi va bu qishloqda yashayotgan mahaliy aholining anorchilik va mahaliy aholining anor fermer xo‘jaligi va mahaliy ishlab chiqarishni bog‘lab bu hududga tashrif buyurayotgan turistlar anor festivallariga taklif etadi. Shuningdek, Kitob tumanining boshqa Qaynar hamda Bashir qishloqlariga rasmiy turizm maqomining berilishi, bu kabi turizm qishloqlarining turistik imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi [5:265].

Shahrisabz tumanida ham turizm imkoniyati yuqori bo‘lgan o‘nlab qishloqlari mavjud bo‘lib asosan turizm imkoniyati yuqori qishloqlari Oqsuv hamda Tanxoz daryosi bo‘ylab joylashgan qishloqlar hisoblanadi. Shahrisabz tumanida joylashgan turizm imkoniyati yuqori qishloqlarga G‘elon, Ko‘l, Shut, Kamar, Xitoy, Ammag‘on, Yakkaxona,

Hisorak va Miraki kabi qishloqlarni aytishimiz mumkin. Xususan, tuman qishloqlari orasida eng ko'p turist tashrif buyurayotgan Miraki, G'elon, Kamar, Xitoy kabi qishloqlarni ayishimiz mumkin. Shahrisabz tumani turizm imkoniyati viloyat tumanlari orasida oldingi o'rinlarda turadi deb aytishimiz mumkin, tumanning turizm imkoniyati resubilika tumanlari orasida ham alohida ajralib turadi deb aytsek, mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan ham tuman hududida joylashgan Miraki va G'elon qishloqlariga turizm maqomini berilishi bejiz emas. Miraki qishlog'i tuman hududida joylashgan turistik imkoniyati yaxshi rivojlangan qishloq bo'lib bu hududga tashrif buyuradigan turistlarning tashrifi yil davomida to'xtamaydi. Aksincha Viloyatning enk kam turist tashrif buyurayotgan hududlariga misol qilib Mirishkor, Muborak, Nishon tumanlari hududida joylashgan qishloqlar hissasiga to'g'ri kelib bu hududlarda joylashgan turistik imkoniyati bor qishloqlarda han turizmining faqat bir turini rivojlantirish va qolgan boshqa ikkinchi tarmog'ini rivojlantirish imkoniyatlari ma'lum doirada cheklanganligi ko'rish mumkin. Misol tariqasida Mirishkor tumanida joylashgan qishloqlardan biri Jeynov qishlog'ida Etnoturizm hamda sechanko'l turizm zonasini tashkil etilayotgani va Muborak tumani hududida joylashgan qishloqlardan Qoraqum qishlog'ida tuya suti bilan davolavchi maskanlarning borligi bu hududda tibbiyot turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyat mavjudligini aytishimiz mumkin [3:266].



1-rasm. Tumanlar hududiga fasllar kesimida tashrif buyurgan turistlar soni.

Xususan, quydagi 1-rasm orqali berilgan ma'lumotda viloyat qishloq tumanlariga tashrif buyurayotgan turistlarning fasllar kesimida tashriflarini ko'radigan bo'lsak, eng ko'p turistlar qabul qilayotgan hudud bu Shahrisabz tumani hisoblanib tuman hududga tashrif buyurayotgan turistlar soni faqatgina qish faslida kam ekanligini ko'rish mumkin aksincha yillning qolgan fasllarida boshqa tumanlarga qaraganda turistlar ko'pligini ko'rish mumkin.

Qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilgan bolib xususan Qamashi tumanida joylashgan Maydanak baland tog' turistik zonasi barpo etilmoqda Qamashi tumanida joylashgan bu bu hudud dengiz sathidan 2600-2750 metr balandlikda joylashgan noyob tog'li kurort va ilmiy-turistik maskan hisoblani hozirda bu hududda turizmini rivojlantirish naqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, undan tashqari Yakkabog' tumani hududida joylashgan go'zal landshaftlariga ega bo'lgan qishloqlari Guldarasoy, Tatar, Toshqo'rg'on kabi qishloqlar hamda Qizilsoy daryosi hududida joylashgan sharqiroq

svulariga boy bo'lgan 2 ta sharsharaning bir daryo bo'yida joylashganligi bu hududga turistlar tashrifini yildan yilga toboro ortib borayotganligi quydagi berilgan 1-3-rasmlar orqali batafsil ma'lumot berilgan bo'lib undan tashqari bu tumanning baland tog'larida joylashgan Amir Temur g'orining mavjudligi hududda ekoturizm, tog' turizmi hamda etnaturizm kabi turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatini mavjudligini ko'rish mumkin [4:203].

1-jadval. Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan ichki turistlar tashrifi (ming kishi)

t/r	Tuman va shahar nomi	2022 yilda (ming kishi)	2023 yilda (ming kishi)	2024 yilda (ming kishi)
	Qashqadaryo viloyati	1786.5	1 985.00	2150,40
1	Qarshi shahri	146.5	154.80	177,10
2	Shahrisabz shahri	110.1	167.40	217,20
3	G'uzor tumani	94.8	103.90	126,20
4	Dehqonobod tumani	94.1	102.80	125,30
5	Kasbi tumani	52.4	61.30	72,40
6	Kitob tumani	135.8	150.90	220,70
7	Koson tumani	50.3	72.40	86,00
8	Ko'kdala tumani	62.9	68.20	77,70
9	Qamashi tumani	94.4	130.30	151,50
10	Qarshi tumani	81.9	87.80	96,30
11	Mirishkor tumani	39.2	45.50	49,2
12	Muborak tumani	59.2	84.10	107,60
13	Nishon tumani	67.9	88.40	55,30
14	Chiroqchi tumani	91.1	96.50	116,40
15	Shahrisabz tumani	123.3	241.00	345,20
16	Yakkabog' tumani	109.6	124.70	181,30

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlariga yillning har faslida turistlar tashrif buyuishlari mumkin. Bunga sabab viloyat tabiiy sharoitining qulayligi va iqlimining o'ziga xosligi bu hududga tashrifi kutilayotgan turislarga muammo tug'dirmaydi aksincha Viloyat relyefining tekislik tog'oldi va tog'li hududda joylashganligi, qish oylarida tog'oldi va tog'li qishloqlarni yanada maftunkor qiladi. Shu bois ham viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar soni yildan yilga ortib borayotganligini mahaliy turistlardan tashqari xorijiy turistlar tashrifidan ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Viloyat tashrif buyurayotgan turistlarning umumiy sonini quyidagi 1- jadvali orqali ko'rishimiz mumkin unga ko'ra 2022-yilda tashrif buyurgan turistlarga qaraganda 2024-yilda tashrif buyurgan turistlarning soni Tumanlar miqyosida turlicha o'sish ko'rinishiga ega.

Xususan, yuqoridagi jadval orqali shuni ko'rish mumkinki keyingi 3 yillikda viloyat qishloq tumanlari hamda qishloq joylarga tashrif buyurgan ichki turistlar tashrifining yildan yilga ortib borayotganligini ko'rish

mumkin. Bunday imkoniyat viloyat hududida joylashgan qishloq va qishloq tumanlarida turizm sohasini ayniqsa turizm sohalari orasida qishloq turizmining ham ahamiyati va imkoniyatlari kundan kunga ortib borayotganligini qolaversa bu qishloq tumanlariga xorijiy turistlarning ham tashrifi yildan yildga ortayotganligi ham ko'rish mumkin. Xususan, ichki turistlar eng ko'p tashrif buyurgan qishloq tumanlariga Shahrisabz tumani bo'lib oxirgi yillarda bu hududga tashrif buyurgan ichki va xorijiy turistlar soni 345 ming kishidan ortgan bo'lsa eng kam turistik tashri esa 49,2 ming kishi tashrif buyurgan hudud bu Mirishkor tumani hisoblanadi [1:54]. Viloyat qishloq tumanlari orasida eng ko'p turtistik tashrif buyurayotgan qishloqlar tumanlariga G'uzor tumaniga 126 ming, Kitob tumaniga 220 ming va qolgan tumanlarga ham turistlar tashrifi yildan yilga ortib borayotganligini ko'rish mumkin eng ko'p tashrif viloyatning Sharqiy qismida joylashgan Qishloq tumanlariga hamda shu hududda joylashgan qishloqlarning turizm imkoniyati yuqori hisoblanib lekin bu qishloqlarga turistlar sonini yanada o'tirishda bir qancha muammola bor bo'lib ularga quydagilarni aytish mumkin.

Muammolar. Qishloq tumanlarida xususan tog' qishloqlarida turistik imkoniyat boshqa hudud qishloqlari turistik imkoniyati yuqoriligi bilan alohida ajralib tursada lekin aynan shu tog' qishloqlarida turizmni rivojlantirishda bir qancha mavjud muammolar bo'lib ularga quydagilarni aytish mumkin.

- qishloq joylarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi
- qishloq tumanlarida reklama va marketingning sustligi
- qishloq tumanlari va qishloqlarda kadrlarning yetishmasligi

Taklif va tavsiyalar. Qishloq turizmi ozining ajoyib tabiati go'zal manzaralari hamda bu hududlarda istiqomat qiluvchi aholing milliy urf odatlari va qadriyatlarini tomosha qilish uchun bu hududlarda tashrif buyuruvchi turistlarning yuqorida berilgan jadvalda ko'rib o'tganimizdek yildan yilga ortib borayotganligini bu tashrif qishloq turizmini rivojlantirishda keng imkoniyatlar beradi. Shu boisdan biz Viloyat qishloq turizmini rivojlantirishda quydagi taklif va tavsiyalarni beramiz.

- turizm imkoniyati yuqori qishloqlarda mehmon uylarini ko'paytirish

- qishloq joylarga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy turistlar uchun zamonaviy marketing sohalari yanada takomillashtirish

- tog' qishloqlari ekologik toza hududlarda turizm klasterlari yaratish

- turizm imkoniyati yuqori qishloqlarida istiqomat qiluvchi mahalliy aholiga turizm sohalari bo'yicha treninglar o'tkazish

- turizm imkoniyati yuqori qishloqlarda davlat-xususiy sheriklik asosida bu qishloqlarda turizmni jadal suratlarida rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni jalb qilish

Xulosa. Viloyat qishloq va qishloq tumanlarida qishloq turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat mavjud bo'lib xususan bu hududlar o'zining tabiiy, tarixiy va madaniy resurslarga boyligi shuningdek bu qishloqlarda zamonaviy infratuzilma shakllantirish va samarali marketing siyosati orqali qishloq turizm imkoniyati yuqori qishloq joylarda barqaror turizm tizimini shakllantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu esa turistik imkoniyati yuqori qishloqlarda istiqomat qilayotgan aholining ish o'rinlari bilan taminlanishi hamda qishloq joylarda ijtimoiy farovonlikning oshishiga xizmat qiladi.

Viloyatning ayniqsa tog' va tog'oldi qishloqlarida turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar keng bo'lib, tabiiy resurslarga boy qishloq hududlarida turizmning bir qancha korinishlari mavjud bo'lib xususan bu qishloqlarda ekoturizm, etnoturizm, gastronomik turizm, tibbiyot turizmi, sport turizmi hamda shop-turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud. Turizm imkoniyati yuqori qishloqlarda bu imkoniyatlardan samarali foydalanish jarayonida turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish uchun infratuzilmani yanada takomillashtirish hamda transport xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish qishloq joylarda ayniqsa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlantirish bu hududga turistlar oqimini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yuqorida aytilganidek, qishloq joylarda turizm sohalarning izchil rivojlanishi natijasida qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratiladi, qishloq aholisining mehnat resurslarining bandligi ta'minlanadi, qishloqlardagi turistik-rekreatsion resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy daromadlar oshishiga xizmat qiladi, hamda qishloq hududlarining ekologik holatini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratadi.

Adabiyotlar

1. Жумаев Х.Х. Қашқадарё вилояти туризмини ривожлантиришда туристик инфратузилманинг аҳамияти. “Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Қарши: 2021-йил 19-май, 53-56-б
2. Usmonov M.R., Jumaboyev T.J., To'g'ilov H.S Normatov S.A. Janubi-G'arbiy O'zbekistonda qishloq turizmi va agroturizm muammolari. “Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Qarshi: 2024-yil 25-26-oktabr, 126-133-b.
3. Usmonov M.R., Suyarova N.A., Normatov S.A. Cho'l turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). // FarDU. ILMIY XABARLAR, Tabiiy fanlar 2/2025, 262-267-b.
4. Normatov S.A. Qashqadaryo viloyati qishloq turizmni rivojlantirish omillari //“Tabiiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari, zamonaviy yondashuvlari va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro: 2024-yil 20-may, 201-204-b.
5. Fayzullayev M.A., Nurmatov N.E., Normatov S.A. Agroturizmni rivojlantirishda xorij tajribasi. “Yangi O'zbekistonda milliy turizm istiqbollari ” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Shahrisabz: 2024-yil 12-iyun, 262-267-b.

CHO'L TURIZMI TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Usmanov Marufdjan Rustamovich – *geografiya fanlari doktori, dotsent*

usmaruf1974@gmail.com

Suyarova Nargiza Ashur qizi – *tayanch doktorant*

nargiza_suyarova@samdu.uz

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

КОНЦЕПЦИЯ ПУСТЫННОГО ТУРИЗМА И ЕГО ТИПЫ

Усманов Маруфджан Рустамович – *доктор географических наук, доцент*

Суярова Наргиза Ашуровна – *докторант*

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

THE CONCEPT OF DESERT TOURISM AND ITS TYPES

Usmanov Marufdjan Rustamovich – *Doctor of Geography, Associate Professor*

Suyarova Nargiza Ashurovna – *doctoral student*

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Tayanch so'zlar: turizm, cho'l turizmi, iqtisodiyot, hudud, turizm turlari, landshaft.

Rezyume. Maqolada turizmning ba'zi turlari haqida ayniqsa cho'l turizmining xususiyatlari, shakl-shamoili, boshqa turizm turlari bilan integratsiyasi, tabiiy geografik tomonlari yoritilgan. Bundan tashqari cho'l turizmini rivojlantirish istiqbollari va imkoniyatlari xususida hamda shakllantirish omillari bayon etilgan.

Ключевые слова: туризм, пустынный туризм, экономика, территория, виды туризма, ландшафт.

Резюме. В статье рассматриваются некоторые виды туризма, в частности, особенности пустынного туризма, его формы, интеграция с другими видами туризма, природно-географические аспекты. Кроме того, описываются перспективы и возможности развития пустынного туризма и факторы его формирования.

Key words: tourism, desert tourism, economy, territory, types of tourism, landscape.

Summary. The article discusses some types of tourism, especially the characteristics of desert tourism, its forms, integration with other types of tourism, natural geographical aspects. In addition, the prospects and opportunities for the development of desert tourism and the factors of its formation are described.

Kirish. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida turizm turlari va ulardan keladigan foydaning oshishi evaziga ayniqsa "nisbatan yosh" tarmoqlaridan biri hisoblangan cho'l turizmiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Cho'l hududlari yer yuzining iqlimiy biroz noqulay, arid sharoitga ega va o'ziga xos landshaftlaridan iborat, yashash shart-sharoitlari noyob biom hamda ekotizimlarni o'z ichiga qamrab oladigan qismidir. Cho'llar sayyoramizning katta qismini egallaydi, binobarin maydoni, relyefi, iqlimi, go'zalligi va boshqa jihatlari bilan bir biridan farq qiladi. Jamiyatda aholining o'sib borishi cho'l turizmi va uning turlariga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Aholi orasida turizm va rekreatsiya - sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish, ko'ngil ochar tadbirlarini targ'ib qilish, ekspeditsiyalarni maqsadli tashkillashtirish lozim. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo geograf olimlari, jumladan, Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, Sh.Azimov, G.R.Asanov, A.S.Soliyev, O.Otamirzayev, S.R.Yerdavletov, N.Alimqulova, M.Husanboyev, K.N.Musin, A.G.Nizamiyev, A.A.Joldasbekov va boshqalar tomonidan turizm geografiyasining turli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [3:12-44].

Metodologiya. Mazkur maqolada turli xil metodlardan foydalanilgan bo'lib, ularga tarixiy, geografik, statistik, qiyosiy geografik, tahliliy va boshqa metodlardan foydalanildi.

Natijalar. Jahonda turizmning rivojlanishida BMTning (1963) xalqaro turizmga oid Rim konferensiyasiga muvofiq "sayyoh" deb bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o'sha yerda turib, sayyohlik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi [1]. Mazkur ta'rifning ayrim ma'nodagi sinonimlari ham uchraydi. Masalan, turizm deganda jismoniy shaxsning istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-

amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda, uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi [2:11-98]. A.A.Soliyev va M.Usmonovlar (2005) tomonidan turizmga quyidagicha ta'rif berilgan edi: "Aholining o'zi yashab turgan mintaqa, hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga turizm deyiladi"[3:12-44]. Ushbu ta'rifning keng qamrovliligiga mos jihatlarda rekreatsiya turizmdan mano, mazmun hamda ilmiy ustunroq ekanligini tushuniladi. Chunki rekreatsiya va turizm parallel bir tizim deb olinsa, lekin ular bir biridan ilmiyligi, maqsadi, vazifalariga ko'ra biroz farqlanadi. Umuman olganda turizm geografiyasining xalqaro modellari o'tgan asrning 1970-1980-yillarida yaratila boshlandi. Bu modellarning mualliflari Kanada, AQSh va Yevropalik olimlar hisoblanishadi [4:19-42].

Jahon turizm sanoatining rivojlanishida juda katta amaliy islohotlarni ko'rilishi sifatida "Sayohatlar to'g'risida Bryussel konvensiyasi (1970)", BTT Bosh Assambleyasi tomonidan maqullangan "turizm xartiyasi"(1985), turizm bo'yicha Gaagadagi (1989) parlamentlararo konferensiya, Osaka konferensiyasi, COP - 2030 va boshqa bir qator tashkiliy amaliy ishlarni keltirib o'tish mumkin. Ushbu amaliy - tashviqot konvensiyalari orqali bugungi kunda turizm sanoat darajasiga chiqdi. Cho'l turizmini tashkil etishda yer yuzining qariyb 109 mln km² (73,3 %) tekisliklar tashkil etgani holda juda ulkan hududlarni nazarda tutsada iqtisodiy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, turizm turlari va xususan cho'l turizmidan tushadigan daromadi, boshqa sohalarga bilan tenglasha oladi. Turizm tushunchasi xorijiy va respublika tadqiqotchi olimlari

tomonidan keng o'rganilgan, biroq ayrim hollarda turli talqinlar uchray turadi. Ma'lumki, turizmning ikki asosiy bo'limi mavjud bo'lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (xalqaro) turizmdir. Mahalliy turizm o'z mamlakati hududida qiyinchiliksiz (vizasiz, bojxona to'siqlarisiz va h.k.) istalgan joyga safar qilishi, dam olishi va boshqa turistik faoliyatda mashg'ul bo'lishidir [3:12-44].

Ba'zi olimlar fikricha, turizm o'zining umumiy xususiyatlari va funksiyalariga ko'ra uch tipga ajratildi: 1.davolanish, 2.sog'liqni saqlash 3.tanishuv turizmi [5:94-232]. Va yana rekreatsiya hududlar va turistik hududlarning bir biriga to'g'ri kelishini o'z vaqtida e'tirof etgan edi. Mazkur qarashlar orqali turizmning ayrim jihatlari tor ko'rinishda talqin etilishi hamda shunday tushinilishi mumkin, boisi estetik zavq, taassurotlar, ekskursiya va b. shu kabi omillar, ayrim turizm turlari kiritish nazarda tutilmagandek. Bundan tashqari yuqoridagi fikrlarga mos tarzda Dmitrevskiy (2000), turizmni sog'lomlashtirish, sport, tanishuv, diniy, kasbiy, ilmiy, ekskursion, festival, xizmat, qishloq turizmi va boshqa turlarga ajratish muvofiqdir [7] deb aytgan. Shunga ko'ra turizmni tashkil etish masalalari ham rekreatsiyaga mos tushmaydi, biroq yuqorida ta'kidlanganidek turizm va rekreatsiya o'zaro parallel chiziqlar kabidir. Chunonchi tabiatning eng noodatiy iqlimi, qiyin tabiiy sharoit va barcha tirik jon yashab qolishga urinish avj nuqtasi aynan cho'l hisoblanadi. Shunday sharoitda turizmni tashkil etish va uning ixlosmandlariga qulay sharoitlarni yaratish bir qator qilinishi kerak bo'lgan ishlarni taqazo etib, iqtisodiy samaradorlik potentsiyali juda ulkan turizm sanoatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turistik resurslar (Putrik, Sveshnikov, 1986) maqsad va vazifalariga ko'ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi [8]. Resurslarning turli xil formatda bo'lishi va har bir hudud uchun hosligi uning turizmni rivojlantirish imkoniyatini belgilaydi.

Muhokama. O'zbekistonning eng muhim tarixiy va turistik shaharlari dunyoning qadimgi madaniyat, manaviyat va sivilizatsiya markazlari sifatida jahon sayyohlarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda turistik marshrutlarning ko'plab yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularga sayyohlarni qiziqtirish mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Bizningcha, respublika viloyatlarining barchasida o'ziga hos turistik imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish, mintaqalardagi mavjud turistik obyektlarni (tarixiy, ma'daniy, arxeologik, arxitektura, tabiiy rekreatsiya resurslari va h. k) chuqur turistik geografik jihatdan baholash va aniq marshrutlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, turistik marshrutlarning qiziqarli bo'lishi uchun oddiygina ko'ringan turistik resurslarni ko'zdan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir [9].

R.Xayitboyev (2018) esa cho'llarda turizmni rivojlantirish sabablari to'g'risida to'xtalib shunday ta'riflagan: birinchidan, cho'llarimizdan qadimiy "Buyuk Ipak yo'li" ning izlari hozirgacha saqlanib qolgan. Cho'llarimizda 1000 yoshli maqbaralar va 1000 yoshli daraxtlar, tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari, xalqaro "Qizil Kitob"dagi noyob, endemik hayvonlar, o'simliklar, xalqaro miqyosdagi tabiiy markazlar, muqaddas ziyoratgohlar bor [6:10-124]. Iqtisodiyotni eng bezarar, eng optimal sanoat sohasi sifatida turizm sanoati va ayni cho'l turizmining O'zbekiston hududida naqadar katta resurs mavjudligi bayon etilgan. O'zbekistonning turizm

imijida xalqaro sayyohlik tashkilotlari tomonidan "ochiq osmon ostidagi uy" deya ta'riflanilayotganligi ham bejizga emas. Cho'llar – arid iqlimli, yog'in deyarli yog'maydigan yoki juda kam tushadigan, o'simlik va hayvonot olami siyrak, doimiy oqar suvlar bilan ta'minlanmagan hududlarga aytiladi. Cho'llarning sovuq yoki issiq cho'llarga kirishi uning qaysi kengliklarda joylashganligiga bog'liq bo'lib, yiliga o'rtacha 200-250 mm gacha yog'in tushishi mumkin. Cho'lshunos olimlar A.G.Babayev va Z.G.Freykinlarning fikricha, cho'l – juda quruq va jazirama iqlimli, nihoyatda kam yog'inli va nisbatan siyrak o'simlik qoplamiga ega hududlardir deb tushuntirishgan bo'lsa, amerikalik geograf, xaritashunos James Monteith esa (1895) Cho'l nima - degan savolga "mamlakatning quruq hududi, oasis esa cho'lning unumdor hududlari" deya ta'riflagan [10]. Yana bir risola – S.Williamsning 2025-yilda nashr etilgan "Sands of Resilience: Life Thriving in Extreme Desert Conditions" nomli asarida cho'l haqida quyidagicha ta'rif keltiriladi: "...cho'llarning hozirgi holatiga sho'ng'ishdan oldin, cho'l nima qilishini, nimaga qodirligini tushunish muhimdir. Cho'l deganda yiliga 250 mm dan kam yog'in yog'adigan hudud tushuniladi. Bu ba'zi boshqa joylarda bunga qaraganda kamroq degani deya ta'riflagan, bundan tashqari muallif o'quvchiga cho'l dagi omon qolish uchun kurashning foydali tomonlarini keltirib o'tgan [11].

Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha taqqoslaganda – Turkmaniston 80 % dan ortiq, Qozog'istonda 27 % ortiq hududi cho'l hududiga ega bo'lsa [12], O'zbekiston 78.7 %, qismini cho'llar egallagan.

D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlar cho'l deb: geologik va biologik jihatdan yaxlit tabiat kompleksi bo'lib, uning hosil bo'lishida yagona sabab – quruq iqlim bo'lib, olimlarning fikricha namlikning tanqisligi va yuqori harorat cho'llarning paydo bo'lishiga sababchidir [13:32-41].

Ba'zi hollarda atmosfera bosimi, orografik yopiq hududligi, sovuq dengiz oqimlari ham bevosita cho'llarni paydo bo'lishida asosiy omil hisoblanadi. Iqlimiy ma'lumotlarga ko'ra cho'l va chalacho'llar yer yuzasining uchdan bir qismini egallagan bu joylarda aholining 15 % qismi istiqomat qiladi [14:560]. Iqlim omili cho'llarni shakllanishi va tarkib topishida ayrim hollarda hududini o'zgartirishida eng muhim asos sifatida qaraladi. Pastqam yerlar ya'ni dengiz sathidan past yerlarda cho'llanish ko'p hollarda tuz bilan qoplangan tekisliklardan iborat bo'lishi, o'simliklardan sukkulent o'simliklar uchirashi mumkin. Eol jarayonlari ma'lum bir hududning landshaftiga ta'sir etuvchi kuchlardan biri bo'lib, ayniqsa cho'llarda bu jarayon rivojlangan. Ko'pincha olimlar cho'llarni sovuq va issiq cho'llarga ajratishadi hamda sayyoramiz haroratining umumiy shakllanishida muhim o'rin tutishini ta'kidlashadi. Ushbu holatda issiq cho'llarga S.Ka'bir, Nefud, Kalaxari, Buyuk Havza, Qoraqum, Qizilqum va boshqalar kiradi. Sovuq cho'llarga esa Namib, Atakama, Gobi va b. har ikki shakldagi haroratda ham hayot nishonalari mavjuddir. Cho'llarni relyefi, quyosh radiatsiyasi, yog'in miqdori, shu hudud uchun xos bo'lgan harorat va uning joylashuviga qarab tasniflanadi. Atmosfera havo massalari ta'siri ostida kun va tun harorati o'rtasidagi tafovut tog' jinslarining o'zgarishiga uchray parchalanishiga olib keladi. Shamol, suv va organizmlar tashish va yotqizish akkumulyatsiya sodir bo'ladi. Yuqoridagilarning orasida shamollar cho'llardagi asosiy kuchlardan biri bo'lib, atrof

manzarasining shaklini o'zgartirib turadi. Parchalangan tog' jinslarining tashilishida shamol o'zi ko'tarish kuchiga mos qum donalarini ma'lum bir joylarga yotqizib barxan va qumtepalliklar hosil qiladi.

Qiziqarli jihati shundaki cho'l hududidagi landshaft komponentlari qurg'oqchil sharoitda juda qiyinchilik bilan hayot kechirayotgandek tasavvur uyg'otadi, ammo aslida ular uchun eng qulay sharoit shu muhit mos sanaladi. Ular boshqa turli landshaft komplekslarida yashab keta olmasligi, bu o'simliklarda nihoyatda sezilishi, ularga ayni shu iqlimiy hayot, geografik muhit kerak bo'lishi mumkin. V.P.Kyoppen (1923) iqlimiy tasnifiga ko'ra (keyinchalik tuzatishlar kiritgan R.U.Geiger ham qo'shib aytiladi) cho'l va chalacho'llar quruqlikning katta qismini egallagani holda ularni issiq va sovuq iqlimli cho'llarga bo'lingan [15]. Kyoppen-Geiger iqlim xaritasiga ko'ra yillik o'rtacha harorat 18°C dan izotermik chiziq o'tkazish orqali chegaralangan edi. Issiq cho'l iqlimini 20-33° shimoliy va janubiy kengliklar bo'ylab o'tkazilsa Sahroi Kabir, Liviya, Nubiya, Avstraliya, Mohave, Arabiston cho'li, Dashti Lut, Tar kabi cho'llardan o'tadi. Sovuq cho'l iqlimiga esa Gobi, Atakama, Patagoniya, Taklamakon, Qizilqum kabi cho'llar taalluqli. Mazkur cho'llarda yoz ancha issiq, qish esa quruq va yog'inlar cheklangan bo'lib, 30-40 ° kengliklarda mo'tadil zonada ayrimlari tog'lar bilan o'ralgan geografik hududlarda joylashgan. Dunyo olimlari yer yuzi bo'ylab cho'llarni beshta asosiy turga bo'lish mumkin degan xulosaga kelishgan: subtropik, qirg'oq, yomg'ir-soyali (joylashgan o'rni), ichki va qutb. Ushbu tasniflar ularning qurg'oqchilikka ta'sir qiluvchi omillarga asoslanadi. ya'ni izoterma, harorat va yog'inlarning ko'rsatkichlari zonallikning chegaralanishiga asos qilib olingan (1-jadval).

Cho'l turizmini ko'pgina olimlar ekoturizm, gorizontol turizm sifatida tushuntirishgan, biroq so'ngi yillardagi tadqiqotlar orqali cho'l turizmining o'zini alohida va ko'pqirrali tarmoqlangan turizm turi sifatida ko'rishmoqda. Chunki ba'zi turizm turlarining cho'l turizmi bilan uyg'unlashuvini kuzatilib, maqsad va vazifasiga ko'ra farq qiladi (2-jadval). Aslida shu mintaqadagi qadimiy sivilizatsiyalarning boshlanishidayoq, ushbu turizm turi rivojlanganligini mahalliy urf odatlarda, madaniyati, turmush tarzi orqali ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda Arabiston yarim oroli, shimoliy Afrika, Avstraliya, Eron, AQSh hududlarida cho'l turizmi nihoyatda taraqqiy etib ketdi.

1-jadval. Kelib chiqishiga ko'ra cho'llarning paydo bo'shida rol o'ynovchi omillar

Subtropik cho'llar	Ular yuqori harorat, kam yog'ingarchilik va quruq havo massalari bilan ajralib turadi. Ular odatda past kengliklarda joylashgan va keng ko'lamli atmosfera sirkulyatsiyasi ta'sirida kechadi
Sohil cho'llari	Sovuq okean oqimlari yog'ingarchilikni kamaytiradigan barqaror sovuq dengiz qatlamini yaratadigan qirg'oq bo'ylab uchraydi. Bu cho'llarda yumshoq harorat va yuqori namlik mavjud
Yomg'ir soyali (pozitsiya tufayli) cho'llar	Tog' tizmalarining past tomonida hosil bo'ladi, nam havo massasi tog'lar uzra ko'tarilgach, u soviydi va yog'ingarchilikni chiqaradi, boshqa tomoni quruq qoladi

Ichki cho'llar	katta suv havzalaridan uzoqda joylashgan bu cho'llar namlik manbalaridan uzoqligi sababli juda kam yog'ingarchilik oladi. Bunga ayni yurtimizdagi cho'l hududlari ham kiradi
Qutb cho'llari	Bu juda sovuq va quruq muz sahro hududlari bo'lib, ko'pincha muz va qor bilan qoplangan, juda kam yog'ingarchilik tushadi

Izoh: mualliflar tomonidan ishlandi.

Cho'l turizmining o'ziga xos turlari bir-biriga mos kelishi mumkin, ko'plab tashrif buyuruvchilar faoliyat va tajribalar kombinatsiyasi bilan shug'ullanishadi. Chunki, turizm turlarining integratsion qorishuvi, iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda cho'l haqida mahalliy o'zbek tadqiqotchi – olimlari tomonidan bildirilgan fikr va qarashlar turli ilmiy, adabiy va geosiyosiy manbalarda uchraydi. Namuna sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan: Akademik Y.G'ulomov (Yahyo G'ulomov) – tarixchi va geograf olimning fikriga ko'ra, "cho'llar – bu qadimiy sivilizatsiyalarning beshigidir. O'zbekiston hududidagi cho'l zonasida qadimgi sug'orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan, ko'hna vohalar va karvon yo'llari aynan mana shu joylardan o'tgan" [16:83]. Y.G'ulomovning Zarafshonning quyi oqimidagi neolit, eneolit va bronza davri madaniyatlarini o'rganishi bizni Movarounnahrning qadimiyligi haqidagi ilgari mavjud bo'lgan g'oyani tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur qilgani alohida muhim xizmatdir" [16]. Ajdodlarimizning o'troqlashishi esa dehqonchilik va boshqa sohalarning jadal rivojlanishi, sharoitning o'zgarishi taqazosi sababli kechgan. Cho'llarimizda eramizdan oldingi V-VI asrlarda qurilgan, xorazmshohlar saroylarining xarobalariga, cho'lga aylangan Orol dengizining havzasiga hozirning o'zida dunyoning 81 ta mamlakalaridan turistlar kelmoqda [6:10-124].

2-jadval. Maqsad va vazifasiga ko'ra turlarga bo'linishi

Sarguzasht turi	piyoda sayr qilish, lager qurish, kvadratsikl haydash, tuya kabi ulovlarda sayr, yulduzlarni tomosha qilish, faslga qarab cho'llarda lolazordagi manzara;
Madaniy tanishish turi	cho'llarda yashovchi jamoa xalqlarning tarixi, an'analari va turmush tarzini zavq bilan kuzatishga qaratilgan. Mahalliy qishloq aholisi orasiga tashrif buyurish, festivallarda qatnashish, tarixiy joylarni o'rganish va an'anaviy hunarmandchilik va amaliyotlarni oladi;
Ekoturizm	turizmning ushbu shakli tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilishni, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishni va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlashni ta'kidlaydi. Bu ko'pincha tabiatda sayr qilish, qushlarni kuzatish va noyob cho'l ekotizimini o'rganish kabi tadbirlar;
Ma'naviy turizm	ayrim shaxslar va guruhlarini yolg'izlik, meditatsiya va ruhiy aks ettirish uchun cho'l muhitiga jalb qilinadi, tabiat bilan aloqa va izolyatsiya tuyg'usini izlaydi;

Ilmiy turi	cho'llar geologiya, ekologiya, astronomiya va boshqa ilmiy sohalarini o'rganayotgan tadqiqotchilar va talabalar uchun ochilmagan sirlarni berishi mumkin;
Hashamatlashtirilgan turi	yuqori darajadagi cho'l kurortlari, lagerlari qulaylik va eksklyuzivlikni izlayotgan sayohatchilarga hashamatli turar joylar, har xil mazali taomlar, shaxsiy tajribalarni taklif qiladi;

Izoh: mualliflar tomonidan tuzilgan.

O'zbekistondagi turizmning dastlabki rivojlanish davri sifatida o'tgan asrning birinchi choragi aytiladi. V.V.Bartold (1984) "Turkistonda arxeologik tadqiqotlar masalasiga doir" kitobida: o'lkani o'rganish hali oldimizda turibdi, bu ishda bosh rolni mahalliy ilmiy kuchlar o'ynamog'i lozim degan edi [2:11-98].

Cho'l – bu juda ham quruq iqlimga moslashgan, flora va faunaga kambag'al, arid xususiyatli sho'rlashgan tuproqlardan iborat hududlar bo'lib, cho'llarning gipsli, sho'rxok, shag'alli, gilli, qumli kabi cho'llar yer yuzasi bo'ylab tarqalgan, D.B.Weaver (2001) ma'lumotlariga ko'ra, cho'l turizmi yettita xususiyatni o'z ichiga oladi: ajoyib geologik xususiyatlar va iqlim sharoitlari, yovvoyi gul va boshqa sporadik gulli ko'rgazmalar, qadimiy, ulkan yoki noyob o'simliklar, karvonlar yoki boshqa cho'l sayohatlari, mahalliy fuqarolar odatlari, vohalar, qo'riqlanadigan hududlar [18:23-41].

Bugungi zamonaviy iqtisodiyot rivojlangan zamonda iqtisodiyotning eng ajralmas va keng tarqalgan sohalaridan biri bu – turizm hisoblanadi. Bu haqiqatga oxirgi 10-15 yilliklarda kengroq e'tibor berila boshlanishi natijasida O'zbekistonga sayyohlar oqimi o'tgan yilgiga nisbatan 16,8% ga oshgan [17:262-268]. Bunga misol tarzda Turizm

qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda 2025-yil sarhisobi bo'yicha 11,6 mln xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi va 4,8 mlrd \$ turizm xizmatlari eksporti kechdi. Ichki turizm esa 23,7 mln dan ortib, 17 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan [19]. Bu, albatta, xursand qilsa-da, ammo bu raqamlarni yanada kengaytirish maqsadida, ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Qadimiy arxitektura namunalari joylashgan shaharlar va tabiati so'lim hududlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori. bo'lib bu jarayon Qashqadaryo viloyatida ham juda ko'plab obyektlar uchraydi. Qashqadaryo turistik infratuzilmasini yaxshilash uchun mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari 81 tadan 327 taga, o'rinlar soni 5500 taga, turoperatorlar soni esa 34 taga yetgani qayd etildi. Masalan, Shahrisabz shahriga rejada 83,4 ming kishi tashrif buyurishi rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 188,3 ming kishi tashrif sayohat qilgan. Shahrisabz tumanidagi ko'rsatkich esa bundan ham quvonarli bo'lib, rejada 137,0 ming kishini tashkil etsa, amalda 302,8 ming kishi tashrif buyurgan. Bu tasnifni yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, hududlarni geografik joylashuviga ko'ra baholaganimizda, tog'li va cho'l mintaqalariga ham bo'lib o'rganish lozimligini ko'rsatmoqda [17:262-268].

